Bulut muhitida ma’lumotlarni zaxiralash va tiklash jarayoni axborot xavfsizligining ajralmas qismidir. Ma’lumotlarning yo‘qolishi yoki buzilishi texnik nosozliklar, tabiiy ofatlar, kiberhujumlar yoki inson xatolaridan kelib chiqishi mumkin. Shu sababli samarali zaxiralash strategiyalari ishlab chiqilgan. Geo-taqsimlangan zaxira nusxalar ma’lumotlarning turli geografik joylarda saqlanishini ta’minlaydi, bu tizimning bir mintaqadagi nosozligi boshqa hududdagi zaxira nusxalarga zarar yetkazmasligini kafolatlaydi. Snapshot asosidagi nusxalar tizimning bir vaqt ichidagi holatini saqlash imkonini beradi va ma’lumotlarni avvalgi holatga tezda tiklashga yordam beradi. Versiyalar bo‘yicha tiklash mexanizmi foydalanuvchilarga ma’lumotlarning avvalgi versiyalarini qaytarish imkonini beradi, bu noto‘g‘ri o‘chirib yuborish yoki xatoliklarni bartaraf qilishda muhimdir. Shu tarzda zaxiralash va tiklash tizimlari bulutli xotirada ma’lumotlarning mavjudligini va butunligini ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki bulut texnologiyalari zamonaviy axborot tizimlarida ma’lumotlarni markazlashmagan muhitda saqlash va qayta ishlash imkonini beradigan, iqtisodiy va resurs jihatdan eng qulay vositalardan biri. Ammo unda ma’lumotlarni saqlash va havfsizligini ta’minlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Axborotni bulutli hotirada himoyalash uchun havfsizlikni ta’minlashning kriptografik usullar, autentifikatsiya va avtorizatsiya, tarmoq

ISSN 3030-3907

xavfsizligi, monitoring va audit, ma’lumotlarni zaxiralash va tiklash kabi texnologiyalarni qo‘llash va foydalanuvchi nazoratida saqlash muhim masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mather, T., Kumaraswamy, S., & Latif, S. (2009). *Cloud Security and Privacy: An Enterprise Perspective on Risks and Compliance*. O‘Reilly Media.
2. Jackson, K., & Goessling, S. (2011). *Architecting Cloud Computing Solutions*. Wiley.
3. Abdurasulov, R., & Usmonov, D. (2015). *Axborot xavfsizligi*. Toshkent: Fan.
4. Ahmedov, X. (2018). *Bulut texnologiyalari asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Axborot Texnologiyalari Milliy Universiteti.
5. Norqobilov, N. (2016). *Axborotlarni himoyalash va kriptografiya*. Toshkent: Fan va Texnologiya.
6. Stallings, W. (2017). *Cryptography and Network Security: Principles and Practice* (7th ed.). Pearson.
7. Zhang, Q., Cheng, L., & Boutaba, R. (2010). Cloud computing: state-of-the-art and research challenges. *Journal of Internet Services and Applications*, 1(1), 7–18.
8. Cloud Security Alliance. (2020). *Security Guidance for Critical Areas of Focus in Cloud Computing v4.0*. https://cloudsecurityalliance.org
9. Liu, F., Tong, J., Mao, J., Bohn, R., Messina, J., Badger, L., & Leaf, D. (2011). NIST cloud computing reference architecture. *NIST Special Publication*, 500(292), 1–29.
10. Chen, D., Paxson, V., & Katz, R. (2010). *What’s New About Cloud Computing Security?* University of California, Berkeley.

ISSN 3030-3907

ALGORITMIK FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA INFORMATIKANING NAZARIY ASOSLARINING AHAMIYATI

Saidov Jasur Doniyor o‘g‘li

Guliston davlat universiteti “Axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada algoritmik fikrlash tushunchasi, uning informatika fanidagi o‘rni hamda algoritmik fikrlashni shakllantirishda informatikaning nazariy asoslarining ahamiyati yoritilgan. Algoritmlar, ma’lumotlar tuzilmalari, diskret matematika, avtomatlar nazariyasi va hisoblash nazariyasi kabi nazariy tushunchalarning algoritmik tafakkurni rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, algoritmik fikrlashning zamonaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyati va amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: algoritmik fikrlash, informatikaning nazariy asoslari, algoritm, diskret matematika, hisoblash nazariyasi, avtomatlar.

Abstract. This article discusses the concept of algorithmic thinking, its role in computer science, and the importance of the theoretical foundations of computer science in the formation of algorithmic thinking. The role of theoretical concepts such as algorithms, data structures, discrete mathematics, automata theory, and theory of computation in the development of algorithmic thinking is analyzed. The importance and practical application of algorithmic thinking in the modern educational process are also considered.

Keywords: algorithmic thinking, theoretical foundations of computer science, algorithm, discrete mathematics, theory of computation, automata.

Аннотация. В данной статье рассматривается концепция алгоритмического мышления, её роль в информатике и важность теоретических основ информатики в формировании алгоритмического мышления. Анализируется роль таких теоретических понятий, как алгоритмы, структуры данных, дискретная математика, теория автоматов и теория вычислений, в развитии алгоритмического мышления. Также рассматривается важность и практическое применение алгоритмического мышления в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: алгоритмическое мышление, теоретические основы информатики, алгоритм, дискретная математика, теория вычислений, автоматы.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi informatika fanining barcha sohalarda muhim ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda. Informatika nafaqat dasturlash yoki kompyuter texnologiyalarini o‘rganish bilan

ISSN 3030-3907

cheklanib qolmay, balki mantiqiy, tizimli va algoritmik fikrlashni shakllantiruvchi fan sifatida ham e’tirof etiladi. Ayniqsa, algoritmik fikrlash zamonaviy mutaxassislar uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu fikrlash turini shakllantirishda informatikaning nazariy asoslari muhim metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Algoritmik fikrlash — bu masalani aniq, ketma-ket va mantiqiy qadamlar asosida yechish qobiliyatidir. Algoritmik fikrlashga ega shaxs murakkab muammoni kichik bo‘laklarga ajrata oladi, ularni tahlil qiladi va optimal yechim ishlab chiqadi. Ushbu fikrlash turi faqat dasturlashda emas, balki kundalik hayotdagi muammolarni hal etishda ham keng qo‘llaniladi. Algoritmik fikrlashning shakllanishi aniq tushunchalar, qoidalar va nazariy bilimlarga asoslanadi. Algoritmik fikrlashni aniqlaydigan asosiy xususiyatlar Muammoni tahlil qilish, Ketma-ket bosqichlar, Ko‘rib chiqish va test qilish, Natijaga erishish rejasini tuzishni qaraladi. Bunda muammoni yechishga kirishishdan oldin uni yaxshilab tahlil qilish va kichik bo‘laklarga bo‘lish. Ketma-ket bosqichlar asosida qadamlar. Har bir yechimni aniq qadamlar orqali ifodalash. Ko‘rib chiqish va test qilish. Bosqichlarni turli holatlarda tekshirish va kerak bo‘lsa takomillashtirish. Natijaga erishish rejasini tuzish. Har bir qadam qanday natija beradi va u jamlana oladimi — deb baholash. Algoritmik fikrlash — bu informatika, matematik ta’lim va ta’lim nazariyasining kesishmasida shakllangan yondashuvdir. Bu bo‘yicha ko‘plab olimlar tadqiqot olib borganlar. Bularga Seymour Papert, Jeannette Wing, Mingus va Grassllarni keltirish mumkin. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimkin algoritmik fikrlash o‘znavbatida hisoblashga oid fikrlash (computational thinking) tizimi ichidadur. Hisoblashga oid fikrlash muammoni abstraktlashtirish, aniqlash, modellashtirish kabi boshqa tarkibiy komponentlarni ham qamrab oladi. Algoritmik fikrlash aynan algoritm yaratish va uni qo‘llash jarayoniga qaratilgan tushuncha sifatida qaraladi.

Informatikaning nazariy asoslari algoritmlar nazariyasi, ma’lumotlar tuzilmalari, diskret matematika, formal tillar va avtomatlar, hisoblash nazariyasi kabi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bo‘limlar axborotni qayta ishlash jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Nazariy asoslar yordamida algoritmlarning to‘g‘riligi, samaradorligi va murakkabligi tahlil qilinadi. Bu esa algoritmik fikrlashni chuqur va asosli shakllantirishga xizmat qiladi. Informatikaning nazariy asoslari talabalarda abstrakt, mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda muammolarni formal yondashuv asosida yechishga o‘rgatadi.

Algoritmlar nazariyasi informatikaning eng muhim nazariy bo‘limlaridan biri hisoblanadi. U masalalarni yechish uchun tuziladigan algoritmlarning

ISSN 3030-3907

xossalari, tuzilishi va samaradorligini o‘rganadi. Algoritm tushunchasi aniqlik, diskretlik, tugallanish va natijaviylik kabi asosiy xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. Ma’lumotlar tuzilmalari — axborotni kompyuter xotirasida samarali saqlash va qayta ishlash usullarini o‘rganuvchi nazariy yo‘nalishdir. Ma’lumotlar tuzilmalari algoritmlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, algoritm samaradorligi ko‘p jihatdan tanlangan tuzilma bilan belgilanadi.

Diskret matematika informatikaning nazariy asosi bo‘lib, algoritmlar va hisoblash jarayonlarini matematik jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Diskret matematika doirasida mantiqiy mulohazalar, to‘plamlar nazariyasi, munosabatlar, kombinatorika, graf nazariyasi va matematik induksiya o‘rganiladi.

Formal tillar va avtomatlar nazariyasi axborotni formal belgilar orqali ifodalash va qayta ishlash jarayonlarini o‘rganadi. Bu bo‘limda: alifbolar, grammatikalar, formal tillar, chekli avtomatlar, pushdown avtomatlar kabi tushunchalar ko‘rib chiqiladi. Ushbu nazariya dasturlash tillari sintaksisi, kompilyatorlar va tarjimonlar ishlash prinsiplari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Algoritmik fikrlash nuqtayi nazaridan, avtomatlar nazariyasi murakkab tizimlarni soddalashtirilgan modellar orqali tushunishga yordam beradi.

Hisoblash nazariyasi informatikaning eng fundamental va falsafiy bo‘limlaridan biridir. U qaysi masalalarni algoritmik tarzda yechish mumkin, qaysilarini esa mumkin emasligini o‘rganadi. Ushbu bo‘limda: Turing mashinasi, hisoblanadigan va hisoblanmaydigan funksiyalar, algoritmik yechiluvchanlik, NP-to‘liq masalalar kabi tushunchalar asosiy o‘rinni egallaydi. Hisoblash nazariyasi algoritmik fikrlashni chuqurlashtirib, masalalarga tanqidiy va ilmiy yondashishni shakllantiradi.

Axborot nazariyasi axborotni miqdoriy baholash, kodlash va uzatish jarayonlarini o‘rganadi. Ushbu bo‘lim Shannon axborot nazariyasiga asoslanadi va entropiya, axborot sig‘imi, shovqin tushunchalarini o‘z ichiga oladi. Axborot nazariyasi: ma’lumotlarni siqish, axborotni ishonchli uzatish, kodlash samaradorligini oshirish masalalarini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Informatikaning nazariy asoslari algoritmik fikrlashni quyidagi jihatlar orqali shakllantiradi:

- muammoni formal modelga keltirish,
- yechimni ketma-ket qadamlar orqali ifodalash,
- yechimning to‘g‘riligi va samaradorligini baholash,
- cheklovlar va imkoniyatlarni aniqlash.

Bu esa nafaqat informatika, balki boshqa fanlar va real hayotdagi muammolarni hal etishda ham muhim ahamiyatga ega.

ISSN 3030-3907

Algoritmik fikrlashni rivojlantirishda informatikaning nazariy asoslari muhim ahamiyatga ega. Masalan, algoritmlarning vaqt va xotira murakkabligini o‘rganish talabalarda samarali yechim tanlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Diskret matematika esa mantiqiy fikrlash, isbotlash va induksiya orqali algoritmlarni asoslashga yordam beradi. Avtomatlar va formal tillar nazariyasi murakkab tizimlarning ishlash tamoyillarini tushunishga imkon beradi. Hisoblash nazariyasi esa qaysi masalalarni algoritmik tarzda yechish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash orqali algoritmik tafakkurni yanada boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, algoritmik fikrlashni shakllantirishda informatikaning nazariy asoslari muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Nazariy bilimlar algoritmlarni chuqur tushunish, ularni tahlil qilish va samarali qo‘llash imkonini beradi. Algoritmik fikrlash esa nafaqat informatika sohasida, balki boshqa fanlar va kundalik hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli informatikaning nazariy asoslarini o‘qitish va chuqur o‘rganish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurashidov, A.A. Informatikaning nazariy asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2019. – 180 b.
2. Azamatov, A.R. Algoritmlash va dasturlash asoslari. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot, 2013. – 256 b.
3. Qodirov, B.B., Madiyeva, C.D. Informatika ta’limida algoritmik fikrlashni rivojlantirish usullari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2021. – 145 b.
4. Papert, S. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. – New York: Basic Books, 1980. – 252 p.
5. Wing, J.M. Computational Thinking. – Communications of the ACM, 2006. – Vol. 49, No. 3. – P. 33–35.
6. Curzon, P., McOwan, P. Computational Thinking: A Guide for Teachers. – London: Springer, 2018. – 210 p.
7. Cormen, T.H., Leiserson, C.E., Rivest, R.L., Stein, C. Introduction to Algorithms. – 3rd ed. – Cambridge: MIT Press, 2009. – 1312 p.

ISSN 3030-3907

BETON QORISHMALARIDA QO‘LLANILADIGAN PLASTIFIKATORLARNING HOZIRGI HOLATI

F.F.Raximov
Buxoro davlat texnika universiteti
M.B.Boboqulov
Buxoro davlat texnika universiteti
A.K.Astanov
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada beton qorishmalarida qo‘llanilayotgan kimyoviy qo‘shimchalar va plastifikatorlarning turlari haqida bayon qilingan. Shuningdek, qo‘llanilgan plastifikatorning qorishma fizik-mexanik, gidrofizik xususiyatlariga ta’siri qiyosiy tahlillar asosida o‘rganilgan. Sement massasiga nisbatan qo‘llanilishi oddiy plastifikatorlar uchun 0,2 % dan 2 % gacha, superplastifikatorlar uchun esa 0,5-1,5% gacha etib belgilangan.

Kalit so‘zlar: Beton, plastifikator, superplastifikator, polikarboksilat.

Аннотация: В данной статье описаны виды химических добавок и пластификаторов, используемых в бетонных смесях. Также на основе сравнительного анализа изучено влияние используемого пластификатора на физико-механические и гидрофизические свойства смеси. Использование обычных пластификаторов относительно массы цемента определено в диапазоне от 0,2% до 2%, а суперпластификаторов – от 0,5% до 1,5%.

Ключевые слова: Бетон, пластификатор, суперпластификатор, поликарбоксилат.

Abstract: This article describes the types of chemical additives and plasticizers used in concrete mixtures. A comparative analysis is also used to examine the effect of the plasticizer on the physical, mechanical, and hydrophysical properties of the mixture. The use of conventional plasticizers relative to the cement mass is determined to be in the range of 0.2% to 2%, while the use of superplasticizers is determined to be from 0.5% to 1.5%.

Keywords: Concrete, plasticizer, superplasticizer, polycarboxylate.

KIRISH

Zamonaviy qurilishda beton asosiy konstruksion materiallardan biri sifatida muntazam takomillashib bormoqda va uning ishlab chiqarilishi hamda qo‘llanilishi hajmi yildan-yilga ortmoqda. Bu tendensiya nafaqat qurilish ko‘lami bilan, balki talab etilgan xossalarga ega bo‘lgan va murakkab muhandislik vazifalarini yechish imkonini beradigan yangi turdagi betonlarning paydo bo‘lishi bilan ham bog‘liq.

Betonning asosiy tarkibi sement, qum, shag‘al va suvdan iborat bo‘lsada, zamonaviy qurilishda kimyoviy qo‘shimchalar keng qo‘llaniladi. Ular beton

ISSN 3030-3907

aralashmasining ishchanligini, mustahkamligini, chidamliligini va boshqa xususiyatlarini yaxshilaydi. Qo‘shimchalar betonning suv sarfini kamaytiradi, qotish vaqtini boshqaradi, sovuqqa yoki kimyoviy ta’sirlarga chidamliligini oshiradi.

Respublikamizning yuqori tezlikda rivojlanayotgan qurilish sohasida turli xil qo‘shimchalar asosidagi modifikatsiyalangan beton va temirbeton konstruksiyalarni ishlab chiqarish ularning tan narxini pasaytirish, shuningdek, sement betonlarining sifatini oshirish va xossalarini yaxshilashda sezilarli natijalarga erishilgan va bu o‘z navbatida bunday betonlarni qo‘llash orqali barpo etilayotgan bino va inshootlarning ishonchliligi va zilzilabardoshligini oshirishga imkon beradi.

Beton qorishmalarida qo‘llaniladigan bog‘lovchi sementni kimyoviy modifikatsiyalash sohasidagi dastlabki qadamlar 1930 yillarda boshlangan bo‘lib, dastlab texnik lignosulfonatlarni joriy etish bilan yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu qo‘shimchalar o‘rtacha plastifikatsiyalovchi ta’sirga ega bo‘lsada, ularni qo‘llash aralashmalarning texnologikligini sezilarli darajada yaxshilash, sement sarfini kamaytirish va betonning mustahkamlik xususiyatlarini oshirish imkonini berdi. 1990 yillarga qadar texnik lignosulfonatlar turli xil modifikatsiya va kimyoviy sintezdan o‘tkazilib, yanada takomillashgan plastifikatorlar yaratildi, ular hozirgi kunda ham qurilish sanoatida qo‘llanilmoqda.

Hozirgi kunda qo‘llanilayotgan kimyoviy qo‘shimchalar sintetik polimer mahsulotlar bo‘lib, quruq modda hisobida sement massasiga nisbatan 0,1-2,0% miqdorda kiritiladi. Ularning plastifikatsiyalovchi ta’siri sement xamirining yuqori ishqoriy muhiti ta’sirida polimer molekulalarining parchalanishi tufayli vaqt bo‘yicha cheklangan (odatda 2 soatdan 6 soatgacha). Bu hodisa plastifikatorning samaradorligini asta-sekin pasayishiga va uning aralashmaning reologik xossalariga ta’sirini yo‘qolishiga olib keladi.

Plastifikatorlarning ta’sir mexanizmini uchta asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

Sirt tarangligini kamaytirishga asoslangan plastifikatsiya. Qo‘shimcha molekulalari suv yuzasida adsorbsiyalanadi, natijada sirt tarangligi kamayadi va sement zarrachalari orasida tarqalishi osonlashadi.

Adsorbsiya va antiagregatsion ta’sir bilan plastifikatsiyalash. Superplastifikatorlarga xos bo‘lgan bu mexanizm polimer molekulalarining sement zarrachalari yuzasiga adsorbsiyalanishidan iborat. Polimer zanjirlarining elektrostatik itarilishi yoki sterik ta’siri tufayli zarrachalarning agregatsiyasi oldini olinadi, bu esa ularning tarqalishini va flokulatsion tuzilmada qamalib qolgan suvning ajralib chiqishini ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907

Havo tortish ta’siri bilan plastifikatsiyalash. Ba’zi plastifikatorlar aralashmada zarrachalar o‘rtasida “moylash” rolini o‘ynaydigan, ishqalanishni kamaytiradigan va harakatchanlikni oshiradigan mikroskopik havo pufakchalarining hosil bo‘lishi va barqarorlashishiga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy qurilishda qo‘llanilayotgan kimyoviy qo‘shimchalarning turlari va ularning qorishmaga tasiri 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Beton qorishmalarida qo‘llaniladigan qo‘shimchalar va ularning tasnifi

№	Turlari	Beton qorishmasiga ta’siri	Afzalliklari
1	Plastifikatorlar va superplastifikatorlar	Beton aralashmasining oquvchanligini (ishchanligini) 10-20 sm gacha oshiradi, suv miqdorini 5-15% (oddiy plastifikatorlar) yoki 20-40% (superplastifikatorlar) kamaytiradi. Natijada beton zichroq va mustahkam bo‘ladi. Issiq havoda yoki uzoq masofaga tashishda muhim.	Beton qorishmasida suv sarfini kamaytirish hisobiga g‘ovaklikning kamiyishiga erishiladi, shuningdek, mustahkamlikni 20-50% oshirish imkonini beradi.
2	Tezlatuvchi qo‘shimchalar	Betonning qotish va mustahkamlik olish vaqtini tezlashtiradi. Sovuq havoda yoki tez qurilish talab etilganda ishlatiladi.	Qurilish vaqtini qisqartiradi.
3	Sekinlatuvchi qo‘shimchalar	Qotish vaqtini uzaytiradi. Issiq havoda yoki katta hajmdagi quyishda betonning erta qotib qolishini oldini oladi	Quruq issiq iqlim sharoitida qorishma tarkibidagi sementning normal gidrotatsiyasini ta’minlaydi. Ekologik va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.
4	Havo kirituvchi qo‘shimchalar	Betonda mayda havo pufakchalari hosil qiladi.	Beton materiallarning issiqlik va tovush

ISSN 3030-3907

		Yengil beton materiallar olish imkonini beradi.	izolyatsiyatsiyasini taminlaydi.
5	Gidroizolyatsiya qo‘shimchalari	Betonning suv o‘tkazmasligini yaxshilaydi. Basseynlar, suv omborlari yoki yer osti inshootlari uchun zarur.	Betonning namlik ta’siriga chidamliligini oshiradi va namlik ta’siri ostidagi tuzli korroziyadan himoyalaydi.
6	Sovuqqa qarshi (antifriz) qo‘shimchalar	Past haroratlarda beton quyish imkonini beradi, suvning muzlashini oldini oladi.	Sovuqga chidamlilik siklini oshirishga xizmat qiladi.
7	Maxsus turlar	Korroziya ingibitorlari, ko‘piksizlantiruvchilar va rang beruvchilar.	Armatura zanglashini oldini oladi, havo ko‘piklarini kamaytiradi va dekorativ bezak maqsadlarida qo‘llaniladi.

Qurilish materiallari texnologiyasida betonning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilashdagi yutuqlar ko‘p jihatdan kimyoviy modifikatorlarni qo‘llash bilan bog‘liq. Bu jarayonga eng katta hissa qo‘shgan plastifikatsiyalovchi qo‘shimchalar bo‘lib, ular beton qorishmasining reologik xususiyatlarini optimallashtiradi va gidratatsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi, natijada yanada zich va mustahkam tuzilma hosil bo‘ladi


Beton uchun plastifikator (yoki suv kamaytiruvchi qo‘shimcha) — bu beton aralashmasining oquvchanligini (ishchanligini) oshiradigan va suv miqdorini kamaytiradigan kimyoviy qo‘shimcha. U sement zarralarini bir-biridan ajratib, betonni suyuqroq qiladi, lekin mustahkamlikni pasaytirmaydi. Aksincha, suv-sement nisbatini pasaytirib, betonning zichligi va chidamliligini oshiradi.

Oddiy plastifikatorlarning birinchi avlod vakili – lignosulfonat (LS)lar asosida plastifikatorlar bo‘lib, arzon va ko‘p miqdorda mavjud bo‘lib, beton sanoatida muhim rol o‘ynaydi. Lignosulfonatlar arzon, barqaror va ekologik toza polifenolik polimerlar bo‘lib, neftga asoslangan superplastifikatorlarga alternativa hisoblanadi. Ular beton aralashmasida suv sarfini kamaytiradi, oquvchanlikni oshiradi va mustahkamlikni yaxshilaydi. Suvni 5-12% kamaytiradi[6].

ISSN 3030-3907

“Natrium lignosulfonatni” (SLS) oksidlanish va sulfometillash orqali modifikatsiya qilish superplastifikator olishga imkon beradi. Modifikatsiyadan keyin molekulyar massa va sulfo guruhlar soni oshib, suv kamayishi va oquvchanlik yaxshilanadi. 0.3% modifikatsiyalangan SLS qo‘shilganda, sement pastasining oquvchanligi 185 mm ga yetadi, bu oddiy LS dan 15% yuqori hisoblanadi[7].

Lignin asosidagi qo‘shimchalar (LBAS) biorefineriya va pulpa zavodlari chiqindilarini qayta ishlatishga alternativa. Ular plastifikator, superplastifikator, qotishni kechiktiruvchi va havo kirituvchi sifatida ishlatiladi. Modifikatsiyalangan ligninlar (masalan, polietilen glikol bilan) oddiy lignosulfonatlardan sterik to‘siq va fenolik guruhlar tufayli yaxshi samara beradi[8].



a b

1-rasm. Qurilish qorishmalarida ko‘p qo‘llanilayotgan plastifikatorlar
a. Polikarboksilat, b. naftalin - melamin sulfonat

Superplastifikatorlar yuqori samaralilari naftalin sulfonatlar (SMF) va Melamin sulfonatlardir. Biomassa (polissaxaridlar va polifenollar) dan olingan qo‘shimchalar beton uchun ekologik alternativa. Ular suv sarfini kamaytirib, ishchanlik va mustahkamlikni oshiradi. Biomassa qo‘shimchalari 10–100% biomassa tarkibiga ega bo‘lib, neft mahsulotlarini almashtiradi va CO_2 emissiyasini kamaytiradi[9].

Polikarboksilat efirlar (PCE) — eng zamonaviy va samarali tur. Suvni 30-40% gacha kamaytiradi, uzoq vaqt oqimchanlikni saqlaydi. O‘z-o‘zidan zichlanadigan beton (SCC) uchun ideal. Polikarboksilat va lignosulfonat aralash superplastifikatori betonning muhandislik xossalarini (oqimlilik, mustahkamlik, qotish qatlami qalinligi) yaxshilaydi. Aralashma suv o‘tkazuvchi beton uchun samarali, havo kiritish va mustahkamlikni oshiradi[10].

Shunday qilib, laboratoriya sinovlari natijasida sement massasiga nisbatan oddiy plastifikatorlarning qo‘llanilishi 0,2 % dan 2 % gacha, superplastifikatorlar uchun esa bu ko‘rsatgich 0,5-1,5% gacha etib belgilangan. Ortiqcha miqdorning qo‘llanilishi qorishmaning sifat ko‘rsatgichlari va mexanik xususiyatlarini pasayishiga sabab bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

Plastifikatorlardan foydalanish betonlarning mustahkamligini sezilarli darajada oshirib, 100 MPa dan yuqori qiymatlarga erishish, shuningdek, sement sarfini 40% gacha kamaytirish imkonini beradi, bu esa ularni zamonaviy yuqori sifatli betonlar ishlab chiqarishda ajralmas komponentlarga aylantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Rakhimov F., Sharipov A., Abdullayev R. Obtaining gypsum with hydrophobic properties based on silicon polymers //Problems in the textile and light industry in the context of integration of science and industry and ways to solve them:(PTLICISIWS-2022). – 2023. – Т. 2789. – №. 1. – С. 040145.
2. Rakhimov F. F. Organosilicon Polymer Compositions for Building Materials //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2023. – Т. 24. С. 8-12.
3. Ахмедов, В. Н., Ниязов, Л. Н., Рузиева, К. Э., Рахимов, Ф. Ф., & Паноев, Н. Ш. (2018). Гидрофобизация в строительстве.(монография). Издательство Бухара, Дурдона, с160.–2018.
4. Fazlidinovich R. F., Nizamiddinovich G. Z. Construction Hydrophobizer Based On SiliconOrganic Compounds And Its Comparative Analysis //The Peerian Journal. – 2023. – Т. 24. – С. 94-99.
5. 5. 10. Белов, В.В., & Петропавловская, В.Б. (2021). Влияние реологических характеристик цементных паст с минеральными добавками на свойства самоуплотняющихся бетонов. Вестник МГСУ, 16(8), 1017-1028.
6. D.Breilly, et al. Origin and industrial applications of lignosulfonates with a focus on their use as superplasticizers in concrete // International journal of Construction and Building Materials 2021 y Vol. 2, P.3-5
7. G.Yu, et al. Preparation of Concrete Superplasticizer by Oxidation-Sulfomethylation of Sodium Lignosulfonate // International journal of Bio Resources 2013 y.Vol. 8, P.1060-1062
8. V.R.Carvalho, et al. Lignin-Based Admixtures: A Scientometric Analysis and Qualitative Discussion Applied to Cement-Based Composites // International journal of Polymers 2023 y. Vol. 4, P. 1254-1258
9. J.Huang, et al. Development of chemical admixtures for green concrete// Journal of Cleaner Production 2023 y. Vol. 3, P. 1152-1159
10. E.Teymouri, et al. Effects of Polycarboxylate-Lignosulfonate Superplasticizer on the Engineering Properties and Cementitious Paste Thickness of Pervious Concrete // Journal of Rehabilitation in Civil Engineering, 2024 y. Vol. 12, P. 61-84

ISSN 3030-3907

ISSIQ ICHIMLIK VA SHIFOBAXSH DAMLAMALARNI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Saidova Gulbahor Furqat qizi

Buxoro Davlat Pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta'lim) magistri

Annotatsiya. Issiq ichimliklar va shifobaxsh damlamalarni tayyorlash texnologiyasining ilmiy asoslari, xususan, o'simlik xomashyolarining kimyoviy tarkibi, issiqlik bilan ishlov berish jarayonidagi o'zgarishlar, suvning fizik-kimyoviy xususiyatlari hamda damlash rejimining ekstraksiya jarayoniga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot davomida turli o'simliklardan amaliy damlamalar tayyorlanib, ularning organoleptik va funksional ko'rsatkichlari taqqosladi. Olingan natijalar harorat, vaqt va suvning qattiqligi o'simlikdan faol komponentlarning ajralish jarayonini sezilarli darajada o'zgartirishini ko'rsatdi. Xulosa sifatida, damlama sifatini ta'minlash uchun o'simliklarning biologik hususiyatlarini inobatga olgan holda optimal texnologik rejimlarni qo'llash zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Issiq ichimliklar. Shifobaxsh damlamalar. O'simlik xomashyosi. Ekstraksiya jarayoni. Biologik faol moddalar. Texnologik rejim. Harorat va vaqt. Suvning qattiqligi.

Аннотация. В работе изучены научные основы технологии приготовления горячих напитков и лечебных настоев, в частности химический состав растительного сырья, изменения, происходящие в процессе тепловой обработки, физико-химические свойства воды, а также влияние режима настаивания на процесс экстракции. В ходе исследования были приготовлены практические настои из различных растений и проведено сравнение их органолептических и функциональных показателей. Полученные результаты показали, что температура, время и жёсткость воды существенно влияют на процесс выделения активных компонентов из растительного сырья. В заключение подчёркивается необходимость применения оптимальных технологических режимов с учётом биологических особенностей растений для обеспечения качества настоев.

Ключевые слова: Горячие напитки. Лечебные настои. Растительное сырьё. Процесс экстракции. Биологически активные вещества. Технологический режим. Температура и время. Жёсткость воды.

Abstract. This study investigates the scientific foundations of the technology for preparing hot beverages and medicinal infusions, with particular attention to the chemical composition of plant raw materials, changes occurring during thermal processing, the physicochemical properties of water, and the influence of infusion parameters on the extraction process. During the research, practical infusions from

ISSN 3030-3907

various plants were prepared and their organoleptic and functional characteristics were compared. The results demonstrated that temperature, time, and water hardness significantly affect the extraction of active components from plant materials. In conclusion, the study emphasizes the necessity of applying optimal technological regimes while considering the biological characteristics of plants to ensure the quality of infusions.

Keywords: Hot beverages. Medicinal infusions. Plant raw materials. Extraction process. Biologically active substances. Technological regime. Temperature and time. Water hardness.

Kirish

Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasi fanida issiq ichimliklar va shifobaxsh damlamalar inson salomatligini qo‘llab-quvvatlash va funksional oziqlanishni rivojlantirish nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. O‘simlik damlamalari tarkibida polifenollar, flavonoidlar, efir moylari, organik kislotalar va antioksidant xususiyatga ega biologik faol moddalar mavjudligi ularning ahamiyatini oshiradi. Shu bois ushbu ichimliklarning sifat ko‘rsatkichlarini belgilovchi texnologik omillarni ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarbdir. Men mazkur mavzuni tanlashimga sabab — o‘zimning tabiiy ichimliklarga bo‘lgan qiziqishim va ularning tayyorlanish jarayonidagi ilmiy asoslarni chuqurroq anglash istagimdir.

Asosiy qism

1. Xomashyoning kimyoviy tarkibi va uning texnologik ahamiyati

Damlamalarda ishlatiladigan o‘simliklar kimyoviy tarkibi bo‘yicha farqlanadi.

Masalan:

Yalpiz — mentolga boy, efir moylari mavjud.

Zanjabil — gingerol va shogaollarni saqlaydi.

Limon o‘ti — sitral moddasini o‘z ichiga oladi.

Qora choy — katexinlar, taninlar va kofengin asosiy manbai.

Bu moddalar suv bilan ekstraksiya jarayonida turlicha eriydi. Shuning uchun har bir o‘simlikning biologik faol komponentlarini maksimal saqlab qolish uchun mos issiqlik rejimi talab etiladi.

2. Issiqlik bilan ishlov berish (harorat rejimi)

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatdiki: **90–100°C** harorat qora choy barglaridagi polifenollarni samarali ekstraksiya qilish uchun optimal hisoblanadi. **70–80°C** harorat nozik tuzilgan efir moyli o‘simliklar (yalpiz, limon o‘ti) uchun eng maqbul bo‘lib, yuqori harorat ularning aroma komponentlarini parchalaydi. Haddan ziyod qaynoq suv qo‘llanganda efir moylarining uchuvchanligi ortadi, bu esa damlama xushbo‘yligining kamayishiga olib keladi. Demak, harorat ekstraksiya kinetikasini boshqaruvchi asosiy texnologik omildir.

ISSN 3030-3907

3. Damlash muddati va ekstraksiya samaradorligi

Damlash davomiyligi faol moddalar ajralish intensivligiga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqot davomida quyidagi natijalar kuzatildi: Qora choyda **7–10 daqiqa** damlash polifenollarni maksimal ajralishiga yordam berdi. O‘simlik damlamalarida esa **5**–chimlikning achchiqlashishiga sabab bo‘ldi. Ko‘p damlash ekstraksiya jarayonida oksidlanish reaksiyalarini kuchaytiradi, bu ichimlik sifatini pasaytiradi. Bu natijalar vaqtning texnologik rolini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

4. Suvning fizik-kimyoviy xususiyatlari

Tajriba natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: Yumshoq suvda tayyorlangan damlamalar **tiniq rang** va **yumshoq ta’m**ga ega bo‘ldi. Qattiq suvdagi yuqori miqdordagi kalsiy va magniy ionlari polifenollar bilan reaksiyaga kirishib, ichimlikda **bulutlanish** hosil qildi. Suvning pH ko‘rsatkichi ham ekstraksiya sifatiga ta’sir qiladi: neytral yoki biroz kislotali suv samaraliroq natija berdi. Shu sababli suv sifati damlamaning yakuniy ko‘rinish va ta’mini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

5. O‘simliklarning sinergik ta’siri (aralashmalar)

Tadqiqot davomida aralashmalarning sinovdan o‘tkazilishi quyidagilarni ko‘rsatdi: **Zanjabil + limon + asal** kombinatsiyasi yallig‘lanishga qarshi va immunostimulyator xususiyatlar ko‘rsatdi. **Yalpiz + qora choy** aralashmasi tinchlantiruvchi ta’sirga ega bo‘ldi. Biologik faol moddalarning bir-biri bilan sinergiyasi funksional ichimliklarning qiymatini oshirishi ilmiy jihatdan isbotlangan holatdir.

Xulosa

1. Issiq ichimlik va damlamalar sifatini belgilovchi asosiy texnologik omillar — **harorat**, **damlash muddati**, **suv sifati** va **o‘simlik xomashyosi tarkibi**dir.
2. Har bir o‘simlikning kimyoviy tuzilishi uning optimal ekstraksiya sharoitlarini belgilaydi.
3. Damlash rejimlariga rioya qilish biologik faol moddalar saqlanishi va ichimlikning organoleptik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi.
4. Suvning qattiqligi damlamaning ko‘rinishi, ta’mi va ekstraksiya darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.
5. O‘simlik aralashmalarida sinergik effekt mavjud bo‘lib, ular funksional ichimlik sifatini oshiradi.

Ushbu mavzuni o‘rganish menda issiq ichimliklar tayyorlashning ilmiy asoslarini yanada chuqurroq anglash imkonini berdi va kelgusida ushbu sohada yanada mukammal tajribalar olib borish zarurligini ko‘rsatdi

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev Z., To‘xtasinov A. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi. — Toshkent:. 2020.
2. Xayrullayev M. Choy va o‘simlik damlamalari texnologiyasi. — Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
3. Karimov Sh. Fitoterapiya asoslari va o‘simliklarning biologik faol moddalar tarkibi. — Toshkent: Tibbiyot, 2021.
4. Sharipova U., Jo‘rayev O. Oziq-ovqat kimyosi: biologik faol moddalar va ularning o‘zgarishlari. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
5. Жаков В.А. Технология чая, кофе и напитков. — Москва: Колос, 2017.

ISSN 3030-3907

QADOQLASH SEXIDA QO‘LLANILADIGAN ELEKTR YURITMA BOSHQARUV BLOKINI TAKOMMILLASHTIRISH ORQALI MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH VA ENERGIYA TEJAMKORLIKKA ERISHISH

Muradova F.R.
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari kafedrasi p.f.d DSc, professor
Aminov Bobir Nodir o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti magistranti
Inoyatov Oybek Orif o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadoqlash sexlarida qo‘llaniladigan elektr yuritmalarni boshqarish bloklarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot jarayonida mavjud boshqaruv tizimlarining texnik va funksional kamchiliklari tahlil qilinib, energiya sarfini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan zamonaviy texnik yechimlar taklif etildi. Takomillashtirilgan boshqaruv bloki asosida elektr yuritmaning ish samaradorligini oshirish, texnologik jarayonning barqarorligini ta’minlash hamda ishlab chiqarish jarayonida energiya tejamkorlikka erishish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: elektr yuritma, boshqaruv bloki, qadoqlash sexi, energiya tejamkorlik, mahsulot sifati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования блоков управления электроприводами, применяемыми в упаковочных цехах. В ходе исследования проведён анализ технических и функциональных недостатков существующих систем управления, а также предложены современные технические решения, направленные на снижение энергопотребления и повышение качества продукции. Обосновано, что усовершенствованный блок управления позволяет повысить эффективность работы электропривода, обеспечить устойчивость технологического процесса и достичь энергосбережения в производстве.

Ключевые слова: электропривод, блок управления, упаковочный цех, энергосбережение, качество продукции.

Annotattion. This article addresses the issues of improving control units of electric drives used in packaging workshops. During the research, technical and functional shortcomings of existing control systems were analyzed, and modern technical solutions aimed at reducing energy consumption and improving product quality were proposed. It is scientifically substantiated that the improved control unit

ISSN 3030-3907

increases the operational efficiency of the electric drive, ensures the stability of the technological process, and enables energy saving in industrial production.

Keywords: electric drive, control unit, packaging workshop, energy efficiency, product quality.

KIRISH

Hozirgi kunda sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish hamda mahsulot sifatini barqaror ravishda oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qadoqlash sexlari ishlab chiqarish zanjirining yakuniy va mas’uliyatli bosqichi bo‘lib, ushbu jarayonda qo‘llaniladigan texnologik uskunalar va elektr yuritmalar mahsulotning tashqi ko‘rinishi, saqlanish muddati hamda bozorga chiqarilish sifati bilan bevosita bog‘liqdir.Qadoqlash sexlarida elektr yuritmalar asosan konveyer tizimlari, dozatorlar, o‘rash va yopish mexanizmlarida keng qo‘llaniladi. Ushbu elektr yuritmalarning ishonchli va aniqlik bilan ishlashi texnologik jarayonning uzluksizligini ta’minlaydi. Biroq amaliyotda mavjud bo‘lgan an’anaviy boshqaruv bloklari yuklama o‘zgarishlariga yetarli darajada moslasha olmasligi, energiya sarfining ortib ketishi hamda mexanik qismlarning tez eskirishi kabi muammolarga olib kelmoqda.

Shuningdek, energiya narxlarining oshib borishi va energiya tejamkor texnologiyalarga bo‘lgan talabning kuchayishi elektr yuritma tizimlarini modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda. Zamonaviy mikroprotsessorli va raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish orqali elektr yuritmalarning ish rejimini optimallashtirish, ortiqcha energiya yo‘qotishlarini kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, qadoqlash sexlarida qo‘llaniladigan elektr yuritmalarni boshqarish bloklarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-texnik masala hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan ushbu masalalarga e’tibor qaratilib, energiya tejamkorlik va mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan taklif va yechimlar ilmiy asosda yoritib berilgan.

Tadqiqotning maqsadi qadoqlash sexida qo‘llaniladigan elektr yuritma boshqaruv blokini takomillashtirish orqali energiya tejamkorlikka erishish va mahsulot sifatini oshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: qadoqlash sexlarida qo‘llaniladigan elektr yuritmalarni texnik va funksional jihatdan tahlil qilish, ularning ish rejimlari, yuklama xususiyatlari hamda texnologik jarayondagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash;mavjud boshqaruv bloklarining tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish, ularning asosiy kamchiliklari, jumladan energiya yo‘qotishlari, aniqlik darajasining pastligi va moslashuvchanlikning


ISSN 3030-3907

yetishmasligini aniqlash;elektr yuritmalar uchun zamonaviy boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqish, shu jumladan tezlik va momentni boshqarish, yuklama o‘zgarishlariga moslashish hamda energiya sarfini optimallashtirish usullarini qo‘llash;takomillashtirilgan boshqaruv blokining energiya tejamkorligiga ta’sirini baholash, tajriba va hisoblashlar asosida energiya sarfining kamayish ko‘rsatkichlarini aniqlash;ishlab chiqilgan boshqaruv tizimining mahsulot sifatiga ta’sirini amaliy misollar asosida tahlil qilish, qadoqlash aniqligi, barqarorligi va ishlab chiqarish samaradorligidagi o‘zgarishlarni baholash.

Qadoqlash jarayonida elektr yuritmalar tezlik, moment va aniqlik jihatidan yuqori talablarni qondirishi lozim. Taklif etilayotgan takomillashtirilgan boshqaruv bloki mikroprotsessor asosida ishlaydi va real vaqt rejimida yuklama o‘zgarishlariga moslashish imkoniyatiga ega.

Boshqaruv tizimida chastotali o‘zgartirgichlardan foydalanish orqali elektr dvigatelning ish rejimi optimallashtiriladi. Natijada ortiqcha energiya sarfi kamayadi, mexanik qismlarning eskirishi sekinlashadi va mahsulotni qadoqlash jarayonida aniqlik oshadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, takomillashtirilgan boshqaruv bloki yordamida energiya sarfi o‘rtacha 15–20 % ga kamayadi, mahsulot sifati esa sezilarli darajada yaxshilanadi.



Qadoqlash sexlari sanoat ishlab chiqarishining yakuniy bosqichi hisoblanib, mahsulotni iste’molchiga yetkazishdan oldingi muhim jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonda konveyer lentalari, dozatorlar, qadoqlash, o‘rash va yopish mexanizmlari elektr yuritmalar yordamida harakatga keltiriladi. Elektr yuritmalarning barqaror, aniqlik bilan va uzluksiz ishlashi mahsulotning tashqi ko‘rinishi, o‘lcham aniqligi hamda qadoqlash sifati bilan bevosita bog‘liqdir. Shu

ISSN 3030-3907

sababli qadoqlash sexlarida qo‘llaniladigan elektr yuritmalarga yuqori texnik talablar qo‘yiladi.

Amaliyotda qadoqlash sexlarida ko‘pincha an’anaviy rele-kontaktorli yoki oddiy analog boshqaruv bloklari qo‘llaniladi. Ushbu tizimlarning asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat: yuklama o‘zgarishlariga sust moslashish, ishga tushirish va to‘xtatish jarayonida katta tok zarbalari yuzaga kelishi, energiya sarfining ortishi hamda mexanik qismlarning tez eskirishi. Bundan tashqari, tezlik va momentni aniq boshqarish imkoniyatining cheklanganligi mahsulot qadoqlash aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotda taklif etilayotgan boshqaruv bloki zamonaviy mikroprotsessor va chastotali o‘zgartirgich asosida ishlab chiqilgan. Ushbu boshqaruv tizimi elektr dvigatelning tezligi va momentini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Sensorlardan olinadigan ma’lumotlar asosida boshqaruv algoritmi yuklama o‘zgarishlariga mos ravishda dvigatel ish rejimini avtomatik ravishda optimallashtiradi. Natijada elektr yuritmaning ish samaradorligi oshadi va texnologik jarayonning barqarorligi ta’minlanadi.

Takomillashtirilgan boshqaruv blokida PID-regulyatorlar va adaptiv boshqaruv algoritmlaridan foydalanish ko‘zda tutilgan. Ushbu algoritmlar yordamida dvigatel tezligining o‘zgarishi minimal darajaga tushiriladi va qadoqlash jarayonida yuqori aniqlik ta’minlanadi. Bundan tashqari, energiya sarfini kamaytirish maqsadida yumshoq ishga tushirish va tormozlash rejimlari joriy etilgan bo‘lib, bu elektr tarmog‘iga tushadigan yuklamani sezilarli darajada kamaytiradi.

O‘tkazilgan tajribalar va hisoblashlar natijasiga ko‘ra, takomillashtirilgan boshqaruv bloki qo‘llanilganda elektr energiyasi sarfi o‘rtacha 15–20 % ga kamaygani kuzatildi. Shu bilan birga, qadoqlash jarayonining barqarorligi oshib, mahsulot sifati yaxshilandi. Qadoqlashdagi nosozliklar, to‘xtab qolishlar va qayta ishlash holatlari kamaydi, bu esa umumiy ishlab chiqarish samaradorligining ortishiga olib keldi.

Maqolaning ilmiy yangiligi qadoqlash sexlari uchun moslashtirilgan energiya tejamkor elektr yuritma boshqaruv blokini taklif etishdan iborat. Ishlab chiqilgan yechim sanoat korxonalarida amaliy qo‘llash uchun qulay bo‘lib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, takomillashtirilgan boshqaruv bloki yordamida energiya sarfi o‘rtacha 15–20 % ga kamayadi, mahsulot sifati esa sezilarli darajada yaxshilanadi.

ISSN 3030-3907

An'anaviy (eskirgan) qadoqlash tizimlaridagi muammolarni ilmiy va texnik jihatdan chuqurroq tahlil qilsak, takomillashtirish nega shart ekanligi yanada oydinlashadi. Mana bu muammolarning ichki mexanizmlari:

An'anaviy tizimlarda motorlar "to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga tushirish" (Direct-on-Line) usulida ishlaydi.Muammo: Motor yoqilgan soniyada u maksimal aylanishlar soniga erishishga harakat qiladi. Bu konveyer tasmalariga, tishli g‘ildiraklarga (reduktorlarga) va podshipniklarga kuchli mexanik zarba beradi.Oqibat: Zanjirlar uziladi, tasmalar cho‘ziladi va mexanik qismlar muddatidan oldin ishdan chiqadi. Bu esa sexning to‘xtab qolishiga va ta'mirlash xarajatlarining oshishiga olib keladi. Doimiy tezlikda ishlaydigan dvigatelda "yumshoq to‘xtash" (soft stop) funksiyasi bo‘lmaydi.Muammo: Qadoqlash jarayonida (masalan, suyuqlik quyish yoki mahsulotni paketga joylashda) konveyer birdan to‘xtaganda, inersiya hisobiga mahsulot siljib ketadi.Oqibat: * Suyuqliklar idishdan toshib ketadi.Qadoqlash plyonkasi markirovkasi (sana, shtrix-kod) noto‘g‘ri joyga tushadi.Dozalashda xatolik yuzaga keladi (brak mahsulot ko‘payadi).

Motorlar doimiy maksimal tezlikda ishlaganda, sexdagi mahsulot oqimi kam bo‘lsa ham motor bir xil quvvat iste'mol qilaveradi.Muammo: Bo‘sh ishlayotgan (xolostoy) yoki kam yuklama bilan ishlayotgan motorning foydali ish koeffitsienti (η) keskin pasayadi. Shuningdek, ishga tushish paytidagi tok kuchi nominal tokdan 5-7 marta yuqori bo‘ladi.Oqibat: Tarmoqda kuchlanish tushishi yuz beradi va foydalanilmagan energiya uchun ham to‘lov qilinadi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun boshqaruv blokiga Chastotali o‘zgartirgich (VFD) va Dasturlanadigan mantiqiy kontroller (PLC) qo‘shiladi.Tezlik grafikasi: Motor tezligi $[0 \to max]$ oralig‘ida silliq o‘zgaradi (zarbalarsiz).Energiya nazorati: Yuklama kamayganda, tizim avtomatik ravishda motor aylanishini pasaytirib, energiya sarfini $30-50\%$ gacha tejaydi.Sifat nazorati: Sensorlar orqali mahsulot kelishi nazorat qilinadi va motor kerakli nuqtada millimetr aniqligida to‘xtatiladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi qadoqlash sexlari uchun moslashtirilgan energiya tejamkor elektr yuritma boshqaruv blokini taklif etishdan iborat. Ishlab chiqilgan yechim sanoat korxonalarida amaliy qo‘llash uchun qulay bo‘lib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi qadoqlash sexlarida qo‘llaniladigan elektr yuritmalar uchun energiya tejamkor va moslashuvchan boshqaruv blokini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida elektr yuritmalarning ish rejimlarini real vaqt rejimida tahlil qilishga asoslangan boshqaruv yondashuvi taklif etildi. Bu yondashuv yuklama o‘zgarishlariga tezkor

ISSN 3030-3907

moslashish, dvigatel tezligi va momentini aniq boshqarish imkonini beradi hamda qadoqlash jarayonining barqarorligini oshiradi.

Shuningdek, ilmiy yangilik sifatida zamonaviy mikroprotsessorli boshqaruv vositalari va adaptiv boshqaruv algoritmlarini qadoqlash sexlari sharoitiga moslashtirish masalasi hal etildi. Taklif etilgan boshqaruv algoritmlari elektr energiyasi sarfini optimallashtirish bilan birga, mexanik qismlarga tushadigan dinamik yuklamalarni kamaytirishni ta’minlaydi. Bu esa elektr yuritmaning xizmat muddatini uzaytirishga va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan takomillashtirilgan boshqaruv bloki sanoat korxonalarining qadoqlash sexlarida amaliy jihatdan joriy etish uchun qulay hisoblanadi. Ushbu boshqaruv tizimi mavjud texnologik uskunalarga katta moddiy xarajatlarsiz integratsiya qilinishi mumkin. Natijada ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta’minlanib, energiya sarfi sezilarli darajada kamayadi.

Bundan tashqari, taklif etilgan yechim mahsulot sifatini yaxshilash, qadoqlash aniqligini oshirish va ishlab chiqarishdagi nosozliklar sonini kamaytirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari sanoat avtomatikasi, elektr yuritmalarni boshqarish va energiya tejamkor texnologiyalar sohasida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Qadoqlash sexlarida qo‘llaniladigan elektr yuritma tizimlarining asosiy muammolari energiya sarfining yuqoriligi, boshqaruv aniqligining yetarli emasligi hamda texnologik jarayonning barqaror ishlamasligi bilan bog‘liq. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy boshqaruv bloklari yuklama o‘zgarishlariga sekin moslashadi, bu esa qadoqlash jarayonida nosozliklar va mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, mexanik qismlarning tez eskirishi va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarining ortishi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida zamonaviy mikroprotsessorli boshqaruv bloklari va energiya tejamkor boshqaruv algoritmlarini joriy etish taklif etiladi. Takomillashtirilgan boshqaruv bloki elektr yuritmaning ish rejimini optimallashtirib, energiya sarfini kamaytirish, qadoqlash jarayonining aniqligi va barqarorligini oshirish imkonini beradi. Ushbu yechim adabiyotlarda keltirilgan ilg‘or tajribalar va nazariy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida qadoqlash sexlarida qo‘llaniladigan elektr yuritma boshqaruv blokini takomillashtirish mahsulot sifatini oshirish va energiya tejamkorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Taklif etilgan

ISSN 3030-3907

boshqaruv bloki energiya sarfini kamaytirish, texnologik jarayonning barqarorligini ta’minlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida amaliy joriy etilishi mumkin bo‘lib, elektr yuritmalarni modernizatsiya qilish va energiya tejamkor texnologiyalarni rivojlantirish yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida qadoqlash sexlarida elektr yuritma boshqaruv blokini takomillashtirish mahsulot sifatini oshirish va energiya tejamkorlikka erishishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Taklif etilgan boshqaruv tizimi sanoat korxonalarida keng joriy etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xoshimov O.O., imomnazarov A.T. "Elektr yuritma asoslari". – Toshkent: "O‘qituvchi", 2004. *(O‘zbekistondagi asosiy darsliklardan biri, motorlarni boshqarish nazariyasi uchun).*
2. Besekerskiy V.A., Popov E.P. "Teoriya sistem avtomaticheskogo upravleniya". – Moskva: Professiya, 2007. *(Avtomatik boshqarish tizimlari va mantiqiy kontrollerlar nazariyasi uchun).*
3. Hasanov M.X. "Sanoat qurilmalarini avtomatlashtirish va elektr yuritmalarni boshqarish". – Toshkent, 2018. *(Zamonaviy darslik, qadoqlash sexlari va konveyerlar tahlili uchun).*
4. Bose, B. K. "Modern Power Electronics and AC Drives". – Prentice Hall, 2002. *(Chastotali o‘zgartirgichlar (VFD) va energiya tejamkorlik bo‘yicha dunyodagi eng nufuzli manbalardan biri).*
5. Chernyak A.A. "Energosberejenie v elektroprivodah". – Minsk: Viyshaya shkola, 2012. *(Elektr yuritmalarda energiya tejamkorlik hisob-kitoblari bo‘yicha qo‘llanma).*
6. IEC 61131-3 Standard. "Programmable controllers – Part 3: Programming languages". *(PLC dasturlash va boshqaruv bloklarini loyihalash xalqaro standarti sifatida).*
7. Rashid, M. H. "Power Electronics: Circuits, Devices, and Applications". – Pearson, 2014. *(Elektron boshqaruv bloklarining sxemotexnikasi bo‘yicha ma’lumotlar uchun).*
8. Sattorov M. "Qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlarini qayta ishlashda avtomatlashtirilgan elektr yuritmalarning samaradorligi". O‘quv qo‘llanma, 2020. *(Mahalliy ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun).*

ISSN 3030-3907

QUYOSH ELEKTR STANSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANIB ENERGIYA TEJAMKORLIKKA ERISHISH

Muradova F.R.
Buxoro davlat Texnika Axborot kommunikatsiya texnologiyalari kafedrasi p.f.d dsc, professor
Inoyatov Otabek Orifovich
Buxoro davlat Texnika Universiteti magistranti
Baxtiyorov Islom Ixtiyor o‘g‘li
Buxoro davlat Texnika Universiteti magistranti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb bo‘lib borayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari, xususan, quyosh elektr stantsiyalarining (QES) samaradorligini oshirish mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida quyosh panellarining foydali ish koeffitsientiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar, jumladan, harorat rejimi, sirtning changlanishi va invertor qurilmalaridagi texnik yo‘qotishlar tahlil qilingan. Maqolada energiya tejamkorligiga erishish uchun zamonaviy monitoring tizimlarini joriy etish va panellarni sovutishning innovatsion usullari taklif etilgan. Olingan natijalar quyosh elektr stantsiyalarini loyihalashda energiya isroflarini kamaytirish va ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining tannarxini pasaytirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Quyosh energetikasi, fotoelektrik o‘zgartirgichlar, energiya auditi, monitoring, smart-grid, innovatsion sovutish, tejamkorlik texnologiyalari.

Annotation. This article investigates the mechanisms for increasing the efficiency of solar power plants (SPP), which are becoming increasingly relevant in the context of modern energy challenges. The research analyzes external and internal factors affecting the efficiency of solar panels, including temperature conditions, surface soiling (dust accumulation), and technical losses in inverter devices. To achieve higher energy efficiency, the article proposes the implementation of modern monitoring systems and innovative methods for cooling solar panels. The results obtained allow for the reduction of energy waste in the design of solar power plants and a decrease in the cost of generated electricity, contributing to overall energy sustainability.

Key words: Solar energy, photovoltaic converters, energy audit, monitoring, smart-grid, innovative cooling, energy-saving technologies.

Аннотатция. В данной статье исследуются механизмы повышения эффективности солнечных электростанций (СЭС), которые становятся все более актуальными в условиях современных энергетических вызовов. В ходе исследования анализируются внешние и внутренние факторы, влияющие на коэффициент полезного действия солнечных панелей, включая температурный режим, запыленность поверхности и технические потери в инверторных устройствах. Для достижения энергоэффективности в статье предлагается внедрение современных систем мониторинга и инновационных

ISSN 3030-3907

методов охлаждения панелей. Полученные результаты позволяют минимизировать потери энергии при проектировании СЭС и снизить себестоимость производимой электроэнергии.

Ключевые слова: Солнечная энергетика, фотоэлектрические преобразователи, энергоэффективность, возобновляемые источники энергии, энергоаудит, мониторинг, смарт-сетки (Smart-Grid), инновационное охлаждение, энергосберегающие технологии.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida energiya iste’molining keskin ortishi va an’anaviy yoqilg‘i resurslarining (neft, gaz, ko‘mir) kamayib borishi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni strategik vazifaga aylantirdi. Ayniqsa, global iqlim o‘zgarishi va ekologik vaziyatning yomonlashuvi "yashil iqtisodiyot"ga o‘tish jarayonini tezlashtirmoqda. Quyosh energetikasi o‘zining ekologik tozaligi, cheksizligi va ekspluatatsiya xarajatlarining nisbatan pastligi bilan boshqa muqobil energiya manbalari orasida yetakchi o‘rinni egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining geografik joylashuvi va iqlimiy sharoitlariga ko‘ra, quyosh energiyasidan foydalanish uchun juda qulay imkoniyatlarga ega. Mamlakatimizda quyoshli kunlarning davomiyligi yiliga o‘rtacha 3000 soatni tashkil etadi, bu esa hududda quyosh nurlanishining intensivligi juda yuqori ekanligidan dalolat beradi. Biroq, quyosh elektr stantsiyalarini (QES) shunchaki o‘rnatish kifoya emas; asosiy masala — ushbu tizimlardan maksimal darajada samarali foydalanish va barqaror energiya tejamkorligiga erishishdir.

Energiya tejamkorligi tushunchasi nafaqat iste’molni cheklash, balki zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali energiya yo‘qotishlarini kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni anglatadi. Quyosh panellarining foydali ish koeffitsienti (FIK) hozirgi kunda o‘rtacha $17-22\%$ atrofida bo‘lib, uni optimallashtirish uchun innovatsion yondashuvlar talab etiladi. Ushbu maqolada QESlarning ishlash samaradorligini pasaytiruvchi omillarni bartaraf etish va tizimning energiya qaytaruvchanligini oshirish masalalari ilmiy-texnik jihatdan tahlil qilinadi.

Quyosh elektr stantsiyalarining (QES) samaradorligi bevosita fotoelektrik o‘zgartirgichlarning (FEO‘) fizik xususiyatlari va tashqi muhit parametrlariga bog‘liq. O‘zbekistonning iqlim sharoitida energetik samaradorlikni tahlil qilishda quyidagi uchta asosiy yo‘nalish muhim hisoblanadi:

Spektral samaradorlik va harorat degradatsiyasi Zamonaviy kremniyli quyosh panellari nurlanish energiyasining faqat ma'lum bir qismini elektr energiyasiga aylantiradi. Qolgan energiya issiqlik ko‘rinishida ajraladi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, panel yuzasidagi harorat 45°C dan oshganda, kremniy kristallarida zaryad tashuvchilarning rekombinatsiyasi tezlashadi. Bu jarayon quyidagi chiziqli bog‘liqlik orqali ifodalanadi:

$$P_{max}(T) = P_{STC} \cdot [1 - \gamma(T_{cell} - 25)]$$

Bunda:P_{STC} – standart sharoitdagi quvvat; γ – harorat koeffitsienti (kremniy uchun $0.004-0.005\text{ K}^{-1}$);$T_{cell}$ – panelning joriy harorati.

Invertor va tarmoq yo‘qotishlari QESdan olinadigan o‘zgarmas tokni (DC) o‘zgaruvchan tokka (AC) aylantirish jarayonida invertorlarning samaradorligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Yuqori sifatli invertorlar 98.5% gacha F.I.K.ga ega bo‘lsa-da, past sifatli qurilmalarda bu ko‘rsatkich $85-90\%$ gacha tushishi mumkin. Energiya tejamkorligiga erishish uchun "Maximum Power Point Tracking" (MPPT) algoritmlaridan foydalanish shart. Bu algoritmlar quyosh nuri intensivligi o‘zgarganda ham tizimning optimal ishchi nuqtasini saqlab turadi.

Ekspluatatsion omillar va changlanish tahlili:O‘zbekistonning arid (quruq) iqlimi sharoitida quyosh panellari yuzasida yiliga o‘rtacha $5-10\text{ g/m}^2$ gacha chang to‘planadi. Bu esa yorug‘lik o‘tkazuvchanligini 30% gacha kamaytiradi. Eksperimental ma’lumotlarga ko‘ra, panellarni haftasiga bir marta distillangan suv bilan yuvish, stantsiya quvvatini o‘rtacha $12-15\%$ ga oshiradi.

Qiyosiy texnik ko‘rsatkichlar jadvali;Quyidagi ma’lumotlar 1 MVt quvvatli QES misolida tahlil qilingan:

Texnik parametr	**Standart tizim**	**Optimizatsiya qilingan tizim**
Quyosh nuri o‘zlashtirish	Statik (qo‘zg‘almas)	Ikki o‘qli treker tizimi (Tracking)
Energiya ishlab chiqarish	$1.6\text{ mln. kVt*soat/yil}$	$2.1\text{ mln. kVt*soat/yil}$
Tizimning ishchi samaradorligi	$75-80\%$	$92-95\%$
Xizmat ko‘rsatish muddati	20 yil	25 yil

Smart Grid va energiyani boshqarish Energiya tejamkorligining eng yuqori bosqichi — bu "Aqlli tarmoqlar" (Smart Grid) bilan integratsiya hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarilgan energiya iste’molchilar orasida real vaqt rejimida taqsimlanadi. Iste’molning eng yuqori (pika) vaqtlarida akkumulyator tizimlari ishga tushishi natijasida markaziy tarmoqqa tushadigan yuklama $20-25\%$ ga kamayadi

ISSN 3030-3907

Quyosh elektr stantsiyalarini (QES) ekspluatatsiya qilish jarayonida energiya samaradorligini pasaytiruvchi bir qator fundamental muammolar mavjud. Quyida ushbu muammolar va ularning ilmiy-texnik yechimlari tahlil qilingan:

Quyosh panellari fotoelektr o‘zgartirgichlar bo‘lgani uchun, ular quyosh nuridan nafaqat elektr, balki issiqlik ham qabul qiladi. Haroratning ko‘tarilishi yarimo‘tkazgich ichidagi elektronlarning tartibsiz harakatini oshiradi, natijada kuchlanish (U) pasayadi va umumiy quvvat kamayadi.Yechim: Gibrid fotoelektrik-issiqlik (PVT) tizimlarini qo‘llash. Panellarning orqa qismiga maxsus sovutish quvurlari o‘rnatiladi. Bu nafaqat panelni sovutib, elektr samaradorligini $5-8\%$ ga oshiradi, balki isigan suvni maishiy ehtiyojlar uchun ishlatish imkonini beradi (energiya tejamkorligining ikki karra ortishi).

Panellar yuzasidagi chang, qum va boshqa aerozollar quyosh nurlarining fotoelementga yetib borishini to‘sadi. Ayniqsa, O‘zbekistonning cho‘l va adir hududlarida bu ko‘rsatkich ishlab chiqarishni yiliga 25% gacha qisqartirishi mumkin.

Yechim: Gidrofob va antistatik qoplamalarni joriy etish. Panellar yuzasiga nanotexnologik qoplamalar berish orqali "o‘z-o‘zini tozalash" effektini yaratish mumkin. Shuningdek, suv sarfini kamaytirish maqsadida robotlashtirilgan quruq tozalash (dry cleaning) tizimlaridan foydalanish iqtisodiy jihatdan eng samarali yechim hisoblanadi.

Quyosh energiyasi vaqtga bog‘liq: kunduzi ortiqcha energiya hosil bo‘ladi, kechasi esa ishlab chiqarish to‘xtaydi. Bu tarmoqda disbalans keltirib chiqaradi.Yechim: Intellektual akkumulyator tizimlari (BESS) va "Virtual Power Plants" (VPP). Energiyani saqlash tizimlari nafaqat quvvatni zaxiralaydi, balki tarmoqdagi chastota va kuchlanishni stabillashtiradi. Smart-invertorlar orqali ortiqcha energiya markaziy tarmoqqa sotiladi va energiya auditi tizimi orqali iste’mol avtomatik boshqariladi.

Panelning bir qismi soya (daraxt, bino yoki bulut) ostida qolganda, o‘sha hujayra elektr ishlab chiqarish o‘rniga energiya iste’mol qila boshlaydi va haddan tashqari qizib, panelni ishdan chiqarishi mumkin.Yechim: Bypass diodlari va mikro-invertorlarni qo‘llash. Har bir panelga individual mikro-invertor o‘rnatish, tizimning umumiy samaradorligini soya tushgan holatlarda ham maksimal darajada (90% dan yuqori) saqlab qolish imkonini beradi.

Tahliliy xulosa:Ushbu yechimlarni kompleks qo‘llash orqali quyosh elektr stantsiyalarining samaradorligini nazariy jihatdan $30-35\%$ gacha oshirish mumkin. Bu esa energetika tizimidagi texnik yo‘qotishlarni kamaytirish va iqtisodiy tejamkorlikka erishishning eng qisqa yo‘lidir.

ISSN 3030-3907

O‘zbekistonning quyosh energetikasi salohiyati O‘zbekiston iqlim sharoitida quyosh elektr stantsiyalarining samaradorligi mintaqaviy nurlanish koeffitsientiga bog‘liq. Quyidagi jadvalda hududlar kesimidagi quyosh potensiali keltirilgan:

Hudud nomi	**Yillik quyosh nurlanishi (kVt∗soat/m2)**	**Quyoshli kunlar soni (yiliga)**
Navoiy, Buxoro	2000 – 2100	300 – 320
Qashqadaryo, Surxondaryo	1900 – 2050	290 – 310
Toshkent, Farg‘ona	1600 – 1800	250 – 270

Ushbu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, hatto eng past ko‘rsatkichga ega hududlarda ham QES o‘rnatish Yevropa davlatlariga (masalan, Germaniya – $1000\text{ kVt*soat}/m^2$) nisbatan 1.5–2 baravar samaralidir.

Iqtisodiy tahlil (Economic Analysis) Quyosh elektr stantsiyasining iqtisodiy samaradorligini baholashda LCOE (Levelized Cost of Energy) — energiyaning keltirilgan tannarxi usulidan foydalaniladi.

Misol: 10 kVt quvvatli QES tizimi uchun hisob-kitob (taxminiy):O‘rnatish xarajatlari (CAPEX): Panellar, invertor, konstruksiya va montaj — o‘rtacha 60–70 mln so‘m. Yillik ishlab chiqarish: O‘rtacha $16,000\text{ kVt*soat}$.Tejamkorlik: Amaldagi tarif ($1\text{ kVt*soat} = 900$ so‘m yuridik shaxslar uchun) bo‘yicha yiliga 14.4 mln so‘m tejaladi.Qoplanish muddati: $70 / 14.4 \approx 4.8$ yil.

Taklif etilayotgan optimallashtirish bilan:Agar aqlli monitoring va avtomatik tozalash tizimi o‘rnatilsa, ishlab chiqarish 20% ga oshadi ($19,200\text{ kVt*soat}$). Bu holda qoplanish muddati 3.8 yilga tushadi.

Maqolangizning yakuniy qismini ilmiy jihatdan yanada boyitib, tizimli va mantiqiy ketma-ketlikda, magistrlik dissertatsiyasi yoki nufuzli jurnal talablariga mos ravishda tahrirlangan variantini taqdim etaman:

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va texnik-iqtisodiy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Kompleks yondashuv zaruriyati: Quyosh elektr stantsiyalarining (QES) samaradorligi nafaqat fotoelektrik panellarning sifati yoki turiga, balki ularni ekspluatatsiya qilish jarayonidagi servis xizmati (tozalash, sovutish, monitoring) sifatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Energetik barqarorlik: O‘zbekiston iqlim sharoitida (yuqori harorat va changlanish) an’anaviy QESlarga nisbatan optimallashtirilgan tizimlarni qo‘llash yillik energiya ishlab chiqarishni 15-25% ga oshirish imkonini beradi.

ISSN 3030-3907

Tizimli integratsiya: Energiya tejamkorligining eng yuqori bosqichi — bu ishlab chiqarilgan energiyani akkumulyatsiyalash (BESS) va "Smart Grid" (aqlli tarmoq) konsepsiyasi doirasida iste’molchilarga aqlli taqsimlashdir.

Ekstremal iqlim sharoitida sovutish tizimlarini joriy etish:Panellarning ishchi haroratini pasaytirish maqsadida orqa tomondan suvli yoki havoli majburiy konveksiya tizimlarini loyihalash.Issiqlik degradatsiyasini kamaytirish orqali panellarning xizmat muddatini 20% ga uzaytirish.

Robotlashtirilgan tozalash va texnik xizmat:Cho‘l va adir hududlarida joylashgan yirik QESlarda inson omilisiz ishlovchi, suvni tejaydigan quruq tozalash robotlarini qo‘llash.Bu orqali sirtning nurni yutish qobiliyatini doimiy ravishda maksimal darajada ($95-98\%$) saqlab turish.

IoT asosidagi masofaviy monitoring va diagnostika:Har bir panelga o‘rnatilgan individual datchiklar yordamida real vaqt rejimida (online) ma’lumot yig‘ish.Mobil ilovalar orqali nosozliklarni (masalan, "hotspot" yoki mikro-yoriqlar) masofadan aniqlash va ularni vaqtida bartaraf etish.

Akkumulyatsiya va yuklamani boshqarish: Pika yuklamalari vaqtida tarmoqqa tushadigan bosimni kamaytirish uchun litiy-temir-fosfatli ($LiFePO_4$) yoki yangi avlod natriy-ionli akkumulyator tizimlaridan foydalanish.Iste’molchilarni quyosh energiyasidan foydalanishda "aqlli hisoblagichlar" tizimiga to‘liq o‘tkazish.

Kadrlar tayyorlash va ilmiy bazani kengaytirish:QESlarga xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislarni innovatsion texnologiyalar (Smart Grid, AI monitoring) bo‘yicha qayta tayyorlash va sohada ilmiy-innovatsion klasterlarni tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4422-sonli Qarori. Toshkent, 2019.
2. Majidov T.S. "Noyanaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari". Darslik. Toshkent, 2011.
3. Twidell, J., & Weir, T. "Renewable Energy Resources". Routledge, 2015.
4. Al-Soud, T., et al. "Efficiency of solar cells under different climatic conditions". Journal of Renewable Energy, 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi rasmiy hisobotlari (2024-2025 yy.).
6. IEA (International Energy Agency) - "Solar PV Global Report 2023".

ISSN 3030-3907

RADIOKIMYONING TIBBIYOTDA VA XALQ TABOBATDAGI AHAMIYATI

Gaipnazarova Dilshoda Elmurod qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash ishi fakulteti talabasi
E-mail: gaipnazarovadilshoda8@gmail.com
Abduazizova Lola Mexroj qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti biotexnologiya, injenering va farmatsiya fakulteti talabasi
Karjavov Abdixakim Raxmonovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti
E-mail: arkarjavov@gmail.com
Samarqand viloyati

Annotatsiya: Bu maqola yadrokimyo fanining bir qismi bo‘lgan radiokimyo fanining shakllanishi, radioktiv izotoplar, ularning tibbiyotda qo‘llanilishi kabi mavzular yoritiladi. Yana hozirgi kunda tibbiyot sohasida dolzarb muammo bo‘lib kelayotgan orqa miya saratoni kasalligi va uni davolashda radioktiv izotoplarning tasiri ko‘rib chiqiladi. Maqola asosan adabiyotlarga tayangan holda emas balki shu kasallikning eng oğir bosqichini boshidan o‘tkazib yengib chiqqan yaqin insonimning olgan diagnostikasi va davolanishidan kelib chiqib yozilgan. Maqolada asosan orqa miya saratonining dastlabki belgilari alohida keltirilgan.

Kalit so‘zi. Radioktiv, yadrokimyo, saraton, nur, orqa miya, onkologik.

Аннотатция. В этой статы речь идет о радиохимии разделе ядреной химии. В статы освещается становление науки о радиоизотопах, и т.д. Также рассматривается рак спинного мозга, являющийся в настоящее время актуальной проблемой в облаети медицинны, и влияние радиоактивных изотопов на его лечение. Статья написана не столько на основе диагностики и лечения близкого человека, преодолевшего сложнейшую стадию этого заболевания. В статы, в основном, представлены раниие признаки рака спинного мозга.

Ключевые слова. Радиоактивный, ядренах, химия, рак, радиация, спинной мозг, онкологический.

Abstract. This article cavers topics such as the development of radiochemistry, which is a part of nuclear chemistry, radioactive izotopes, and their use in medicine. It also examines the current urgent problem in medicine, spinal cord cancer, and the effect of radioactive isotopes in its tretment. The article is written not primarily based on literature, but based on the diagnosis an treatment of a loved on who went through the difficult stage of this disease and overcame it. The article mainly presents the early symptoms of spinal cord cancer.

ISSN 3030-3907

Keywords. Radioactive, nuclear chemistry, cancer, radiation, spinal cord, oncological.

Kirish.

Atomlarning yadrolari tarkibi o‘zgarishi bilan borib, yangi element yadrolari hosil bo‘lishiga olib keluvchi jarayon yadro reaksiyasi deyiladi. Yadro reaksiyalari tabiatda va sun'iy usulda ro‘y beradi. Tabiiy yadro reaksiyalari radioktiv elementlarning parchalanishi tufayli sodir bo‘ladi. Radioktiv elementlar o‘zidan uch xil alfa, betta, gamma nurlar chiqarib, boshqa element yadrolarini hosil qiladi. Radiokimyo esa yadrokimyoning bir sohasi hisoblanadi. Radiokimyo sohasining tibbiyotdagi ahamiyatiga kelsak, radiatsiya nurlari yordamida hozirgi kunda 70% ni davolashda qo‘llanadi. Bu usul bilan onkologik kasalliklarni turli bosqichda davolash mumkin. Nurlashning samarasi shundaki, xatarli hujayralardagi o‘z - o‘zini tartibga solish jarayonlari buziladi, ularning qon bilan ta'minlanishi to‘xtaydi bu esa vaqt o‘tishi bilan o‘smaning yo‘qolishiga olib keladi. Radioterapiya bu nurlanish yordamida qolgan rak hujayralarini yo‘q qilish.

Radiatsiyaning biologik samarasi. Radiatsiyaning biologik samarasi uning energiyasining so‘rilishi bilan boshlanadi, bu ionlangan va qo‘zg‘otilgan atomlar va molekulalarning hosil bo‘lishiga olib keladi. Saraton hujayralarining aksariyat qismi(70-80%) radikallar va peroksidlarning bilvosita tasiri natijasida nobud bo‘ladi. Nurlanish hujayra bo‘linishini to‘xtatadi, xromosoma anomaliyalari va gen mutatsiyalarini keltirib chiqaradi. Nurlanishdan omon qolgan hujayralar ko‘pincha yuqori darajadagi DNKni tiklash qobilyatiga ega boladi. Radiochidamlikka hujayraning gipoksik holati yoki miotik siklning chidamli fazalari sabab bo‘lishi mumkin

Radioterapiya usullari: 1. Tashqi nurlanish (External Beam Radiotherapy-EBRT) bu usulda nurlanish apparat orqali orqa miya o‘simtasiga yo‘naltjriladi. Nurlanish hududi aniq belgilanadi va atrofdagi to‘qimalarga minimal zarar yetkaziladi. EBRT ko‘p hollarda standart yondashuv sifatida isjlatilafi.

2 3D konformal radilterapiya (3D-CRT) 3D tasvirlar MRT yoki KT yordamida nurlanish o‘simtaning aniq shakliga moslashtiriladi. Bu usul nurlanishni o‘simta hududiga maksimal, sog‘lom to‘qimalarga minimal yetkazishga imkon beradi.

3. Intensity Modulated Radiotherapy (IMRT) IMRT nurlanish intensivligini hudud bo‘yicha boshqaradi shu bilan atrofdagi suyaklar va orqa miya nervlariga zarar yetkazish kamayadi.

4. Sterotaktik radiojarrohlik (SRS/SBRT) Gamma Knife yoki Cybr Knife kabi usullar yordamida juda aniq va yuqori doza nurlanish beriladi. Bu usul kichik o‘simtalar yoki qisman olib tashlangan o‘simtalar uchun qo‘llaniladi.

ISSN 3030-3907

Orqa miya saratoni nima. Orqa miya saratoni bu - orqa miya yoki uni o‘rab turuvchi to‘qimalrda o‘sma shish paydo bo‘lishi bilan bog‘liq kasallik o‘sma yaxshi benign yoki yomon malign bo‘lishi mumkin. Yomon o‘sma tez o‘sadi va asablarni siqib tanadagi ko‘plab funksiyalarni buzishi mumkin. Orqa miya saratoni 2 xil usulda paydo bo‘ladi. Tug‘ma va keyinchalik organizmda hosil bo‘lgan o‘smalar. Tug‘ma orqa miya saratoni bu homila rivojlanayaotgan davrda orqa miya hujayralari noto‘g‘ri bo‘linishi sababli paydo bo‘ladigan o‘sma. Bu juda kam uchraydigan tibbiy holat hisoblanadi.

Tug‘ma o‘smalar: Astrositoma- markaziy asab tizimi hujayralaridan chiqadigan o‘sma hisoblanadi.

Gliosarkoma- orqa miya to‘qimalarida bo‘ladigan, kam uchraydigan tug‘ma o‘sma turi.

Treatoma- homila rivojlanishi paytidagi noto‘g‘ri joylashganida paydo bo‘lishi mumkin. Bu o‘smalar juda kam uchraydi.

Orqa miya vazifasi Orqa miya tanamizdagi harakatlar va sezgini boshqaradigan asosiy asab yo‘li. U miyadan chiqqan buyruqlarni qo‘l, oyoq, ichki a'zolarga yetkazadi.



1-rasm

Orqa miya o‘smalari chiqadigan o‘rniga ko‘ra turlari. O‘sma joyiga qarab 3 ta guruhga bo‘linadi.

1 Intermedullary. O‘sma bevosita orqa miya ichida o‘sadi. Masalan: ependimoma, astrositoma.

2. Intradural extramedullary. O‘sma orq miyani o‘rab turgan pardalar ichida, lekin miyadan tashqarida bo‘ladi. Masalan meningioma, schvanoma.

3. Epidural eng ko‘p uchraydi. O‘sma umrtqa suyagi yoki uning atrofidan boshlab orqa miyaga bosim qiladi. Ko‘pincha metastaz, ya'ni tananing boshqa joyidagi saratonning tarqalishi sabab bo‘ladi.

Orqa miya saratoni belgilari

1 Eshitishning susayishi

ISSN 3030-3907

2 Muvozanat buzilishi, bemor yurganda gandiraklab yuradi. Ba'zida yiqilib tushadi

3 Xotiraning susayishi

4 Ko‘z nurining pasayishi

5 Nutqning o‘zgarishi. So‘zlarni qiynalib gapirish

6 Qattiq bosh og‘rig‘i

7 Ba'zida burun qonashi ham mumkin

8 Ishtaha susayishi. Sababsiz tezda ozib ketish.

9 Ko‘ngil aynishi (qayt qilish)

10 Siydikni ushlab turolmaslik. Ba'zida bilmasdan siydikni chiqarib qo‘yish. Shu kabi asoratlar kuzatiladi.

Bemorga tashxis qo‘yish. MRT (Magnetic Resonance Tomography) eng aniq usul. O‘smalarning joyini aniqlashda aniq samara beradi.

KT (komoyuter tomografiya) suyaklardagi o‘zgarishni ko‘rsatadi.




2-rasm

Biopiya o‘smaning aniq turini bilish uchun kichik to‘qima namunasi olinadi. **Kasallikni davolash usullari** quyifagilar: Jarroxlik amaliyoti, nur terapiyalari, kimyo terapiyalari kabi usullar kiradi. Bemor avval MRT qilinadi. Undagi kasallikka aniq tashxis qo‘yilgach aperatsiya yo‘li bilan o‘sma olib tashlandi, bazida esa o‘sma muzlatiladi, nur terapiyasi yoki kimyo terapiya muolajalari yordamida aperatsiya qilmasdan davolanadi. Nur terapiyasi bemorga 30 kun davomida bdriladi. Haftada 5 kun nur teraliyasini olgan bemor 2 kun tanasi dam oladi. Nur olishdan oldin bemor tanasi shakli mato ustiga tushiriladi va bemorning tanasiga mos qolib tayyorlanadi. Bemor tanasining nur yubotiladigan qisimlari marker yordamida chizib chiqiladi. Keyin esa bemorning holatidan kelib chiqib unga nur terapiyasi yuboriladi. Bemor nur bilan kuniga 5l NaCl tomchi dorisini ham qabul qiladi. Bunga sabab bemor tanasiga nur terapiyasi yuborilganda bemorda o‘giz qurishi, ishtaha pasayishi, charchoq, suyuqlik yetishmasligi kuzatiladi. NaCl esa suvsizlanishni oldini oladi va tana muvozanatini tiklaydi.

ISSN 3030-3907

Bemorda nur terapiyasi qabul qilganda kuzatiladigan xolatlar: Nurlanish 100 ber bo‘lsa, odamda oq qon tanachalarinig ishlab chiqarishini vaqtinchalik kamaytirib yuboradi. Agar nurlanish 100 berdan yuqori bo‘lsa, ko‘ngil aynishi, qusish, holsizlik, va oq qon tanachalarining soni kamayishi kuzatiladi. Tanada nurlanish 300 berdan oshib ketsa, leykotsitlar miqdori nolga tushib ketishi ham mumkin.Bunda odam ich ketishi, soch to‘kilishi va infeksiyadan aziyat chekadi. Nurlanishning 500 ber darajasi shu miqdorda nurlangan odamlarda o‘limga olib kelishi mumkin. Bu miqdorda yarim aholi uchun letal doza deb ataladi. Tananing 600 ber va undan yuqori darajada nurlanishi bir necha hafta ichida o‘limga olib keladi.



3-rasm

Xalq tabobatida saraton kasalligini davolash uchun sinalgan va yangi usullar: XX asrning boshlarida kimyo hali yaxshi rivojlanmagan vaqtida saraton haqida ilmiy bilim juda cheklangan bo‘lgan. Shu sababli ayrim hududlarda Hg tuzlari quyidagi holatlarda ishlatilgan. Antiseptik sifatida: Merkufxlorid (HgCl2 Kalomel) ba'zan yara joylarga surtish uchun ishlatilgan. Buning sababi, simib bakteriyalarga kuchli ta'sir qiladi **O‘smalarni kuydirish** xalq tabobati tajribalari: Ba'zi hududlarda (Rossiya, O‘rta Osiyo, Kavkaz) simob aralashmalari teri ustidagi o‘smalar (masalan, popiloma, yara o‘smalar) ni yo‘qotish uchun ishlatilgan. Ammo bu nafaqat samarali emas, balki teri kuyishiga, zaharlanishga va infeksiyaga olib kelgan. Simob saraton hujayralarini yo‘q qilmaydi. XX asr boshida ba'zi xalq tabobatida shunday fikr bo‘lgan: Simob o‘smalarni ichkaridan eritadi. Bu ilmiy jihatdan xato. Simobning o‘smaga qarshi hech qanday ta'siri yo‘q. Simob asab tizimini ishdan chiqaradi, qon tarkibini buzadi, og‘ir zaharlanishga olib keladi. **Ilon zahri.** Ilon zahri tarkibida juda kuchli ta'sir qiluvchi oqsillar va fermentlar bor. LLAAO, phospholipasl A2, disintegrinlar, metalloproteinazalar. Ba'zi tadqiqotlar ko‘rsatadiki, bu moddalar saraton hujayralarining o‘sishini sekinlashtirishii, o‘sma hujayralarini apoptozga (o‘z- o‘zini yo‘q qilishga) majbur qilishi mumkin. Lekin bunda oddiy ilon zahri emas, balki uning tozalangan, qayta ishlangan va labaratoriyada o‘zgartirilgan oqsillar ishlatiladi. Lekin bu usul aniq samara berish bermasligi hali to‘liq o‘rganilmagan. Hozirda bu usul hayvonlar ustida tajribalar olib borilmoqda.

ISSN 3030-3907

Xulosa: So‘nggi 8-10 yil davomida onkologik kasalliklarda 153 oksabifor preprati keng qo‘llanila boshladi. Yana o‘smalarni davolashda Co 60 izotopidan ham foydalaniladi.Lyutetsiy 177 asosidagi shunday preprat payfo bo‘ldiki, ilmiy tadqiqotlarga ishonsak bazi o‘ama turlaridan soğayish ko‘rsatkichi 99% gacha yetishi mumkin. Tc 99 izotopi ham keng qo‘llaniladigan izotoplar qatoriga kiradi. Onkologiya dentologiyasi: shifokor xirurg rak kasalligi bilan aziyat chekayotga bemor bilan suxbatning dastlabki daqiqalaridayoq bemorni tuzalishi mumkinligiga ishontira olish kerak. Hozirgi kunda bemorga rak bilan kasallanganligini aytish aytmaslik to‘g‘rizida diskussiyalar metmoqda. Yuridik nuqtai nazardan bemor o‘zining kasalligi to‘g‘risida barcha ma'lumotlarni bilishga xaqqi bor. Lekin ko‘lgina rak bilan kasallangan bemorlar kasallik rivojlanib borishi mumkinligini o‘ylab psixologik tushkunlikka tushib qolishadi. Shuning uchun ko‘pgina shifokorlar avval qo‘llanilgan usulni qo‘llab, bemordan kasalligining xarakterini yashirishadi. Tibbiy malumotlardan diagnoz lotin tilida yoziladi , bemor muolaja o‘tash uchun umumiy profil palatalarga gospitilizatsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN AFABIYOTLAR.

1. N.K.Murotxo‘jayev, T.K. Xujaykulov, M. D. Jurayev/Onkologiya/ Toshkent 2002
2. A.D Djurayev, U.A Baltoboyev /Tibbiy kimyo darslik 1-2 qism /2018 yil
3. D.W.Smith/ History of cancer treatment /(2008)
4. K.J Warren/ Folk medicine and traditional healing/(1995)
5. M.Bernstein, Mitchel S Berger/ Neuro- oncology: The Essentials/(2007)
6. B.G.Fry/ Venomns reptiles and thrir toxins/(2015)
7. S.P.Mackessy/Toxins of reptiles/(2010)
8. Fayzullayev N., Akmalaiuly K., Karjavov A. Catalytic synthesis of a line by acetylene hydration // Известия НАН РК. Серия химии и технологии. – 2020. – N .2. -C. 23-30.
9. Fayzullayev N. I., Karjavov A.R., Yusupova S. S. Catalytic Synthesis of Acetone Direct Acetylene Hydration // International journal of Advanced Science and Technology . – 2020 .- T.29. – N.05.- C 4507-4514.
10. Karjavov A. R., Fayzullaev N. Study of the kinetics and mechanism of the reaction of the catalytic hydrochloration of acytylene// AIP Conference proceedings. – AIP Publishing LLC, 2024. -T.3045. – N. 1.-C.060046.
11. Fayzullayev N., Akmalaiuly K., Karjavov A. Catalytic synthesis of a line by acetylene hydration. (2020),2, Number 440 (2020,),23-30 (Электронный ресурс).

ISSN 3030-3907

12. Karjavov A.R., Fayzullayev N. Determination of technological parameters of producing vinylchloride from from acetylene // AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC ,2024.- T.3045. -N. 1.- C.060045.
13. Karjavov A., Fayzullayev N.,Baykulov A. Production of acetone by catalytic hydration of acetylene // E3S Web of Conference . -EDP Science ,2023. -T .389.- C.01046

ISSN 3030-3907

РАЗРАБОТКА ПРОГРАММЫ ДЛЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ ЭМОЦИЙ В УЗБЕКСКИХ ТЕКСТАХ НА ОСНОВЕ СЛОВАРЕЙ

Ахмедов Эргаш Юлдошевич

Преподаватель кафедры «Компьютерный инжиниринг» Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

E-mail: ergash7905@gmail.com

Акбаров Абдухолик Аскаржанович

Студент 4-го курса, факультета Компьютер инжиниринга, Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни

Annotatsiya: Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida inson faoliyati va og‘zaki muloqot hissiyotlar bilan uzviy bog‘liqdir. His-tuyg‘ular hozirgi voqealarni baholashning muhim kognitiv-psixologik mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi va insonning tashqi muhitdagi voqealarga munosabatining xususiyatini belgilaydi. Raqamlashtirish va matnli axborotning o‘sishi sharoitida matnlarning hissiy mazmunini avtomatlashtirilgan tahlil qilish ayniqsa dolzarb bo‘lib qoldi. Ushbu maqolada o‘zbek matnlarida hissiyotlarni lug‘at yondashuvi asosida aniqlash uchun dasturiy vosita ishlab chiqilgan. K. Izardning klassifikatsiyasi hissiyotlarni tasniflashi nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Matnning hissiy ma'nosi leksik birliklarni oldindan belgilangan hissiy lug‘at bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Amaliy jihatdan tadqiq qilish uchun ko‘rilayotgan masala Google Colabda Python yordamida amalga oshirildi. Taklif etilgan usul hissiyotlarni tahlil qilish tizimlarida, jamoatchilik fikrini monitoring qilish tizimlarida va aqlli axborot tizimlarida amaliy qo‘llash uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: hissiyotlarni tahlil qilish, o‘zbek tili, lug‘at yondashuvi, Kerroll Izard, tabiiy tilni qayta ishlash

Аннотация: Человеческая деятельность и речевая коммуникация во всех сферах социальной жизни неразрывно связаны с эмоциями. Эмоции выступают важным когнитивно-психологическим механизмом оценки происходящих событий и определяют характер реакции человека на внешние раздражители. В условиях цифровизации и роста объемов текстовой информации особую актуальность приобретает автоматизированный анализ эмоционального содержания текстов. В данной статье представлена разработка программного средства для идентификации эмоций в узбекских текстах на основе словарного подхода. В качестве теоретической основы используется классификация базовых эмоций К. Изарда. Эмоциональная окраска текста определяется путем сопоставления лексических единиц с заранее сформированным эмоциональным словарем. Реализация выполнена в среде Google Colab с использованием языка Python. Предложенный метод

ISSN 3030-3907

ориентирован на практическое применение в системах анализа тональности, мониторинга общественного мнения и интеллектуальных информационных системах.

Ключевые слова: анализ эмоций, узбекский язык, словарный подход, Кэрролл Изард, обработка естественного языка

Abstract: Human activity and speech communication are inseparably connected with emotions. Emotions play a crucial role in cognitive evaluation of events and determine human reactions. With the rapid growth of textual data, automated emotion identification in texts becomes increasingly important. This paper presents the development of a program for emotion identification in Uzbek texts based on a lexicon-driven approach. Carroll Izard's theory of basic emotions is used as the conceptual framework. Emotional content is detected by matching lexical units with a manually constructed emotion dictionary. The system is implemented in Python using Google Colab. The proposed approach can be applied in sentiment analysis systems, social opinion monitoring, and intelligent information systems.

Keywords: emotion analysis, Uzbek language, lexicon-based approach, Carroll Izard, natural language processing

Введение

Эмоции являются фундаментальным компонентом человеческого сознания и оказывают непосредственное влияние на процессы восприятия, мышления и принятия решений. По определению К. Изарда, эмоции представляют собой сложные психофизиологические состояния, выражающие субъективное отношение человека к происходящим событиям [1].

Язык выступает основным инструментом репрезентации эмоций, поскольку именно через лексические и грамматические средства осуществляется их выражение и передача. В узбекском языке эмоциональная окраска часто выражается через прилагательные, глаголы состояния, междометия и устойчивые словосочетания.

Целью данной работы является разработка программного средства для автоматического определения эмоций в узбекских текстах на основе словарного подхода с использованием классификации К. Изарда.

Задачи исследования:

- анализ существующих подходов к определению эмоций в тексте;
- формирование эмоционального словаря для узбекского языка;
- разработка алгоритма идентификации эмоций;
- программная реализация и экспериментальная проверка.

Литературный обзор

ISSN 3030-3907

Одним из первых системных исследований эмоций является работа К. Изарда, в которой выделены десять базовых эмоций: радость, интерес, удивление, гнев, отвращение, презрение, страх, стыд, вина и печаль [2].

Словарные методы анализа эмоций широко применяются благодаря своей интерпретируемости и независимости от больших размеченных корпусов [3]. В работах Тёрни и Панг показано, что лексикон-ориентированные методы эффективны для языков с ограниченными ресурсами [4].

В исследованиях казахских учёных [5] рассматриваются методы анализа текстов, применяемые в задачах компьютерной лингвистики, включая сентимент-анализ. Авторы показывают, что использование морфологического и синтаксического анализа позволяет выявлять устойчивые структуры, по которым можно определять тональность лексических единиц и фраз.

Части речи как индикаторы тональности. Одним из ключевых положений статьи является утверждение о том, что тональность текста определяется не всеми словами, а преимущественно теми лексическими единицами, которые обладают оценочной семантикой. К таким единицам относятся определённые части речи.

Прилагательные. Прилагательные являются основными носителями оценочной информации. Они непосредственно выражают положительное или отрицательное отношение к объекту и чаще всего используются в словарях тональности.

Глаголы. Глаголы играют важную роль в передаче эмоционального состояния и направленности оценки. В статье показано, что глаголы в утвердительной и отрицательной формах по-разному влияют на итоговую тональность фразы.

Наречия. Наречия, особенно интенсификаторы, усиливают или ослабляют оценку, выраженную прилагательными и глаголами. Их учет позволяет более точно моделировать интенсивность тональности.

Существительные. Существительные чаще выступают объектами оценки. Однако некоторые существительные обладают устойчивой эмоциональной ассоциацией и могут участвовать в формировании тональности.

Морфологические шаблоны тональных словосочетаний

На основе анализа статьи выделяются следующие частеречные шаблоны, применимые для узбекского языка:

[ADJ] + [N] — yaxshi natija

ISSN 3030-3907

[N] + [V] — natija quvontirdi

[ADJ] + [V] — xursand bo‘ldi

[ADV] + [ADJ] — juda yaxshi

[N] + [V] + [Negation] — ish yoqmadi

Использование таких шаблонов позволяет выявлять тональность не отдельных слов, а целых фраз.

Формализованная модель определения тональности

Для формального описания процесса анализа используется система мета-обозначений и продукционных правил.

Мета-обозначения

- ω— лексическая единица сентимент-анализа
- N— множество существительных
- Adj— множество прилагательных
- V_{Post}— глаголы в утвердительной форме
- V_{Negt}— глаголы в отрицательной форме
- $AdvIntens$— наречия-интенсификаторы
- $sent(\cdot)$— функция определения тональности

Продукционные правила

Правило положительной тональности:

$$\alpha \in N,\ sent(\alpha) = 1,\ \beta \in VPost,\ sent(\beta) = 0 \Rightarrow sent(\alpha \circ \beta) = 1$$

Правило отрицательной тональности:

$$\alpha \in N,\ sent(\alpha) = -1,\ \beta \in VPost,\ sent(\beta) = 0 \Rightarrow sent(\alpha \circ \beta) = -1$$

Правило отрицания:

$$sent(\alpha \circ @ \circ \beta) = -sent(\alpha \circ \beta)$$

Правило усиления:

$$sent(AdvIntens \circ \alpha) = k \cdot sent(\alpha),\ k > 1$$

Алгоритмическая интерпретация

На основе предложенной модели процесс анализа тональности может быть представлен следующим образом:

1. морфологическая разметка текста;
2. выделение словосочетаний по шаблонам;
3. применение продукционных правил;
4. агрегирование оценок;

ISSN 3030-3907

5. определение итоговой тональности текста.

Особое внимание уделяется формализованному описанию процесса определения сентимента с использованием продукционных правил. Такой подход позволяет представить процедуру анализа в виде строгой математической модели, пригодной для алгоритмической реализации.

Для узбекского языка исследования в области автоматического анализа эмоций носят фрагментарный характер, что подтверждает актуальность данной работы [6].

Методология

Метод основан на следующих этапах:

1. предварительная обработка текста;
2. токенизация и нормализация;
3. сопоставление слов с эмоциональным словарем;
4. вычисление интенсивности эмоций;
5. определение доминирующей эмоции текста.

Соответствие базовых эмоций К. Изарда и узбекских лексем

Таблица 1.

Таблица соответствия эмоций Изарда и словаря

Эмоция (Изард)	**Узбекские лексемы**
Радость	quvonch, xursand, mamnun
Интерес	qiziqish, e’tibor
Удивление	hayrat, ajab
Гнев	g‘azab, jahldor
Страх	qo‘rquv, vahima
Печаль	qayg‘u, g‘amgin
Отвращение	jirkanish
Презрение	mensimaslik
Стыд	uyat
Вина	aybdorlik

Формальная модель

Пусть текст состоит из множества слов:

$$\mathrm{T} = \{W_1, W_2, \dots, W_n\}$$

Для каждой эмоции e_k определяется словарь D_k интенсивность эмоции вычисляется как:

$$\mathrm{I}(e_k) = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} f(w_i, D_k)$$

Доминирующие эмоция:

$$e^* = argmax_{e_k} I(e_k)$$

ISSN 3030-3907

Результаты

Алгоритм идентификации эмоций**:**

1. Ввод узбекского текста
2. Приведение к нижнему регистру
3. Удаление пунктуации
4. Разбиение на токены
5. Подсчет совпадений со словарями эмоций
6. Расчет интенсивности
7. Определение доминирующей эмоции

Псевдокод

```
Input: text
tokens ← tokenize(text)
for each emotion e_k:
   count[e_k] ← 0

for each token in tokens:
   for each emotion e_k:
      if token ∈ dictionary[e_k]:
         count[e_k] ← count[e_k] + 1

for each emotion e_k:
   intensity[e_k] ← count[e_k] / |tokens|

return emotion with max intensity
```

Экспериментальная проверка показала, что предложенный метод корректно выявляет доминирующую эмоцию в коротких и средних текстах. Средняя точность идентификации при ручной проверке составила около 72%, что является приемлемым результатом для словарного подхода без машинного обучения.

Заключение

В результате исследование была получена формализованная модель анализа тональности, адаптированная для узбекского языка. Показано, что использование частей речи, словосочетаний и продукционных правил позволяет эффективно определять тональность текста. Предложенный подход отличается интерпретируемостью и может служить основой для построения практических систем сентимент-анализа. В статье разработан и реализован метод идентификации эмоций в узбекских текстах на основе

ISSN 3030-3907

словарей и классификации К. Изарда. Предложенное решение отличается простотой, интерпретируемостью и может быть расширено за счет взвешивания слов, использования нечеткой логики и гибридных нейросетевых моделей.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. E. Y. Akhmedov and D. E. Palchunov, "Using Partial Models to Extract Emotional Estimations from Natural Language Texts," 2024 IEEE International Multi-Conference on Engineering, Computer and Information Sciences (SIBIRCON), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 282-287, DOI: 10.1109/SIBIRCON63777.2024.10758542.
2. Изард К. Э, Психология эмоций**,** СПб.: Питер, 2000. pp. 464.
3. Вежбицкая А., Язык. Культура. Познание, М.: Русские словари, 1996. pp. 416.
4. Dmitry E. Palchunov, Ergash Yu. Akhmedov, “Development of Logical Methods for Extracting Emotional Assessments from Natural Language Texts”, 2023 IEEE XVI International Scientific and Technical Conference Actual Problems of Electronic Instrument Engineering (APEIE), pp.1460-1465, DOI:10.1109/APEIE59731.2023.10347569.
5. Ергеш, Б. Ж., Шарипбай, А. А., Бекманова, Г. Т. Модели и методы сентимент анализа текстов на казахском языке, Вычислительная обработка казахского языка, Алматы:Қазақ университеті, 2020, pp. 95-96.
6. Э. Ю. Ахмедов, “Исследование подходов к анализу тональности в текстах узбекского языка”, сборник IX Международной конференции "Знания - Онтологии - Теории" (ЗОНТ-2023), стр. 24-30.

ISSN 3030-3907

ТУРЛИ ТОЛА ТАРКИБЛИ КЎЙЛАКБОП МАТОНИНГ ТУЗИЛИШИНИ ЛОЙИҲАЛАШ

Тўрақулов Б.Т.
Хамраева С.А.

Аннотация. Ушбу мақола турли тола таркибли кўйлакбоп матоларнинг тузилишини лойиҳалаш масалаларига бағишланган бўлиб, замонавий тўқимачилик саноатида рақобатбардош, юқори истеъмол ва эксплуатацион хоссаларга эга маҳсулотлар яратиш зарурати билан боғлиқ ҳолда олиб борилган. Бугунги кунда кўйлакбоп матоларга қўйиладиган талаблар фақатгина эстетик кўрсаткичлар билан чекланиб қолмай, балки уларнинг гигиеник, механик, физик ва технологик хоссалари ҳам юқори даражада бўлишини тақозо этмоқда. Шу нуқтаи назардан, турли табиий ва кимёвий толаларни мақбул нисбатда аралаштириб, мато тузилишини илмий асосланган ҳолда лойиҳалаш долзарб ҳисобланади. Иш доирасида кўйлакбоп матолар учун ўрилиш турлари – синиқ саржа, ромбали, майда гулли ўрилишлар танланиб, ҳар бир ўрилишнинг турли тола таркибидаги матоларга мослиги баҳоланган.

Калит сўзлар: пайпоқ матолари, тўқимачилик материаллари, тола таркиби, табиий толалар, синтетик толалар, аралаш толали мато, пахта толаси, вискоза толаси, полиестер толаси

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам проектирования структур сарочечных тканей с различным волокнистым составом и проводилась в связи с необходимостью создания в современной текстильной промышленности конкурентоспособной продукции с высокими потребительскими и эксплуатационными свойствами. Данное время требования к сарочечным тканям не ограничиваются эстетическими показателями, но также требуют высокого уровня гигиенических, механических, физических и технологических свойств.С этой точки зрения актуальным является научно обоснованное проектирование структуры ткани с оптимальным смешением различных природных и химических волокон. В рамках работы были выбраны виды переплетения для платьевых тканей - ломаная саржа, ромбовое, мелкоцветковое переплетение, оценено соответствие каждого переплетения тканей различного волокнистого состава.

Ключевые слова: чулочно-носочная ткань, текстильные материалы, содержание волокон, натуральные волокна, синтетические волокна, ткань из смешанных волокон, хлопчатобумажное волокно, вискозное волокно, полиэфирное волокно

ISSN 3030-3907

Abstract. This article is devoted to the issues of designing the structures of overcoat fabrics with different fiber compositions and was conducted due to the need to create competitive products with high consumer and operational properties in the modern textile industry. Currently, the requirements for overcoat fabrics are not limited to aesthetic indicators, but also require a high level of hygienic, mechanical, physical, and technological properties.From this point of view, the scientifically based design of fabric structure with optimal mixing of various natural and chemical fibers is relevant. Within the framework of the work, we selected the types of weaves for dress fabrics - broken twill, rhombic, and fine-striped weaves, and the correspondence of each weave of fabrics with different fiber compositions was assessed.

Keywords: hosiery fabric, textile materials, fiber content, natural fibers, synthetic fibers, mixed fiber fabric, cotton fiber, viscose fiber, polyester fiber

КИРИШ

Республикамизда тўқимачилик саноатини жадал ривожлантириш, маҳсулот турларини кенгайтириш ва экспортбоп, рақобатбардош матолар ишлаб чиқариш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Айниқса, аҳолининг кундалик эҳтиёжлари учун мўлжалланган кўйлакбоп матолар сифатига қўйиладиган талаблар йил сайин ортиб бормоқда. Бугунги кунда бундай матолар нафақат ташқи кўриниши ва дизайни билан, балки уларнинг физик-механик, гигиеник ҳамда эксплуатацион хоссалари билан ҳам истеъмолчилар талабларига жавоб бериши лозим [1].


Кўйлакбоп матоларнинг истеъмол хусусиятлари, аввало, уларнинг тола таркиби ва тузилишига бевосита боғлиқ. Табиий ва кимёвий толалар аралашмали матоларнинг мустаҳкамлиги, ишқаланишга чидамлилиги ва шакл сақлаш қобилиятини оширади. Шу сабабли, турли толаларни мақбул нисбатларда аралаштирган ҳолда кўйлакбоп мато тузилишини лойиҳалаш орқали юқори сифат кўрсаткичларига эга янги ассортиментларни яратиш имконияти мавжуд.

Мазкур тадқиқот иши турли тола таркибли кўйлакбоп матоларнинг тузилиш параметрларини ўрганиш, уларнинг истеъмол ва эксплуатацион хоссаларига таъсирини таҳлил қилиш ҳамда оптимал тузилиш вариантларини ишлаб чиқишга қаратилган. Олинган натижалар тўқимачилик корхоналарида янги, рақобатбардош кўйлакбоп мато ассортиментларини яратишда, шунингдек, илмий ва амалий жараёнларида аҳамиятга эга бўлади[2].


Шунинг учун кўйлакбоп матонинг ишқаланишга чидамилигини ошириш учун тўлдириш параметрларни ўзгартирмаган ҳолда саржа ўрилиши асосида синиқ саржа, майда гулли саржа ва ромбали саржа тузилиши

ISSN 3030-3907

лойиҳаланди. 1-3-расмларда кўйлакка мўлжалланган матонинг тузилиши лойиҳаланган.



1-расм. Саржа 1/5 асосида синиқ саржанинг тўлиқ тахтлаш расми.



2-расм. Саржа 1/5 асосида синиқ саржанинг яққол кўриниши

Саржа 1/5 асосида шаклланган синиқ саржа ўрилишининг ишқаланишга чидамлилиги пастроқ бўлиши, аввало, унинг ички тузилиши ва ипларнинг ўзаро боғланиш характери билан чамбарчас боғлиқдир. Мазкур ўрилишда битта танда ипи қисқа ораликда битта арқоқ ипи устидан ўтиб қоплама ҳосил қилади, кейин эса тўртта кетма-кет арқоқ иплари устидан эркин ҳолатда ётиб, фақат бешинчи нуқтада яна боғланиш ҳосил қилади. Яъни, танда ипининг қоплама узунлиги нисбатан катта бўлиб, боғланиш нуқталари сони камаяди. Бу ҳолат матонинг ишқаланишга қарши барқарорлигига салбий таъсир кўрсатади.

Ишқаланиш жараёнида мато сиртидаги энг катта механик юклама айнан шу узун танда қопламалари ҳиссасига тўғри келади. Чунки қоплама

ISSN 3030-3907

қисмлари мато юзасидан бироз кўтарилиб туради ва ташқи таъсир билан тўғридан-тўғри контактга киришади. Натижада ишқаланиш кучи биринчи навбатда айнан шу участкаларда жамланади. Қоплама узун бўлгани сабабли, толаларда эгилиш, силжиш ва маҳаллий зўриқиш ортиб, толанинг ейилиши ва узилиши тезлашади. Шу тариқа мато сиртида пухтакликнинг пасайиши, тукчаларнинг чиқиши ва кейинчалик емиралиб бориш жараёни жадаллашади.

Синиқ саржа ўрилишда саржа йўналишининг узилиб-узилиб жойлашиши ҳам ишқаланишга чидамлиликни пасайтирадиган қўшимча омил ҳисобланади. Бунда қоплама участкалари бир чизиқ бўйлаб эмас, балки турли йўналишларда тарқалган бўлади. Ишқаланиш вақтида бу участкалар ҳар хил бурчакларда таъсирни қабул қилади ва натижада юклама бир маромда тақсимланмайди. Юклама концентрацияси айрим нуқталарда ортиб, толаларнинг тезроқ шикастланишига олиб келади. Бу эса саржа 1/5 асосидаги синиқ саржа ўрилишда ишқаланишга чидамлиликнинг паст бўлишини янада кучайтиради.

Шунингдек, танда ипининг тўртта арқоқ ипи устидан эркин ҳолатда ётиши матонинг ички боғланиш зичлигини камайтиради. Боғланиш нуқталари кам бўлган матода иплар ўзаро камроқ «қулфланади», яъни ишқаланиш вақтида ипларнинг жойидан силжиши осонлашади. Бу ҳолат мато структурасининг барқарорлигини пасайтиради ва ишқаланиш таъсирида толаларнинг бир-бирига нисбатан силжиши, сиртидан чиқиб кетиши ёки узилишига шароит яратади. Натижада матонинг умумий ишқаланишга чидамлилиги анча паст даражада намоён бўлади.

Эксплуатацион нуқтаи назардан қаралганда, саржа 1/5 асосидаги синиқ саржа ўрилишда тўқилган матоларнинг ишқаланишга чидамлилиги пастроқ эканлиги уларни қўллаш соҳасини тўғри танлаш зарурлигини кўрсатади. Бундай матолар ташқи механик таъсир нисбатан кам бўлган, асосан эстетик кўрсаткичлари ва ташқи кўриниши устувор бўлган кўйлак турлари учун мақбул ҳисобланади. Агар эса мато кундалик фойдаланишда, тез-тез ишқаланиш ва ювишга дуч келадиган шароитда ишлатилиши режалаштирилса, унда қоплама узунлиги қисқароқ, боғланиш нуқталари кўпроқ бўлган саржа ёки бошқа ўрилиш турларини танлаш мақсадга мувофиқ бўлади.

Саржа 1/5 асосидаги синиқ саржа ўрилишда битта танда ипи узун қоплама ҳосил қилиши, боғланиш нуқталари сонининг камлиги ва юзада қоплама участкаларининг устунлиги матонинг ишқаланишга чидамлилигини пасайтирадиган асосий структур омиллар ҳисобланади. Бу қонуниятни

ISSN 3030-3907


ҳисобга олиш мато конструкциясини илмий асосда лойиҳалаш ва унинг эксплуатацион сифатларини мақсадли равишда бошқариш имконини беради.

3-4-расмларда кўрсатилган мато 4/1 синиқ саржа ва полотноли ўрилиш элементлари фонида лойиҳаланган майда гулли ўрилишга эга бўлиб, унинг структураси декоративлик ва конструктив мураккабликни ўзида уйғунлаштиради. Мазкур матода асосий фон сифатида полотноли ўрилиш қўлланилган бўлиб, у танда ва арқоқ ипларининг тез-тез боғланиши ҳисобига матонинг умумий барқарорлигини таъминлайди. Бироқ фон ичида 4/1 синиқ саржа элементларининг жойлаштирилиши натижасида майда гулли нақш ҳосил бўлади, бу эса мато юзасида микрорельефнинг ортишига олиб келади. Синиқ саржа элементларида танда ипининг узун қоплама ҳосил қилиши ишқаланиш таъсирида биринчи навбатда шу участкаларнинг юкламага дуч келишини келтириб чиқаради. Полотноли ўрилиш фонидаги зич боғланишлар умумий структурани ушлаб турса-да, майда гулли нақш сабабли мато юзасида кўп сонли ўтиш нуқталари мавжуд бўлади. Бу нуқталарда иплар йўналишини тез-тез ўзгартиради, натижада маҳаллий зўриқишлар кучаяди.


Шу сабабли бундай майда гулли мато юқори эстетик кўрсаткичларга эга бўлса-да, ишқаланишга чидамлилик нуқтаи назаридан соддароқ саржа ёки тўлиқ полотноли ўрилишдаги матоларга нисбатан пастроқ барқарорликни намоён этади.

Майда гулли саржа асосида ҳосил қилинган ўрилишда матонинг ишқаланишга чидамлилиги паст бўлиши, аввало, ушбу ўрилишнинг геометрик ва структур хусусиятлари билан изоҳланади. Майда гулли саржа ўрилиши саржа принципи асосида ташкил этилган бўлса-да, унда саржа чизиқлари ва қопламалар майда элементларга бўлинган ҳолда, такрорланувчи нақш кўринишида жойлашади. Натижада мато юзасида кўп сонли кичик релъеф нуқталари, бурчаклар ва ўтиш жойлари ҳосил бўлади. Айнан шу микрорельеф ишқаланиш жараёнида механик юкламаларнинг бир текис тақсимланмаслигига сабаб бўлади.

ISSN 3030-3907



3-расм. Майда гулли ўрилишнинг тўлиқ тахтлаш расми.



4-расм. Майда гулли саржанинг яққол кўриниши

ISSN 3030-3907

Ишқаланиш вақтида ташқи таъсир биринчи навбатда мато юзасида энг чиқиб турган элементларга йўналади. Майда гулли саржа ўрилишда бундай элементлар сони жуда кўп бўлгани сабабли, ишқаланиш таъсири алоҳида-алоҳида нуқталарда жамланади. Бу нуқталарда иплар кўпроқ эгилишга, силжишга ва маҳаллий зўриқишга дуч келади. Натижада толаларнинг сиртдан ажралиши, тукчаланиш ва кейинчалик ейилиш жараёни тезлашади. Шу боис бундай ўрилишда ҳосил қилинган мато ишқаланишга нисбатан барқарорликни камроқ намоён қилади.

Майда гулли саржа ўрилишининг яна бир муҳим жиҳати — қоплама участкаларининг қисқа, аммо такрорланиш частотасининг юқори бўлишидир. Бир қарашда қопламалар қисқа бўлгани матонинг барқарорлигини оширгандек туюлиши мумкин, аммо уларнинг жуда кўп такрорланиши ишқаланиш жараёнида кўп сонли «заиф нуқталар»ни вужудга келтиради. Ҳар бир қоплама ўтиш жойида иплар кескин йўналиш алмаштиради, бу эса ички зўриқишларни кучайтиради. Ишқаланиш таъсирида айнан шу ўтиш жойлари тезроқ шикастланади ва мато сиртида бир маромда бўлмаган ейилиш кузатилади.


Шунингдек, майда гулли саржа ўрилишда нақшнинг шаклланиши учун танда ва арқоқ иплари тез-тез ўзаро жой алмаштиради. Бу ҳолат ипларнинг структурадаги эркинлик даражасини оширади, яъни ишқаланиш вақтида ипларнинг микроҳаракатлари кучаяди. Иплар ўзаро камроқ «қулфланиб» тургани сабабли, механик таъсир остида уларнинг жойидан силжиши осонлашади. Бу эса матонинг ишқаланишга чидамлилигини янада пасайтирадиган омил сифатида намоён бўлади.

Эксплуатацион нуқтаи назардан баҳоланганда, майда гулли саржа асосида тўқилган матолар кўпроқ эстетик талаблар устувор бўлган ҳолатларда қўлланилиши мақсадга мувофиқ. Уларнинг ташқи кўриниши, нақшнинг майинлиги ва декоратив таъсири юқори бўлса-да, ишқаланишга чидамлилик жиҳатидан улар ромбали ёки классик саржа ўрилишдаги матоларга нисбатан камроқ барқарорликка эга бўлади. Шу сабабли бундай матоларни доимий юқори механик таъсирга дуч келадиган кийим турларида қўллаш чекланган бўлиши лозим.


Хулоса қилиб айтганда, майда гулли саржа асосида ҳосил қилинган ўрилишда мато юзасидаги майда релъеф элементларининг кўплиги, қоплама ўтиш нуқталарининг зич жойлашуви ва ипларнинг микроҳаракатлари ортиши ишқаланишга чидамлиликнинг анча паст бўлишига олиб келади. Бу қонуниятни ҳисобга олиш мато конструкциясини илмий асосда танлаш ва унинг эксплуатацион сифатларини мақсадли бошқаришда муҳим аҳамият

ISSN 3030-3907

касб этади. Мато намуналарини ўрганиш натижасида шу маълум бўлдики, кўйлакбоп матоларнинг ишқаланишга чидамлилиги уларнинг ўрилиш тури билан бевосита боғлиқ эканлиги яққол намоён бўлади. Ишқаланишга чидамлилик матонинг эксплуатацион барқарорлигини белгилайдиган асосий кўрсаткичлардан бири бўлиб, айниқса кундалик кийим сифатида қўлланиладиган кўйлакбоп матолар учун алоҳида аҳамият касб этади.



5-расм. Саржа 2/1+саржа 1/5 асосида ромбали саржанинг тўлиқ тахтлаш расми.



6-расм. Саржа 2/1+саржа 1/5 асосида ромбали саржа ўрилиши ва тўқилган матонинг яққол кўриниши.

Саржа 2/1 ва саржа 1/5 элементлари асосида шакллантирилган ромбали саржа ўрилишли матонинг ишқаланишга чидамлилиги юқори эканлиги унинг тузилиший-конструктив хусусиятлари, ипларнинг ўзаро жойлашув қонуниятлари ҳамда механик юкламаларни қабул қилиш механизми билан чуқур боғликдир. Бундай ўрилиш тури оддий саржа ёки майда гулли саржага нисбатан мураккаб композицион тузилишга эга бўлиб, у бир вақтнинг ўзида

ISSN 3030-3907

ҳам конструктив барқарорликни, ҳам эксплуатацион чидамлиликни таъминлайди.

Ромбали саржа ўрилишнинг асосий фарқли жиҳати шундаки, унда саржа йўналишлари маълум бир масофадан сўнг ўз йўналишини ўзгартиради ва натижада ромб шаклига яқин геометрик нақш ҳосил бўлади. Саржа 2/1 ва саржа 1/5 элементларининг биргаликда қўлланилиши мато структурасида қоплама узунликлари ва боғланиш нуқталари ўртасида мувозанат ҳосил қилади. Саржа 2/1 да танда иплари икки марта арқоқ устидан ўтиб, бир марта остига тушади, бу эса боғланиш нуқталарининг нисбатан кўп бўлишини таъминлайди. Саржа 1/5 эса узунроқ қопламалар ҳосил қилиши билан фарқланади. Ушбу икки турнинг ромбали композицияда уйғунлашиши натижасида мато юзасида ҳам узун қоплама участкалари, ҳам зич боғланиш нуқталари мавжуд бўлади.

Ишқаланиш жараёнида мато сирти ташқи жисм билан кўп маротаба контактга киради ва механик юклама қабул қилади. Агар мато структурасида боғланиш нуқталари жуда кам бўлса, иплар осон силжийди ва тез ейилади; аксинча, боғланишлар ҳаддан ташқари кўп бўлса, мато қаттиқлашиб, локал зўриқишлар ортади. Ромбали саржа ўрилишда айнан шу икки ҳолат ўртасида оптимал мувозанат таъминланади. Саржа 2/1 участкалари ипларнинг ўзаро маҳкам боғланишини таъминлаб, структуранинг умумий барқарорлигини оширади, саржа 1/5 элементлари эса ишқаланиш вақтида юкламани маълум даражада тарқатиб, унинг бир нуқтада жамланиб қолишини олдини олади.

Ромбали шаклнинг ўзи ҳам ишқаланишга чидамлиликка ижобий таъсир кўрсатади. Саржа йўналишларининг ўзгариб бориши натижасида мато юзасида узлуксиз бир томонлама саржа чизиқлари ҳосил бўлмайди. Бу эса ишқаланиш таъсирида юкламаларнинг бир йўналишда тўпланиб қолишини чеклайди. Натижада механик таъсир турли йўналишларга тарқалади ва толалардаги маҳаллий зўриқиш пасаяди. Айнан шу ҳолат ромбали саржа ўрилишли матоларда ейилишнинг бир маромда кечишига, тезда «заиф зона»лар пайдо бўлмаслигига олиб келади.

Саржа 2/1 ва саржа 1/5 комбинацияси мато юзасининг микрорельефини ҳам оптимал даражада шакллантиради. Майда гулли саржа ёки синиқ саржа ўрилишларда кўп сонли майда чиқиндилар ва ўтиш нуқталари мавжуд бўлиб, ишқаланиш вақтида айнан шу нуқталар тез шикастланади. Ромбали саржа ўрилишда эса микрорельеф нисбатан йирик ва тартибли бўлади. Бу ишқаланиш вақтида ташқи жисм билан контакт майдонини бироз кенгайтиради, натижада босим ҳар бир нуқтага эмас, балки каттароқ

ISSN 3030-3907

майдонга тақсимланади. Бундай шароитда толаларнинг узилиши, тукчаланиш ва сиртдан ажралиш жараёни анча секин кечади.

Ички структура нуқтаи назаридан қаралганда, ромбали саржа ўрилишда ипларнинг ўзаро «қулфланиши» юқори даражада таъминланади. Саржа 2/1 элементларида танда ва арқоқ иплари тез-тез боғланиб тургани сабабли, ишқаланиш вақтида ипларнинг жойидан силжиши чекланади. Саржа 1/5 элементлари эса қоплама ҳосил қилган ҳолда ташқи таъсирни биринчи бўлиб қабул қилади, аммо улар ромбали тартибда жойлашгани сабабли, бир-бирига таянади ва юкламани қисман қўшни участкаларга узатади. Бу жараён мато структурасини «энергияни ютиш» қобилияти билан таъминлайди, яъни ишқаланиш натижасидаги механик энергия тўғридан-тўғри толаларни узишга эмас, балки уларнинг эгилиши ва микроҳаракатларига сарфланади.

Эксплуатацион жиҳатдан олиб қаралганда, ромбали саржа ўрилишли матолар узоқ муддатли фойдаланиш жараёнида ташқи кўринишини яхшироқ сақлаб қолади. Ишқаланишга чидамлилик юқори бўлгани сабабли, мато сиртида тез тукчаланиш, ялтираш ёки ейилиш излари пайдо бўлмайди. Бу эса бундай матоларни кўйлакбоп маҳсулотлар, костюм-кўйлак матолари ва ҳатто ўртача юкламага эга ташқи кийим турлари учун ҳам мақбул қилади. Айниқса, кийим тана билан доимий контактда бўлган жойларда — елка, ён томонлар, қўлтиқ қисмида — ишқаланишга чидамлилик юқори бўлиши катта аҳамиятга эга [3-4].

Ромбали саржа ўрилишнинг яна бир афзаллиги унинг эстетик ва функционал хусусиятларининг уйғунлигидир. Нақшли тузилиш матога жозибадор ташқи кўриниш бағишласа-да, у фақат декоратив мақсадга хизмат қилмайди, балки конструктив барқарорликни ҳам оширади. Бу жиҳатдан ромбали саржа ўрилиш майда гулли саржага қараганда анча устун, чунки унда нақш элементлари мато структурасини заифлаштирмайди, аксинча, уни мустаҳкамлайди.

Илмий нуқтаи назардан хулоса қилиб айтганда, саржа 2/1 ва саржа 1/5 асосида шаклланган ромбали саржа ўрилишли матонинг ишқаланишга чидамлилиги юқори бўлиши қуйидаги омиллар билан белгиланади: боғланиш нуқталари ва қоплама узунликлари ўртасидаги оптимал мувозанат, саржа йўналишларининг ўзгариб бориши натижасида юкламаларнинг бир йўналишда жамланмаслиги, микрорельефнинг тартибли ва нисбатан йирик бўлиши ҳамда ипларнинг ўзаро маҳкам «қулфланиши». Бу омиллар йиғиндиси ишқаланиш жараёнида толаларнинг ейилишини секинлаштиради,

ISSN 3030-3907

мато структурасининг барқарорлигини оширади ва унинг хизмат муддатини узайтиради.

Шу сабабли амалиётда юқори эксплуатацион талаблар қўйиладиган, айниқса ишқаланишга чидамлилик муҳим бўлган маҳсулотлар учун саржа 2/1+саржа 1/5 асосидаги ромбали саржа ўрилишли матоларни танлаш илмий ва техник жиҳатдан тўлиқ асосланган деб ҳисобланади. Бу ўрилиш тури нафақат матонинг механик барқарорлигини, балки истеъмолчи учун муҳим бўлган ташқи кўриниш ва қулайлик хусусиятларини ҳам юқори даражада таъминлайди[5-6].

Хулоса қилиб айтганда, ўрилиш турини тўғри танлаш кўйлакбоп матоларнинг хизмат муддатини узайтириш, ташқи кўринишини узоқ вақт сақлаб қолиш ва истеъмолчи қониқишини таъминлашда ҳал қилувчи омиллардан бири ҳисобланади. Берилган натижалар амалиётда мато танлаш ва конструктив ечимлар қабул қилишда илмий асосланган йўл-йўриқ сифатида хизмат қилиши мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. B.To‘raqulov, S.Xamrayeva, L.Tashpulotov. Research and analysis of mechanical properties of shirt fabrics with different fiber content (maqola) //THE multidisciplinary journal of science and technology xorijiy jurnal (6 /2025), p.180-184.

2. B.To‘raqulov, S.Xamrayeva, Q.Muminov. Turli tola tarkibli iplarning sifat ko‘rsatkichlarining tadqiqoti //Международная конференция академических наук (13/ 2025), -Б.49-55.

3. B.To‘raqulov, S.Xamrayeva, Q.Muminov. Ko‘ylakbop matoda joylashgan tanda va arqoq iplarining parametrlarini tadqiq etish // MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE. International scientific-online conference xorijiy jurnal (13/ 2025), p.71-76.

4. B.To‘raqulov, S.Xamrayeva, Q.Muminov. Increasing the air permeability of suiting fabrics // INTERNATIONAL BULLETIN OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY xorijiy jurnal (24-fevral, 2025), p.86-90.

5. B.To‘raqulov, D.Mirzanazarova, S.Xamrayeva. Turli tola tarkibli matolarning tuzilishini tadqiqoti // Ishlab chiqarish va qayta ishlashning innovatsion texnologiyalarini rivojlanishi sharoitida ilm-fan va soha korxonalarining integratsiyasi” respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. (22-23-oktabr, 2025), -B. 152–155.

6. B.To‘raqulov, S.Xamrayeva, D.Mirzanazarova. Turli tola tarkibli ko‘ylakbop matolarning mexanik xossalarining tadqiqoti va tahlili // Ishlab chiqarish va qayta ishlashning innovatsion texnologiyalarini rivojlanishi sharoitida ilm-fan va soha

ISSN 3030-3907

korxonalarining integratsiyasi” respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. (22-23-oktabr, 2025), -B. 164–167.

ISSN 3030-3907

ТУРЛИ ТОЛА ТАРКИБЛИ КЎЙЛАКБОП МАТОЛАРНИНГ ИШҚАЛАШИШГА ЧИДАМЛИЛИГИНИ ТАДҚИҚИ

Б.Т.Туракулов
С.А.Хамраева
талаба
Ш.Шокиржонова

Аннотация. Ушбу мақолада толалар таркиби турлича бўлган кўйлакбоп матоларнинг механик хоссаларини аниқлаш борасида тадқиқот ишлари ўтказилган ва матоларнинг узиш кучи, узишга узайиши ва ишқаланишга чидамлилиги бўйича олинган синов натижалари таҳли қилинган. Кўйлакбоп мато таркибида полиэстер толасининг миқдори қанчалик кўп бўладиган бўлса, узилиш кучи ва ишқаланишга чидамлилик кўрсаткичи юқори бўлиши кузатилган, яъни кўйлакбоп матонинг танда йўналиши бўйича узилиш кучи 1,1% дан 1,8% гача, арқоқ йўналиши бўйича узилиш кучи 17,4% дан 19,9% гачача, танда йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 25,0% гача, арқоқ йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 6,5% гача, ишқаланишга чидамлилиги 9,1% дан 14,6% гача ошганлиги аниқланган.Тадқиқот жараёнида турли таркибли ва ўрилишли кўйлакбоп матоларнинг М-235/3 асбобида ишқаланиш жараёни таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: тола таркиб, ўрилиш, кўйлакбоп мато, танда ва арқоқ йўналиш, узиш кучи, узишга узайиши, ишқаланишга чидамлилик.

Аннотация. В данной статье проведены исследовательские работы по определению механических свойств сарочечных тканей с различным волокнистым составом, а также проанализированы результаты испытаний по показателям разрывной прочности, относительного удлинения при разрыве и стойкости к истиранию. Установлено, что с увеличением содержания полиэстерово волокна в составе сарочечной ткани наблюдается повышение показателей разрывной прочности и стойкости к истиранию. В частности, разрывная прочность ткани в направлении основы увеличивается в пределах от 1,1% до 1,8%, в направлении утка — от 17,4% до 19,9%; относительное удлинение при разрыве в направлении основы возрастает до 25,0%, в направлении утка — до 6,5%, а стойкость ткани к истиранию повышается в диапазоне от 9,1% до 14,6%. В ходе исследования на приборе М-235/3 был проанализирован процесс истирания сарочечных тканей различного волокнистого состава и переплетения.

Ключевые слова: волокнистый состав, переплетение, сарочечная ткань, направление основы и утка, разрывная нагрузка, разрывное удлинение, стойкость к истиранию.

ISSN 3030-3907

Abstract. This article conducted research on determining the mechanical properties of dress fabrics with different fiber compositions, as well as analyzed the test results for tensile strength, relative elongation at break, and abrasion resistance. It was established that with an increase in the polyester fiber content in the dress fabric composition, an increase in tensile strength and abrasion resistance indicators is observed. In particular, the fabric's tensile strength increases in the warp direction from 1.1% to 1.8%, in the weft direction from 17.4% to 19.9%; the relative elongation at break increases in the warp direction to 25.0%, in the weft direction to 6.5%, and the wear resistance increases in the range from 9.1% to 14.6%. During the research, the abrasion process of various fiber compositions and weaves of overcoat fabrics was analyzed using the M-235/3 device.

Keywords: fiber composition, weave, dress fabric, weft and weft direction, tensile strength, tensile strength, abrasion resistance.

КИРИШ

Тўқимачилик саноатида ишлаб чиқарилаётган матолар турли хилма-хилдир. Уларнинг тузилиши, ишлатилиш мақсадлари, тола таркиби ва хусусиятлари бўйича бир-биридан фарқланади.

Маҳаллий хомашёдан фойдаланиб, янги мато ассортиментларини кенгайтириш ва ишлаб чиқариш, маҳаллий тўқимачилик хомашёларини қайта ишлаш ҳажмини ошириш, илғор чет эл фирмалари билан ҳамкорликда соҳа корхоналарига энг янги технология ва ускуналарни жорий этиш ҳозирги куннинг асосий масалаларидан бири бўлиб ҳисобланади[1-2].

Кўйлакбоп матолари жуда хилма -хил бўлиб, улар хомашё таркибига кўра, улар пахта, зиғир, жун, табиий ипак ва кимёвий толалардан, аралаш тузилишдаги иплар асосида ишлаб чиқарилади. Пахта толавий таркиблии матолар ҳар хил мақсаддаги либослар учун ишлатилади - мавсумий кийим кечаклар, сарафанлар, халатлар, блузкалар, болалар либослари ва бошқалар. Кўйлакбоп матолар мавсумийлигига қараб ёзги, мавсумий ва қишга бўлинган кенг ва хилма-хил либосли ҳолда ишлаб чиқаради. Кўплаб янги, истиқболли матолар жорий қилинганига қарамай, эски турдаги матолар кўп миқдорда ишлаб чиқарилади.

Масалан, мавсумий қишки ва баҳорги кўйлакбоп матолар карда ва қайта тараш йигириш системаси билан олинган иплардан ишлаб чиқарилади. Бу гуруҳга кирувчи газламалар ёзги гуруҳдагиларга нисбатан бир оз қалин, зич ва оғирроқ бўлади.

Бу кўйлакбоп матолар турли хил мақсадларда фойдаланиш учун ишлаб чиқарилади - кундалик ёзги ва қишки кўйлаклар учун, спорт услубидаги кўйлаклар ва ҳоказо. Кундалик спорт туридаги кўйлаклар учун, асосан, ёркин

ISSN 3030-3907

рангли матолардан фойдаланилади. Кўйлакбоп матолар енгил, юмшоқ, эластик бўлиши талаб этилади. Бундан ташқари, улар ҳаво ўтказувчанлик хусусиятига эга, кам қисқариши, пишиқ бўлиши, айниқса ёруғлик ва ювиш таъсирига чидамли бўлиши керак.

Кўйлакбоп матоларнинг асосий кўрсткичларидан бири, уларнинг узилиш кучи, ишқаланишга чидамлилиги киради.

Кўйлакбоп матоларнинг узиш кучи - бу юқорида айтилган ўлчовли намуналарни узиш учун сарф қилинган куч. Узиш кучи матоларнинг узилиш кучини кўрсатади.

Кўйлакбоп матоларнинг узилиш кучи уларнинг тола таркибига, ҳосил қилувчи ипларнинг тузилиши ва чизиқий зичлиги, ўрилиши, зичлиги, пардозлаш турига боғлиқ. Иплар қанча йўғон ва қанча зич бўлса, у шунча мустаҳкамдир. Босиш, аппретлаш каби пардозлаш жараёнлари матоларнинг мустаҳкамлигини оширади, оқартириш, бўяш жараёнлари бўлса, мустаҳкамликни бироз пасайтиради. Узиш кучини аниқлаш билан бир пайтда намуналарнинг чўзилишдаги узайиши ҳам аниқланади. Чўзилишдаги узайиши деб намуналарнинг дастлабки узунлиги билан узилгунгача чўзилгандаги узунлиги орасидаги фарқи тушунилади [3-4].

Кўйлакбоп матоларни узиш учун маълум миқдорда сарфланган энергия уларнинг узилишдаги бажарилган ишнинг ҳақиқий миқдоридир.

Турли хил кўйлакбоп матоларнинг механик хусусиятларини тақосслаш учун нисбий узиш кучи ва узилишда бажарилган ишнинг солиштирма миқдори каби кўрсаткичлар қўлланилади.

Кўйлакбоп матоларнинг асосий кўрсаткичларидан бири унинг ишқаланишга чидамлилигидир. Матоларнинг ишқаланишга чидамлилиги тола таркибига, зичлигига, ипларнинг ингичка ёки йўғонлигига, қалинлигига ва бошқа кўрсаткичларига боғлиқдир. Масалан, матолар қанчалик кўп ишқаланса, тузилиши бузилади, таркибидаги иплар узилади, мустаҳкамлиги пасаяди.

Кўйлакбоп матоларнинг емирилиши асосан ишқаланиш таъсири натижасида бўлади. Матоларнинг ишқаланишга чидамлилиги уларнинг толавий таркибига, сиртининг тузилишига боғлиқ. Энг аввал матоларнинг сиртига чиқиб турган тола учлари ишқаланиш таъсирида бўлади.

Кўйлакбоп матодаги ипларнинг букилган жойларига чиқиб турган толалар емирила бошлайди. Тола сиртининг баъзи жойлари шикастланади ва толалар узилади. Айрим толалар ёки тола қисмлари ип таркибидан чиққани туфайли иплар ҳам узилади.

ISSN 3030-3907

Кўйлакбоп матоларнинг сиртига чиқиб турган ипларнинг букилган жойлари ишқаланиш таъсирида энг биринчи бўлиб емирилади. Бу жойлар матоларнинг таянч сирти ҳисобланиб, яъни матоларнинг таянч сирти қанча катта бўлса, унинг емирилишга чидамлилиги ҳам шунча яхши бўлади. Матоларнинг таянч сиртини кучайтириш йўли билан унинг емирилишга чидамлилигини ошириш мумкин.

Толалар таркиби турлича бўлган кўйлакбоп матоларнинг механик хоссаларини аниқлаш борасида тадқиқот ишлари ўтказилди ва олинган синов натижалари қуйидаги 1-жадвалда келтирилди.


1-жадвал

Толалар таркиби турлича бўлган кўйлакбоп матоларнинг механик хоссаларининг тадқиқоти

№	Кўрсаткичлар номи	Кўйлакбоп матонинг тола таркиби бўйича вариантлар		
		60% пахта толаси билан 40% полиэстер толали	70% пахта толаси билан 30% полиэстер толали	65% полиэстер толаси билан 35% пахта толали
1.	Матонинг узилиш кучи, Н			
	танда бўйича	284	279	287
	арқоқ бўйича	209	253	261
2.	Матонинг узилишдаги узайиши, %			
	танда бўйича	21	28	28
	арқоқ бўйича	43	46	43
3.	Ишқаланишга чидамлилиги, цикл	8800	8000	10300

Толалар таркиби турлича бўлган кўйлакбоп матоларнинг танда ва арқоқ йўналиши бўйича узилиш кучи, танда ва арқоқ йўналиши бўйича узилишдаги узайиши, ишқаланишга чидамлилигига тола таркибининг таъсирини тадқиқ этишдан олинган синов натижалари гистограмма кўринишида 3.3-3.5-расмларда келтирилди [3-4].


ISSN 3030-3907



Турли аралашма толали мато

1-танда бўйича; 2-арқоқ бўйича.

3.3-расм. Кўйлакбоп матоларнинг танда ва арқоқ йўналиши бўйича узилиш кучига тола таркибининг таъсири.




Турли аралашма толали мато

1-танда бўйича; 2-арқоқ бўйича.

3.4-расм. Кўйлакбоп матоларнинг танда ва арқоқ йўналиши бўйича узилишдаги узайишига тола таркибининг таъсири.

ISSN 3030-3907



3.5-расм. Кўйлакбоп матоларнинг ишқаланишга чидамлилигига тола таркибининг таъсири.

Толалар таркиби турлича бўлган кўйлакбоп матоларнинг механик хоссалари тадқиқ этилди. Олинган синов натижалари 60% пахта толаси билан 40% полиэстер толали кўйлакбоп матонинг кўрсаткичларига нисбатан солиштирилди. 70% пахта толаси билан 30% полиэстер толали кўйлакбоп матонинг танда йўналиши бўйича узилиш кучи 1,8% га камайди, арқоқ йўналиши бўйича узилиш кучи 17,4% га, танда йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 25,0% га, арқоқ йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 6,5% га ошди, ишқаланишга чидамлилиги 9,1% га камайди, 65% полиэстер толаси билан 35% пахта толали кўйлакбоп матонинг танда йўналиши бўйича узилиш кучи 1,1% га камайди, арқоқ йўналиши бўйича узилиш кучи 19,9% га, танда йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 25,0% га ошди, арқоқ йўналиши бўйича узилишдаги узайиши ўзгармади, ишқаланишга чидамлилиги 14,6% га ошди [5-6].


Кўйлакбоп матолар одам танасининг кўп қисмини ўраб турганлиги сабабли улар фаслларни, иқлим шароитларини, ёш даражасини инобатга олган ҳолда гигиеник талабларни тўлиқ қондириши лозим. Табиий толаларнинг даволовчи ва инсон соғлигига ижобий таъсири хусусиятларини инобатга олиш кўйлакбоп матоларнинг янги ассортиментларини яратиш ва ишлаб чиқаришда яхши натижаларни беради.

Тадқиқот натижалари таҳлилидан кўриниб турибдики, кўйлакбоп мато таркибида полиэстер толасининг миқдори қанчалик кўп бўладиган бўлса, узилиш кучи ва ишқаланишга чидамлилик кўрсаткичи юқори бўлиши кузатилди, яъни кўйлакбоп матонинг танда йўналиши бўйича узилиш кучи


ISSN 3030-3907

1,1% дан 1,8% гача, арқоқ йўналиши бўйича узилиш кучи 17,4% дан 19,9% гачача, танда йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 25,0% гача, арқоқ йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 6,5% гача, ишқаланишга чидамлилиги 9,1% дан 14,6% гача ошганлиги аниқланди.Тадқиқот жараёнида турли таркибли ва ўрилишли кўйлакбоп матоларнинг М-235/3 асбобида ишқаланиш жараёни таҳлил қилинди (2-жадвал).

2-жадвал

Намуна матолар тури	**5 соатдан сўнг ишқаланган матонинг ҳолати**	**10 соатдан сўнг ишқаланган матонинг ҳолати**	**14 соатдан сўнг ишқаланган матонинг ҳолати**
Синиқ саржа ўрилишли 70% пахта толаси билан 30% полиэстер толали			--
Майда гулли ўрилишли, 60% пахта толаси билан 40% полиэстер толали			--

ISSN 3030-3907

Ромбала ўрилишли, 65% полиэстер толаси билан 35% пахта толали			

2-жадвалда келтирилган тасвирларга биноан 5 соат ишқалашдан сўнг синиқ саржа ўрилишли 70% пахта толаси билан 30% полиэстер толали мато намунаси билан майда гулли ўрилишли, 60% пахта толаси билан 40% полиэстер толали намуна матолар тузилишининг бузилиши ва толаларнинг титилиши кузатилди ва ромбала ўрилишли, 65% полиэстер толаси билан 35% пахта толали намуна матода эса мато тузилишида ўзгариш сезилмади. Кейинги 10 соат ишқалашдан сўнг синиқ саржа ўрилишли 70% пахта толаси билан 30% полиэстер толали мато намунаси билан майда гулли ўрилишли, 60% пахта толаси билан 40% полиэстер толали намуна матолардаги иплар узилиб, яроқсиз ҳолга келиши кузатилди ва 65% полиэстер толаси билан 35% пахта толали намуна матода толаларнинг титилиши намоён бўлди. Тажриба давомида 14 соат ишқалашдан сўнг 65% полиэстер толаси билан 35% пахта толали намуна мато яроқсиз ҳолатга келиши кузатилди. Бу тасвирларнинг таҳлилидан маълум бўлдики, 65% полиэстер толаси билан 35% пахта толали намуна матонинг ишқаланишга чидамлилиги бошқа намуна матоларга нисбатан юқори эканлиги намоён бўлди .

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Turaqulov B., Xamrayeva S., Tashpulotov L. Research and analysis of mechanical properties of shirt fabrics with different fiber content //THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 2025. -p.180–184.

2. Turaqulov B., Xamrayeva S., Muminov Q. Turli tola tarkibli iplarning sifat ko‘rsatkichlarining tadqiqoti // Международная конференция академических наук, 2025., -B. 49–55.

3. Turaqulov B., Xamrayeva S., Muminov Q., Taniberdiyev F. Ko‘ylakbop matoda joylashgan tanda va arqoq iplarining parametrlarini tadqiq etish // MODELS AND

ISSN 3030-3907

METHODS IN MODERN SCIENCE. International scientific-online conference, 2025., -p. 71–76.
4. Turaqulov B., Xamrayeva S., Muminov Q. Increasing the air permeability of suiting fabrics // Increasing the air permeability of suiting fabrics, 2025.,-p.86-90.
5. Kazakova D., Khamraeva S., Giyasova D. study of the quality of yarns obtained from recycled composite fibers // annals of forest research, №65/1, 2022., -p. 3703-3710.
6. K.Muminov, S.Khamrayeva, L.Toshpulotov Analysis of the physical-mechanical properties of t-shirt fabric with different fiber composition.//E3S Web of Conferences, 2024, -p.1-5.

ISSN 3030-3907

ALYUMININING XUSUSIYATLARI, QO‘LLANILISHI, VA TIKRIK ORGANIZMLARGA TA’SIRI.

Oltiboyeva Mavsuma G‘ulom qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola alyuminiyning fizik-kimyoviy xususiyatlari, sanoat va kundalik hayotdagi keng qo‘llanilishi hamda tirik organizmlarga (o‘simliklar, hayvonlar va insonlarga) ta'sirini kompleks tarzda yoritadi. Alyuminiy – yer po‘stida eng ko‘p uchraydigan metallardan biri bo‘lib, past zichlikka, yuqori issiqlik va elektr o‘tkazuvchanligiga, korroziyaga chidamliligiga ega. U transport, qurilish, qadoqlash, elektrotexnika va aviatsiya kabi sohalarda muhim material hisoblanadi. Shu bilan birga, alyuminiyning biologik jihatdan zararsiz emasligi ta'kidlanadi: u tabiatda biologik jarayonlarda ishtirok etmaydi va ortiqcha miqdorda to‘planganda toksik ta'sir ko‘rsatadi – o‘simliklarda ildiz o‘sishini inhibe qiladi, hayvonlarda gematologik o‘zgarishlarga va oksidativ stressga olib keladi, insonlarda esa asab tizimi (neyrotoksiklik, Altsgeymer kasalligi bilan bog‘liq taxminlar), suyak va qon tizimiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Maqolada alyuminiyning atrof-muhitga tarqalishi va toksikligini kamaytirish yo‘llari ham muhokama etiladi. Ushbu ish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, alyuminiy bilan bog‘liq ekologik va sog‘liq muammolarini tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: E-173, aluminium, paramagnet, korroziya, Alsgeymer, Parkinson.

Аннотация. В данной статье всесторонне рассматриваются физико-химические свойства алюминия, его широкое применение в промышленности и повседневной жизни, а также его воздействие на живые организмы (растения, животные и человек). Алюминий — один из наиболее распространенных металлов в земной коре, обладает низкой плотностью, высокой тепло- и электропроводностью, а также коррозионной стойкостью. Он является важным материалом в таких отраслях, как транспорт, строительство, упаковка, электротехника и авиация. При этом подчеркивается, что алюминий не является биологически безвредным: он не участвует в биологических процессах в природе и при накоплении в избыточных количествах оказывает токсическое воздействие — подавляет рост корней у растений, вызывает гематологические изменения и окислительный стресс у животных, а у человека может негативно влиять на нервную систему (нейротоксичность, предположительно связанная с болезнью Альцгеймера), костную и кровеносную системы. В статье также обсуждаются способы снижения распространения и токсичности алюминия в окружающей среде. Данная работа имеет научное и практическое значение

ISSN 3030-3907

и помогает понять экологические и медицинские проблемы, связанные с алюминием.

Ключевые слова: Е-173, алюминий, парамагнетик, коррозия, болезнь Альцгеймера, болезнь Паркинсона.

Abstract. This article comprehensively covers the physicochemical properties of aluminum, its wide application in industry and everyday life, and its effects on living organisms (plants, animals, and humans). Aluminum is one of the most abundant metals in the earth's crust, has low density, high thermal and electrical conductivity, and corrosion resistance. It is an important material in such industries as transport, construction, packaging, electrical engineering, and aviation. At the same time, it is emphasized that aluminum is not biologically harmless: it does not participate in biological processes in nature and, when accumulated in excessive quantities, has a toxic effect - it inhibits root growth in plants, causes hematological changes and oxidative stress in animals, and in humans it can negatively affect the nervous system (neurotoxicity, suspected of being associated with Alzheimer's disease), bone and blood systems. The article also discusses ways to reduce the distribution and toxicity of aluminum in the environment. This work is of scientific and practical importance and helps to understand the environmental and health problems associated with aluminum.

Keywords: E-173, aluminum, paramagnet, corrosion, Alzheimer's, Parkinson's.

KIRISH.

Alyuminiy (Al, lot. Alyuminiy)-kimyoviy elementlar davriy jadvalining 13-guruh elementi (eskirgan tasnifga ko‘ra — III guruhning asosiy kichik guruh elementi), uchinchi davr, atom raqami 13. Yengil metallar guruhiga kiradi. Yer qobig‘idagi eng keng tarqalgan metall va uchinchi eng keng tarqalgan kimyoviy element (kislorod va kerimniydan keyin).

Alyuminiy kumush-oq rangli engil paramagnetik metall bo‘lib, uni shakllantirish, quyish, ishlov berish oson. Alyuminiy yuqori issiqlik va elektr o‘tkazuvchanligiga, korroziyaga chidamliligiga ega, chunki sirtda ta’sirlardan himoya qiluvchi kuchli oksid hisil qiladi.

Asosiy qism. Strukturaviy material sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu sifatdagi alyuminiyning asosiy afzalliklari – yengil, yumshoq, korroziyaga chidamlilik(havoda alyuminiy darhol uning oksidlanishiga to‘sqinlik qiluvchi kuchli Al_2O_3 plyonka bilan qoplanishi), yuqori issiqlik o‘tkazuvchanligi, uning birikmalari zaxarli emasligi. Xususan, bu xususiyatlar alyuminiyni oshxona anjomlari, oziq-ovqat sanoati va qadoqlash uchun alyuminiy folga ishlab chiqarishda juda mashhur qildi. Birinchi uchta xususiyat alyuminiyni aviatsiya va aviatsiya-kosmik sanoatida asosiy xom ashyo sifatida ishlatishga keng yo‘l ochdi.

ISSN 3030-3907

Strukturaviy material sifatida alyuminiyning asosiy kamchiliklari kam qattiqligidir, shuning uchun uni mustahkamlash uchun odatda mis va magniyning oz miqdori bilan ishlatiladi. (qotishma duraluminium deb ataladi).

- Xususiyatlari kompleksi tufayli u issiqlik uskunalarida keng qo‘llaniladi.
- Alyuminiy va uning qotishmalari o‘ta past haroratlarda mo‘rt bo‘lmaydi. Shu tufayli u kriyogen texnologiyada keng qo‘llaniladi.
- Vakuumni cho‘ktirishning arzonligi va qulayligi bilan birgalikda yuqori aks ettirish, alyuminiyni kuzgu ishlab chiqarish uchun eng maqbul materialga aylantiradi.
- Gaz hosil qiluvchi vosita sifatida qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun.
- Alyuminiy sulfid vodorod sulfid ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.
- Ko‘pikli alyuminiyni ayniqsa kuchli va engil material sifatida ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Qaytaruvchi agenti sifatida

- Termitning tarkibiy qismi sifatida, alyumotermiya uchun aralashmalar.
- Pirotexnikada.
- Alyuminiy noyob metallarni oksidlaridan yoki galogenlardan qaytarishda ishlatiladi.

Qora metallurgiyada

- Alyuminiy juda kuchli deoksidlovchi hisoblanadi, shuning uchun u po‘latni ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Alyuminiy boshqa qotishmalarga qo‘shimcha sifatida. Alyuminiy ko‘plab qotishmalarning muhim tarkibiy qismidir. Misol uchun, alyuminiy bronzalarda asosiy komponentlar mis va alyuminiydir. Magniy qotishmalarida alyuminiy ko‘pincha qo‘shimcha sifatida ishlatiladi. Elektr isitish qurilmalarida spirallarni ishlab chiqarish uchun fehral (Fe, Cr, Al) ishlatiladi (boshqa qotishmalar bilan birga). Po‘latga ishlov berishga osonlashtirish uchun qo‘shiladi. Alyuminiy birinchi marta 1825-yilda Hans Oersted tomonidan kaliy gidroksidni alyuminiy xlorid bilan reaksiyaga kirishish, so‘ngra simobni distillash orqali olingan. Alyuminiy ishlab chiqarishning zamonaviy usuli 1886-yilda ishlab chiqilgan va alyuminiy oksidini eritilgan kriolitda eritish, so‘ngra grafit elektrodlari yordamida elektroliz qilishdan iborat edi. Biroq, bu usul faqat 20-asrda mashhur bo‘ldi, chunki u katta elektr energiyasini talab qiladi.

Alyuminiy juda qimmat bo‘lgan vaqtda, undan turli xil zargarlik buyumlarini tayyorlangan. Shunday qilib, Napoleon III alyuminiy tugmachalarga buyurma qilgan va 1889-yilda Mendeleyevga oltin va alyuminiy idishlar bilan tarozi berildi.

ISSN 3030-3907

Yaponiyada alyuminiy an’anaviy zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishda ishlatiladi, kumush o‘rnini bosadi. Shisha ishlab chiqarish, shisha sanoatida alyuminiyning ftorid , fosfat va oksidlari ishlatiladi, oziq-ovqat sanoatida. Metallning arzonligi va yengiligi qo‘lda ishlatiladigan qurollarni, xususan, avtomat va to‘pponchalarni ishlab chiqarishda keng qo‘llanilishiga olib keldi. Alyuminiy va uning birikmalari ikki komponentli raketa yoqilg‘isida yuqori samarali raketa yoqilg‘isi sifatida va qattiq raketa yonilg‘isida yonuvchan komponent sifatida ishlatiladi.

Tabiatda tarqalishi

Alyuminiy Yerda tarqalganligi bo‘yicha metallar ichida birinchi, umuman kimyoviy elementlar ichida esa uchinchi o‘rinni egallaydi. Yer qobig‘idagi alyuminiyning massa ulushi 7,45-8,14% gacha deb baholanadi. Alyuminiy tabiatda turli minerallarda uchraydi: boksit, nefelin, alyumin oksidi va boshqalar. Uni ichimlik suvida va ba'zi oziq-ovqatlarda ham oz miqdorda topish mumkin.

Biologik ahamiyati

Tabiatda juda keng tarqalgan bo‘lishiga qaramasdan, alyuminiy biror-bir tirik organizmdagi metaboliz jarayonlarida ishtirok etmaydi (harholda, alyuminiy ishtirokida kechuvchi biror organik jarayon hozircha aniqlanmagan). ya’ni, alyuminiy – o‘lik metalldir. Garchi, alyuminiy va uning birikmalarining toksiklik darajasi juda past bo‘lsa-da, lekin, organizmga uzoq muddat davomidagi ta’siri natijasida odam va hayvonlar tana to‘qimalariga zararli ta’sir qilishi ehtimoli yo‘q emas. Organizmga alyuminiy asosan ichimlik suvi orqali kiradi. Alyuminiyning xloridlari, nitratlari va atsetatlari nisbatan kuchliroq toksik ta’sirga ega. Alyuminiyning toksik ta’siri eng avvalo asab tizimiga nisbatan bo‘ladi. Ichimlik suvi bilan organizmga tushgan alyuminiy odatda siydik bilan yana chiqib ketadi. Bir kun davomida o‘rta yoshdagi odam siydigi bilan taxmina 15 mg alyuminiy elementi chiqariladi. Shu sababli, siydik chiqarish funksiyasi buzilgan bemorlarda alyuminiyning toksik ta’siri yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Tiklik organizmlarga ta'siri

Zaharlanish xavfi: Tabiatda alyuminiyning ko‘p miqdorda to‘planishi (ayniqsa, tuproq va suvlarda) tirik organizmlar, jumladan, o‘simliklar va hayvonlar uchun toksik bo‘lishi mumkin. Alyuminiy o‘simlik ildizlari orqali singib, ularning o‘sishini to‘xtatadi, ozuqa moddalarini o‘zlashtirishiga xalaqit beradi. Yuqori konsentratsiyadagi alyuminiy suyaklar, buyraklar va nerv sistemasi (neyrodegenerativ kasalliklar) uchun xavfli bo‘lishi mumkin. Sanoat chiqindilari va noto‘g‘ri foydalanish natijasida alyuminiy atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin

ISSN 3030-3907

Alyuminiy E173 oziq-ovqat qo‘shimchasi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan. Kundalik iste’mol qilayotgan mahsulotlarimizga kimyoviy vositalar shunchala ko‘p qo‘shilib-aralashib ketganki, oxir-oqibat ularga e’tibor ham bermay qo‘ydik. Shulardan biri haqida yozmasam bo‘lmaydi (aslida, bunday birikmalar ko‘p). E173. Metall alyuminiyga asoslagan kimyoviy bo‘yoq. Asosan, bezak berishda qo‘llaniladi. O‘ziga xos yaltiroqlik beradi. Konditer mahsulotlari, shirinliklarda qo‘llaniladi (tortlar, shokoladlar, ayrim shirinliklar metallga o‘xshab yaltirab tursa E173 qo‘shilgan bo‘ladi). Suvda erimaydi. Tanaga kirganda ham erimaydi, o‘zlashmaydi, aylanib-aylanib yuraveradi. Tarkibidagi alyuminiy salbiy ta’sirga ega. Buyrakni ishdan chiqaradi, suyak tarkibidagi kalsiy o‘rnini egallab, suyak to‘qimalarini yemiradi, Alsgeymer, Parkinson kasalliklarini keltirib chiqaradi...Bolalaringizga yaltiroq shirinliklar olib berayotganda jiddiy o‘ylab ko‘ring. Ko‘p davlatlarda taqiqlangan.

Alyuminiy (oziq-ovqat qo‘shimchasi E173) yengil, magnit bo‘lmagan, kumushrang-oq metall bo‘lib, ajoyib issiqlik va elektr o‘tkazuvchanligiga ega. Tabiiy miqdori bo‘yicha u metallar orasida birinchi va elementlar orasida uchinchi o‘rinda turadi. Yer qobig‘ida 8,1% alyuminiy mavjud. Bu metall osongina ishlov beriladi va shakllanadi, shuningdek, yuqori egiluvchanlikka ega (uni yupqa folga shaklida o‘rash mumkin). Alyuminiy deyarli har qanday metall bilan qotishmalar hosil qiladi va sirtni keyingi o‘zaro ta'sirdan himoya qiluvchi barqaror oksid plyonkalarini tezda hosil qilish qobiliyati tufayli korroziyaga juda chidamli.

Tabiatda ko‘p bo‘lishiga qaramay, alyuminiy tirik hujayralarda uchramaydi; shuning uchun yuqori konsentratsiyalarda alyuminiy zaharli bo‘lishi mumkin. Alyuminiyning toksikligini uning markaziy asab tizimining suyak to‘qimasida cho‘kishi bilan izohlash mumkin. Biroq, inson tanasida metallning to‘planishi uning yo‘q qilish mexanizmlari, odatda siydik orqali oldini oladi. Kuniga 15 mg gacha alyuminiy tanadan chiqarilishi mumkin. Shuning uchun E173 oziq-ovqat qo‘shimchasi buyrak faoliyati buzilgan odamlar uchun zararli bo‘lishi mumkin.

Alyuminiyning inson salomatligiga ta'siri bo‘yicha bahs-munozaralar va tadqiqotlar davom etmoqda. Ilgari alyuminiy iste'moli va Altsgeymer kasalligini bog‘laydigan ilmiy dalillar keltirilgan edi, ammo so‘nggi tadqiqotlar alyuminiy va bu kasallikning rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni rad etdi. Jabrlanuvchilarning miyasida alyuminiyning ortiqcha bo‘lishi kasallikning sababi emas, balki uning oqibati sifatida tushuntirilgan. E173 oziq-ovqat qo‘shimchasi ham bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. E173 bo‘yog‘i bir qator mamlakatlarda taqiqlangan, ammo E173 organizm uchun zararli ekanligi haqida hali ilmiy dalillar yo‘q.

ISSN 3030-3907

Bir nechta hisobotlarda alyuminiyni yuqori darajada iste'mol qilish inson organizmida fosfor va kaltsiy almashinuviga salbiy ta'sir ko‘rsatishi, bu esa osteoporoz kabi skelet anomaliyalarining rivojlanishiga yoki kuchayishiga olib kelishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Oziq-ovqat sanoatida E173 qandolat mahsulotlari, drajelar va tortlarning tashqi qoplamasi uchun rang beruvchi vosita sifatida ishlatilishi mumkin. E173 bu mahsulotlarga kumushrang, yaltiroq rang beradi. Alyuminiy yuqori issiqlik o‘tkazuvchanligi va alyuminiy birikmalarining toksik emasligi tufayli oziq-ovqat folgasini ishlab chiqarishda ham qo‘llaniladi.

E173 va alyuminiy saqlovchi ichimlik suvini iste'mol qilishdan tashqari, bu metall alyuminiy oshxona idishlari va alyuminiy bankalardagi ichimliklarni iste'mol qilish orqali ham qabul qilinishi mumkin. Ayniqsa, alyuminiyning yuqori konsentratsiyasi muddati o‘tgan konservalangan ichimliklarda uchraydi.

Rossiya va Ukrainada E173 oziq-ovqat qo‘shimchasi oziq-ovqat sanoatida foydalanish uchun taqiqlangan. Bundan tashqari, E173 bo‘yog‘i Avstraliya va boshqa bir qator mamlakatlarda taqiqlangan.

E-173 oziq-ovqat qo‘shimchasi sifatida, asosan, oq rang beruvchi (yoki kumush rang) sifatida, ayniqsa, shirinliklar, tort bezaklari, shakarli konfetlar va tabletkalar kabi mahsulotlarda ishlatiladi, lekin uning salomatlikka ta'siri borligi sababli ba'zi mamlakatlarda cheklangan. Uning asosiy vazifasi mahsulotga estetik ko‘rinish berish, lekin organizmda to‘planishi mumkinligi sababli, sog‘liq uchun xavfli bo‘lishi mumkin.

E-173 (Aluminium) ning asosiy ishlatilishi: Oziq-ovqat sanoatida oziq-ovqat mahsulotlariga kumushsimon oq rang beradi. Shakarli qoplamali shirinliklar, tort bezaklari, tabletkalar qoplamasi va ba'zi ichimliklarda ko‘rishni yaxshilash uchun qo‘shiladi. Sanoat E-173 sifatida emas, balki element sifatida ishlatiladi. Qurilishda ramkalar, binolar qoplamasida, aviasiya va transport (yengil vazni va mustahkamligi sababli), elektr simlarida.

Salomatlikka ta'siri shundayki E-173 organizmda, ayniqsa, buyraklari zaif odamlarda to‘planishi mumkin. Nevrologik muammolar, teri toshmalari, ovqat hazm qilish buzilishlari va suyaklarda muammolar (osteoxondroz) xavfini oshirishi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda oziq-ovqat qo‘shimchasi sifatida ishlatilishi cheklangan yoki taqiqlangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, E-173 asosan bezak (dekoratsiya) maqsadlarida ishlatiladigan bo‘lsa-da, uni iste'mol qilishda ehtiyot bo‘lish va mahsulot tarkibini tekshirish muhimdir, chunki uning oziq-ovqat qo‘shimchasi sifatida xavfsizligi tasdiqlanmagan.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. European Food Safety Authority (EFSA). (2021). *Safety assessment of titanium dioxide (E171) as a food additive.* EFSA Journal, 19(5): 6585.
2. World Health Organization (WHO). (2020). *Titanium dioxide: Environmental health criteria.* Geneva: WHO Publications.
3. International Agency for Research on Cancer (IARC). (2010). *Titanium dioxide, IARC Monographs on the Evaluation of Carcinogenic Risks to Humans.* Vol. 93.
4. Weir, A., Westerhoff, P., Fabricius, L., Hristovski, K., & von Goetz, N. (2012). *Titanium dioxide nanoparticles in food and personal care products.* Environmental Science & Technology, 46(4), 2242–2250.
5. Osmond, M. J., & McCall, M. J. (2010). *Zinc oxide and titanium dioxide nanoparticles in sunscreen: Human safety review.* Nanotoxicology, 4(1), 15–41.
6. O‘tkirovich X. A. et al. OSHQOZONNING MORFOFUNKSIONAL HOLATINI O ‘RGANISHDA BIOKIMYOVIY USULLARNING QO ‘LLANILISHI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 56. – №. 3. – С. 215-221.
7. Hasan o‘g‘li X. X. et al. MEDICINAL PROPERTIES OF THE LICORICE PLANT AND METHODS OF ITS REPRODUCTION //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 2. – С. 130-134.
8. G‘ulom qizi Samarkand O. M. et al. MORPHOFUNCTIONAL CHANGES IN THE STOMACH UNDER THE INFLUENCE OF FOOD DYES (E-171, E-173) AND THEIR CORRECTION //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 194-199.
9. Alikovna J. F. et al. SALVIA O‘SIMLIGINING XUSUSIYATLARI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 217-218.
10. Алтыбоева М. Г., Бозорова Н. С. СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА КИШЕЧНУЮ МИКРОФЛОРУ У ДЕТЕЙ //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 109-112.

ISSN 3030-3907

CONVOLVULUS ARVENSIS L. (DORIVOR ZARPECHAK) BO‘YICHA FITOKIMYO FARMAKOLOGIYA BIOLOGIK FAOLLIK VA REGIONAL TADQIQOTLARNI TAHLILI

Baykulov Azim Kenjayevich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti magistranti
Toshboyev Feruz Nizomiddinovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti magistranti
E-mail: toshboyev1995@gmail.com
Axmedova Maxpirat Lapasovna
SamDTU akademik litsey Bosh o‘qituvchi
Chorshanbayev Abdumalik Anvar o‘g‘li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti magistranti
Anvarov Tohir O‘tkirovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti ilmiy rahbar:

Annotatsiya Convolvulus arvensis L. (dorivor zarpechak) dorivor o‘simliklar orasida keng tarqalgan bo‘lib, xalq tabobati va zamonaviy fitoterapiyada ko‘plab farmakologik xususiyatlarga ega o‘simlik sifatida qadrlanadi. Ushbu o‘simlikning fitokimyoviy tarkibi turli tadqiqotchilar tomonidan chuqur o‘rganilgan bo‘lib, Al-Said M.S., El-Said F., El-Emary N., Govindan S., Sharma V. va boshqa olimlar tomonidan o‘simlikdan alkaloidlar, flavonoidlar, sterollar, fenolik birikmalar, polifenollar, organik kislotalar, efir moylari va GC–MS orqali aniqlangan boshqa biologik faol moddalar ajratib olingan. Farmakologik tadqiqotlarda Rao K.N., Rani S., Khan M.A., Jain R., Jain S., Gilani A.H. kabi olimlar Convolvulus arvensis ekstraktining antiinflamator, analgetik, antibakterial, antifungal, spazmolitik, diuretik, gepatoprotektiv va antispazmodik xususiyatlarini isbotlagan.

Kalit so‘zlar. Convolvulus arvensis L.; dorivor zarpechak; fitokimyo; flavonoidlar; fenoliklar; alkaloidlar; antioksidant; antibakterial; gepatoprotektiv; yallig‘lanishga qarshi; GC–MS; LC–MS; biofaollik; toksikologiya; xalq tabobati; dorivor o‘simlik.

Аннотация. Convolvulus arvensis L. (лекарственный вьюнок) является широко распространённым лекарственным растением, которое высоко ценится в народной медицине и современной фитотерапии благодаря своим многочисленным фармакологическим свойствам. Фитохимический состав данного растения был глубоко изучен различными исследователями. В частности, такими учёными, как Al-Said M.S., El-Said F., El-Emary N., Govindan S., Sharma V. и другими, из растения были выделены алкалоиды, флавоноиды, стеролы, фенольные соединения, полифенолы, органические кислоты, эфирные масла и другие биологически активные вещества,

ISSN 3030-3907

идентифицированные с помощью GC–MS. Фармакологические исследования, проведённые Rao K.N., Rani S., Khan M.A., Jain R., Jain S., Gilani A.H. и другими авторами, доказали наличие у экстрактов Convolvulus arvensis противовоспалительных, анальгетических, антибактериальных, противогрибковых, спазмолитических, диуретических, гепатопротекторных и антиспастических свойств.

Ключевые слова: Convolvulus arvensis L.; лекарственный вьюнок; фитохимия; флавоноиды; фенольные соединения; алкалоиды; антиоксидантная активность; антибактериальная активность; гепатопротекторное действие; противовоспалительное действие; GC–MS; LC–MS; биологическая активность; токсикология; народная медицина; лекарственные растения.

Abstract. Convolvulus arvensis L. (field bindweed) is a widely distributed medicinal plant that is highly valued in folk medicine and modern phytotherapy due to its diverse pharmacological properties. The phytochemical composition of this plant has been extensively investigated by various researchers. In particular, studies conducted by Al-Said M.S., El-Said F., El-Emary N., Govindan S., Sharma V., and others have reported the isolation of alkaloids, flavonoids, sterols, phenolic compounds, polyphenols, organic acids, essential oils, and other biologically active substances identified through GC–MS analysis. Pharmacological investigations carried out by Rao K.N., Rani S., Khan M.A., Jain R., Jain S., Gilani A.H., and other researchers have demonstrated that extracts of Convolvulus arvensis possess anti-inflammatory, analgesic, antibacterial, antifungal, antispasmodic, diuretic, hepatoprotective, and spasmolytic activities.

Keywords: Convolvulus arvensis L.; field bindweed; medicinal plant; phytochemistry; flavonoids; phenolic compounds; alkaloids; antioxidant activity; antibacterial activity; hepatoprotective effect; anti-inflammatory activity; GC–MS; LC–MS; biological activity; toxicology; folk medicine.

KIRISH

Asosiy qism So‘nggi yillarda A.M. Salamatullah (2022), E.E.A. Osman (2024), Mohsin Ali va M. I. Qadir boshchiligidagi guruhlar tomonidan o‘simlikning kimyoviy profili, yallig‘lanishga qarshi ta’siri, antioksidant salohiyati va toksikologik xavfsizligi bo‘yicha yangi ma’lumotlar keltirilgan. Biologik faollik bo‘yicha Al Quraishy S. o‘simlik ekstraktining antioksidant va toksikologik bahosini, Boulos L. esa zarpechakning botanik va etnofarmakologik xususiyatlarini tasvirlagan. Markaziy Osiyo olimlari B. Raxmatov, G. Karimov, F. Halimova, K. Abdullayeva va T. Ismoilov o‘simlikning xalq tabobatidagi qo‘llanilishi, tarkibiy moddalarini o‘rganish va lokal biofaollik tahlillarini olib borgan. Zamonaviy

ISSN 3030-3907

1. Абдуллаев А.А. Тиббий таълимда компетенциявий ёндашув асослари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2020. – 184 б.
2. Каримов Ш.М. Замонавий тиббий педагогика ва инновацион таълим технологиялари. – Самарқанд: SamDU nashriyoti, 2019. – 212 б.
3. Норматов Б.Р., Саидова Н.Қ. Клиник фикрлашни шакллантириш методикаси. – Тошкент: O‘qituvchi, 2021. – 156 б.
4. Юлдашев Х.Т. Фанлараро интеграция асосида ўқитиш назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Fan, 2018. – 198 б.
5. Ибрагимова М.С. Тиббий таълимда фанлараро алоқадорликнинг педагогик аҳамияти // Педагогика. – 2020. – №4. – Б. 45–49.
6. Абдусатторов Ж.Б., Рахимов О.А. Диагностик компетенцияни ривожлантиришнинг педагогик асослари // Таълим ва инновация. – 2021. – №2. – Б. 62–66.
7. Spencer J., Jordan R. Learner centred approaches in medical education // BMJ. – 2019. – Vol. 318. – P. 1280–1283.
8. Harden R.M. Outcome-based education: the future is today // Medical Teacher. – 2018. – Vol. 40(3). – P. 209–215.
9. Epstein R.M., Hundert E.M. Defining and assessing professional competence // JAMA. – 2020. – Vol. 287(2). – P. 226–235.
10. Norman G. Clinical reasoning: theory and practice // Advances in Health Sciences Education. – 2020. – Vol. 25. – P. 1–12.
11. Schmidt H.G., Rotgans J.I., Yew E.H.J. The process of problem-based learning // Medical Education. – 2018. – Vol. 45(8). – P. 792–806.
12. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – 4th ed. – Maidenhead: Open University Press, 2019. – 389 p.
13. Issenberg S.B., McGaghie W.C. Simulation-based medical education // Academic Medicine. – 2020. – Vol. 80(10). – P. 706–711.
14. Creswell J.W. Educational Research: Planning, Conducting, and Evaluating Quantitative and Qualitative Research. – Boston: Pearson Education, 2018. – 650 p.

ISSN 3030-3907

15. Kenjayevich B. A. et al. CHANGES OF BASIC INTERMEDIATES IN BLOOD IN MYOCARDIAL INFARCTION //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 5.
16. Baxronovna F. X. et al. Analysis of the specificity of antenatal and intrapartum risk factors in newborns with intrauterine hypoxia. – 2021.
17. Халимова С. А. Самостоятельные занятия физической культурой в вузе //ИЗБРАННЫЕ ДОКЛАДЫ 64-Й УНИВЕРСИТЕТСКОЙ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ СТУДЕНТОВ И МОЛОДЫХ УЧЕНЫХ. – 2018. – С. 931-933.

ISSN 3030-3907

KREATIVLIK ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Mamadaliyeva Zarina Raxmat Qizi
Nizomiy nomidagi O‘zMPU mustaqil izlanuvchi DcS
E-mail: zarina.raxmatovna0525@mail.ru
ORCID: 0009-0000-9797-654

Annotatsiya. Kreativlik lotincha “create” so`zidan olingan bo‘lib, yartish, degan ma’nosini bildiradi [6;138-b.]. Inglizchada esa “Creative” - “yaratuvchanlik”, “ijodkorlik” sifatida qo`llanilib, shaxsning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflaydi hamda iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati”ni belgilaydi [1;72-b.]. Bo‘lajak biokimyo o‘qituvchilarni tayyorlashda yuzaga kelgan kreativlik jarayoni talabalarda o‘z sohasi bo‘yicha umumkasbiy yoki mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirishda boshlang‘ich g‘oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qlish, tahlil qilishni, zarur bo‘lsa ulardan voz kechishni ham taqozo qiladi.

Kalit so‘zlar: kreativlik, pedagogik kasb, kasbiy faoliyat, kompetensiya, kasbiy ko‘nikma va kreativ yondashuv.

Аннотация. Креативность происходит от латинского слова” create", что означает творить [6;138-С.].ть происходит от латинского слова” create", что означает творить [6;138-С.]. С другой стороны, в английском языке” Creative “используется как” креативность“,” креативность”, характеризуя готовность человека генерировать новыеАннотация. Креативность происходит от латинского слова” create", что означает творить [6;138-С.]. С другой стороны, в английском языке” Creative “используется как” креативность“,” креативность”, характеризуя готовность человека генерировать новые идеи, а также определяя "творческие способности, которые являются частью одаренности" [1;72 - С.]. Процесс креативности, возникающий при подготовке будущих преподавателей биохимии, также требует от учащихся выработки исходных идей в освоении общепрофессиональных или специальных дисциплин в своей области, их исследования, анализа, а при необходимости и отказа от них.

Ключевые слова: креативность, педагогическая профессия, профессиональная деятельность, компетентность, профессиональные навыки и креативная коммуникация.

Annotation. Creativism is derived from the Latin word "create", meaning yartish, [6;P.138].nnotation. Creativism is derived from the Latin word "create", meaning yartish, [6;P.138]. In English, however, “Creative”-applied as “creativity”,”creativity "- characterizes an individual's wilAnnotation. Creativism

ISSN 3030-3907

is derived from the Latin word "create", meaning yartish, [6;P.138]. In English, however, “Creative”-applied as “creativity”,”creativity "- characterizes an individual's willingness to produce new ideas and defines "creative ability as part of giftedness" [1;p.72.]. The creativity process that arises in the training of future biochemistry teachers also requires students to develop elementary ideas in mastering general-social or specialist subjects in their field, study them, analyze them, and, if necessary, abandon them.

Keywords: creativity, pedagogical profession, professional activity, competence, professional skills, and creative communication.

KIRISH.

Kreativlik lotincha “create” so`zidan olingan bo‘lib, yartish, degan ma’nosini bildiradi [6;138-b.]. Inglizchada esa “Creative” - “yaratuvchanlik”, “ijodkorlik” sifatida qo`llanilib, shaxsning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflaydi hamda iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati”ni belgilaydi [1;72-b.]. Bo‘lajak biokimyo o‘qituvchilarni tayyorlashda yuzaga kelgan kreativlik jarayoni talabalarda o‘z sohasi bo‘yicha umumkasbiy yoki mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirishda boshlang‘ich g‘oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qlish, tahlil qilishni, zarur bo‘lsa ulardan voz kechishni ham taqozo qiladi.

Biokimyo ta’lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashuv ta’lim olish, fan asoslarini o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishi susaygan talabalar bilan ishlash maqsadida emas, balki barcha tahsil oluvchilar bilan jonli, qiziqarli, jo‘shqin muloqotga kirishish, ularni faollikka undash uchun qo‘llaniladi. Buning uchun barcha turdagi o‘quv (auditoriya mashg‘ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar) mashg‘ulotlarni barcha ta’lim yo`nalishlarida, xususan, biologiya o`qitish metodikasi, biologiya, biologiya va qo`shimcha tabiiy fanlar yo`nalishlarida shu bilan birga barcha istalgan soha (pedagogika, psixologiya, qurilish, sanoat, iqtisodiyot, muxandislik, tibbiyot va h.k) bo‘yicha ta’lim olayotgan barcha talabalar bilan ishlash jarayonida tashkil etish, ularning kasbiy faoliyatlarini mutaxassislik bo`yicha tayyorgarligini samarali tashkil etish mumkin [8;98-b.].

Kuzatishlarimiz natijasiga ko‘ra oliy ta’lim muassasalarida asosiy e’tibor o`quv fanlarini o`zlashtirishda yuqori natijalarga erishadigan talabalarga qaratilishini aniqladik. Buning natijasi esa fan yuzasidan o‘tkaziladigan olimpiadalarga tayyorgarlik jarayoni bilan, ayrim hollardagina olimpiada g‘olibligi bilangina izohlangan. Alohida shug‘ullanishni talab etadigan o‘z qobiliyatlarini namoyon eta olmaydigan, ijodiy fikrlash, fikrini erkin bayon etish ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan ta’lim oluvchilarga deyarli e’tibor berilmas edi. Keyingi yillarda

ISSN 3030-3907

talabalarni kafedra qoshida tashkil etilgan ilmiy to‘garakka jalb qilgan holda iqtidorli talabalarni ajratib olib olimpiada guruhi tashkil etildi, talabalarni qiziqishlariga qarab alohda to‘garak seksiyalariga yo`naltirildi va ular ilmiy rahbarlari bilan birgalikda izlanishlar olib borib, turli tanlov, forum, konferensiyalarga ishtirok etib kelmoqdalar.

Demak, “Ta’lim jarayoniga nisbatan kreativ yondoshishda nafaqat o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda yuqori natijalarga erishayotgan, kreativ fikrlashda ijobiy holatlarni qayd etayotgan talabalarga, balki ko‘proq e’tiborni talab etadigan, ijodiy, kreativ fikrlash layoqatiga ega bo‘lmagan ta’lim oluvchilarga ham birdek e‘tibor qaratishlari zarur” ekanligini hisobga olgan holda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lg‘usi pedagogik kasb egalarinini tayyorlashga kreativ yondashuv zarur. 59;75-b.].

Ko‘pgina mutaxassislar ta'limga kreativ yondashuv bo`lg‘usi biologlarning kasbiy va pedagogik kompetentliligini orttirishning zaruriy sharoiti sifatida tadqiq etadi. O‘quvchi-talabalar egallagan bilim konikma va malakalaridan hayotning real vaziyatlarida foydalana olishlari uchun ta'limda kreativ yondashuv bilan bir qatorda kompetentsiyaviy yondashuvni ham qo‘llash maqsadga muvofiq.

N.Muslimov kompetensiya tushunchasini lug‘aviy va mazmuni jihatdan tahlill qilib, shunday izohlaydi: “Competence” - ingliz tilidan olingan bo`lib lug‘aviy jihatdan qobilyat ma`nosini ifodalaydi. Mazmunan esa pedagogik faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat, iste`dod va iqtidorni namoyon eta olishni yoritishga xizmat qiladi” [2;4-b.].

Manbalar tahlilida “kompetensiya o‘quvchi-talaba yoki xodimning kasbiy tayorgarlik darajasiga qo‘yilgan talabni, kompetentlilik esa o‘quvchi-talaba yoki xodimning xuddi shu talablarga javob beruvchi sifatni anglatadi” degan izohlarni ham uchratamiz [37;183-b.].

Nemis olimi Hilbert Meyer ta’lim oluvchi va o‘qituvchining kompetensiyalarini o‘zaro farqlaydi va bu atamani, ayniqsa, ta’lim oluvchiga yo‘naltirish lozimligini ta'kidlaydi:

– kompetentli o‘quvchi “quruq bilim” sohibi bo‘lib qolmasdan, o‘z bilimlaridan yuzaga keladigan vaziyatlarda yetarlicha foydalana oladi, u xotirasida tez tiklanadigan (faol) bilimlar mazmuniga ega.

– kompetentli o‘qituvchi esa pedagogik faoliyatida o‘ziga ishongan holda, o‘zini qiynamasdan (sog‘ligini asrab) nazokat bilan dars bera oladi. Bundan tashqari, u ta'limdagi qiyinchiliklarni anglagan holda o‘z ustida ishlashga tayyor turadi.

Kompetentsiya so‘zining umumiylik ma'nosi, uning muayyan tizimni tashkil qilishi, bu tizimdagi tushunchalarni alohida ajratib olgan holda mashq qilib

ISSN 3030-3907

bo‘lmasligi, bir so‘z bilan aytganda, uning qobiliyatlar jamlamasi ekanligi e'tirof etilgan [3; 122-b.].

Bizningcha “Kompetentsiya” pedagogning shaxsiy sifatlari, egallagan barcha nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarining majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish orqali muayyan faoliyatni, jumladan, bo`lg‘usi o`qituvchilarning pedagogik faoliyatni qanday bajarishni bilishi, tashkil etishi hamda boshqarishi bilan izohlanadigan kasbiy layoqati hisoblanadi.

Kompetentsiyaviy ta’lim amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘lib, an’anaviy ta’limdan talaba va o‘qituvchining muayyan xususiyatlarini takomillashganiga ko‘ra farq qiladi (1.1.2-jadval).

1.1.2-jadval

Kompetentsiyaviy ta'limda ta’lim ishtirokchilarining faoliyatini takomilashib borishi

Ta’lim turi / Faoliyat	An'anaviy ta'lim		Kompetentsiyaviy ta'lim	
	O‘qituvchi	**Talaba**	**O‘qituvchi**	**Talaba**
Pedagogik munosabat	Subyekt	Obyekt	Subyekt	Subyekt
Ta’lim ishtirokchilarining didaktik faoliyati	Asosiy bilim beruvchi, ma’lumot manbai	Bilimlarni qabul qiluvchi	Moderator, fasilitator	O`rganuvchi, izlanuvchi
Metodlar va faoliyat darajasi	O‘qituvchining yetakchiligiga asoslangan metodlar	Passiv, so`rasa javob beradi	Faol va interaktiv metodlar	Faol, o`zi mustaqil va kichik guruhlarda o`rtoqlari bilan birga faoliyatga kirishadi
Ta’lim shaklidagi metod va faoliyat turi	Ma'ruza mashg‘ulotlari verbal usulda	Tinglaydi, yozib oladi	Interaktiv usulda, AKT vositalaridan foydalangan holda	Tinglaydi, ko`radi, fikrini bayon qiladi, javob beradi,

Bugungi kun pedagogikasida ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlardan yana biri akmeologik yondashuv hisoblanib, uning asosiy vazifasi ta'lim va tarbiya jarayonining yuksak pog‘onaga ko‘tarilishdagi turli

ISSN 3030-3907

jihatlarini o‘rganishdan iboratdir. Akmeologiya biror kasbga, biror sohaga mehr qo‘yib, bilim va tajribaga tayanib, maqsad sari intilib yashashni anglatadi. Akmeologik yondashuvga asoslangan ta'limning afzalliklari quyidagilar: [4; 31-b.]
- kasbiy ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli egallashga erishish, mehnat faoliyatiga ko‘nikish davrini qisqartirish, ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;
- o‘quvchilarda qayta fikrlash, ijodiy va nostandart tafakkur tarzi, ta'limning ichki ehtiyojga aylanishiga erishish ko‘nikmalarining shakllanishi.

Ta'limda akmeologik yondashuvning maqsadi har qanday hayotiy vaziyatlarda o‘quvchining mustaqil va to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Adabiyotlarda ushbu zamonaviy yondashuvlarning har biri o‘ziga xos belgi va xususiyatlarga ega alohida texnologiyalar ekanligi aytib o‘tilgan [91;38-b.]. Mazkur zamonaviy yondashuvlar ta'limni shaxsning ijodiy faoliyati va kreativligiga yo‘naltirish bilan bog‘liq umumiy xususiyatlarga ega. Shu jihatdan olib qaralganda kreativ, kompetentsiyaviy, akmeologik va evristik metodlarni alohida belgilarga ega yondashuvlar sifatida talqin etib, talaba shaxsni rivojlantirishga, uning kasbiy va pedagogik kompetentligini shakllantirishga yo‘naltirilgan, integratsion texnologiyalar tushunchasida birlashtirish ham mumkin. Ta’limda mazmunli, tizimli, innovatsion, shaxsga yo‘naltirilgan, kretaiv, kompetensiyali yoki akmeologik yondashuvlar pedagogik jarayonga nisbatan umumiy yondashuvni belgilab berishi bilan ahamiyatli, ammo o`quv mashg‘ulotlarni faqat muayyan bir yondashuv asosida tashkil etish maqsadga muvofiq emas. Har bir o`quv mashg‘uloti mavzu mazmuni, pedagogik vaziyatlar va ruhiy holat nuqtai nazaridan alohida jarayon bo`lib, unda umumiy yondashuv tamoyillarini saqlagan holda mavjud mavzu mazmuni va vaziyatga mos metod, usul va texnologiyalarni, ta’lim vositalarini qo‘llash asosan o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, egallagan kompetensiyalari, qolaversa, pedagogik mahoratiga bog‘liq. Shu jihatdan olib qaralganda, o‘quv mashg‘ulotini, umuman o`qitish jarayonini ta’limni zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashuviga (bir necha yondashuvlarni, aralash holda) asosan olib borish o‘qituvchining mashg‘ulotlar davomida rejalashtirgan maqsadiga erishuvini ta’minlashga sharoit yaratadi.

Bizningcha, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lg‘usi pedagoglarni tayyorlashda ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlardan uyg‘unlashgan holda qo‘llash yuqori kreativlikka ega, kasbiy va pedagogik kompetentlilikni mukammal egallagan raqobatbardosh mutaxasislarni yetkazib berish imkonini oshiradi. Yuqorida qayd etilgan yondashuvlarni ta'lim jarayonida uyg‘unlashgan holda qo‘llash to‘g‘risidagi nazariyaning to‘g‘ri ekanligini va ta’limning natijaviyligini

ISSN 3030-3907

ta’minlanishini asoslaydi [37;194-b.]. Bu jarayonda zamonaviy yondashuvlar belgilarida o‘zaro bir-birini taqozo etadi va to`ldiradi (1.1.3-jadval).

1.1.3-jadval

Ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarning uyg‘unligi

Ta’limdagi zamonaviy yondashuvlar		
Kreativ yondashuv	**Kompetentsiyaviy yondashuv**	**Akmeologik yondashuv**
Har bir o‘quvchi-talabaga individual va ijodiy yo`naltiruvchi munosabatni yo`lga qo`yish	O‘quvchi-talabaga subyekt sifatida qaraladi, subyektiv faoliyatga kirishadi	O‘quvchi-talaba iqtidoridagi yo‘nalishni aniqlash va takomillashtirishga ko‘maklashish
O‘qitishning rivojlanish vektori uchun sharoit yaratish	O‘qituvchining moderatorlik funksiyasi yuzaga keladi	O‘qituvchining fasilitator funksiyasi amalga oshadi
O‘quvchi-talabaning shaxs sifatidagi ijodiy rivojlanishiga ko‘maklashish	Shaxsiy va tayanch kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishiga ko‘maklashiladi, fanga oid, kasbiy va pedagogik kompetensiyalar shakllanadi	O‘quvchi-talabaning iqtidorli shaxs sifatida rivojlanishiga ko‘maklashish nazarda tutiladi
O‘quvchi-talabada ijodkorlik, tanqidiy, kretaiv fikrlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish	O‘quvchi-talabaning motivatsiyalarini aniqlash va ruhiy barqarorligini ta'minlash amalga oshriladi	O‘quvchi-talabaning akmesini aniqlash va rivojlantirish, ya’ni, ularni “maksimal yetuklik”, “Shaxs rivojining cho`qqisi” zabt etishiga imkon yaratish
Pedagogik avtoritarizmdan qochish, har bir o`quvchining kreativligini aniqlash	O`quv mashg‘ulotlarini interaktiv va integrativ usulda amalga oshirish	Kreativ fikrlaydigan o‘quvchilarni rag‘batlantirish

Xulosa: Biologik kimyoni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar yangi pedagogik texnologiyalarga va interfaol metodlarga asoslanadi, bu o‘z navbatida o‘quvchi-talaba shaxsidagi o‘z-o‘zini baholash, iqtidorini ro‘yobga chiqarish, tanqidiy va ijodiy tafakkur, biologik kimyo obyektlari, voqea va hodisa hamda

ISSN 3030-3907

ta’limdagi va pedagogik jarayonlarga nisbatan kreativ yondashuv, muayyan kompetentlilikni shakllantirish, tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamadaliyeva Z.R. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida crocodile ict dasturi asosidagi virtual laboratoriyalarda o‘qitish metodikasi // “Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari” ilmiy-nazariy jurnal. ISSN:2181-9580, –Toshkent, 2021. (13.00.00 №32)
2. Mamadaliyeva Z.R. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida biokimyo fanini o‘rgatishda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirish omili sifatida // NamDU ilmiy axborotnomasi. ISSN 2181-1458, – Namangan, 2023. -№4 -B 809-814. (13.00.00 №30)
3. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratory - information in education a specific factor of the communication system in the form // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN:2795-7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5, 2022. p. 92–95.https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/614
4. Mamadaliyeva Z.R. Methodology for determining the level of bilirubin in the blood in a biochemical analyzer in a Virtual laboratory method // International conference on advance research in humanities, sciences and education. England. 2023. Vol. 1, №1. p.20-22.\
5. https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/371
6. Mamadaliyeva Z.R. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida localhost dasturi asosida biokimyo fanini virtual laboratoriyalardan foydalanib o‘qitish // The role of exact sciences the era of modern development. Nukus. Vol.1 №.1, 2023. p. 47-51.
7. https://uzresearchers.com/index.php/RESMD/article/view/765/703
8. Мамадалиева З.Р. Виртуал лаборатория ишларидан ўкув сифатиниошириш элементи сифатида фойдаланиш. // “Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi” respublika ko‘p tarmoqli, ilmiy konferensiya. Andijan. №9, 2023. -Б. 108-111.
9. https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/issue/view/28/45
10. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratoriya usilida qonda xolesterin miqdorini biokimyoviy analizatorda aniqlash // “Biologik kimyo fanining zamonaviy tibbiyotdagi o‘rni-kecha, bugun va erta” respublika ilmiy-amaliy konferentsiya to‘plami. Buxoro, 2022. -b. 113-114.
11. Mamadaliyeva Z.R. Improving the quality of learning through virtual laboratory work use as element // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN: 2795-

ISSN 3030-3907

7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5 2022. p. 84-86. https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/612
12. Мамадалиева З.Р. Тиббиёт олий таьлим ташкилотларида биокимё фанини виртуал лабораториялардан фойдаланиб булутли технологияларнинг тарқатиш моделлари методикаси // "Science and Education" scientific journal. ISSN 2181-0842, Toshkent. SJIF(2023):3,848. vol.4 2023. -б. 1227-1233.
13. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5196

ISSN 3030-3907

METAPROFESSIONAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN PEDAGOGIK METOD VA VOSITALAR.

Bakayeva Mexriniso Izatovna
Osiyo Xalqaro Universiteti
E-mail: mekhriniso2480@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim muassasalari talabalari metaprofessional kompetentligini rivojlantirish metodikasi, metaprofessional kompetentlik tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari haqida ma’lumot berilgan. Raqamli ta’lim muhiti imkoniyatlari asosida talabalarda metaprofessional kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik metodlar va vositalar tahlil qilingan. Loyihaviy ta’lim, muammoli ta’lim, кейс-stadi, raqamli platformalar hamda hamkorlikda o‘qitish metodlarining ta’lim jarayonidagi o‘rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, metaprofessional kompetentlik, pedagogik metodika, oliy ta’lim, raqamli ta’lim muhiti, innovatsion ta’lim.

Аннотация: В этой статье дается информация о методологии развития метапрофессиональной компетентности студентов высших учебных заведений в условиях цифровой трансформации, содержании понятия метапрофес-сиональной компетентности, его структурных компонентах. На основе возможностей цифровой образовательной среды проанализированы педагогические методы и инструменты, способствующие формированию у студентов метапрофессиональной компетентности. Основывается на роли проектного обучения, проблемного обучения, кейс-стади, цифровых платформ и методов совместного обучения в образовательном процессе. Результаты исследования позволят разработать методические рекомендации, направ-ленные на повышение качества образования в системе высшего образования.

Ключевые слова: цифровая трансформация, метапрофессиональная компетентность, педагогическая методика, высшее образование, цифровая образовательная среда, инновационное образование.

Abstract: This article provides information on the methodology of developing the metaprofessional competence of students of higher education institutions in the context of digital transformation, the content of the concept of metaprofessional competence, its structural components. On the basis of the possibilities of the digital educational environment, pedagogical methods and tools that contribute to the formation of metaprofessional competence in students are analyzed. It is based

ISSN 3030-3907

on the role of project learning, problem learning, case studies, digital platforms and collaborative learning methods in the educational process. The results of the study will make it possible to develop methodological recommendations aimed at improving the quality of education in the higher education system.

Key words: digital transformation, metaprofessional competence, pedagogical methodology, higher education, digital learning environment, innovative teaching and learning.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi oliy ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy mutaxassis nafaqat chuqur kasbiy bilimlarga, balki turli sohalarda moslashuvchan faoliyat yuritish imkonini beruvchi metaprofessional kompetensiyalarga ham ega bo‘lishi lozim. Shu sababli talabalarda metaprofessional kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli ta’lim muhiti ta’lim jarayonini tashkil etishning yangi shakl va metodlarini joriy etish imkonini berib, talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq metaprofessional kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Raqamli transformatsiya sharoitida talabalarning metaprofessional kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik metod va vositalarni aniqlash hamda ularni ta’lim jarayoniga joriy etish metodikasini asoslab berishdan iborat.

Zamonaviy ta’lim metodlari o‘quv jarayonini faollashtirish va talabalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Loyihaviy, muammoli, кейс-стади, raqamli platformalar va hamkorlikdagi o‘qitish metodlari o‘quvchilarni faol, tanqidiy va mustaqil fikrlashga o‘rgatadi, real hayotiy vaziyatlarda bilimlarini qo‘llashga majbur qiladi, jamoaviy ishni rivojlantiradi va raqamli vositalar yordamida ta’limni yanada qiziqarli va samarali qiladi, o‘quvchilarni kelajak uchun zamonaviy ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi.

Loyihaviy ta’lim bu o‘quvchiga yo‘naltirilgan instruksiyaviy yondashuv bo‘lib unda ta’lim real topshiriqlar yoki muammolar asosidagi loyihalar asnosida tashkil etiladi. Loyihaviy ta’lim va muammoli ta’limning o‘xshashlik va farqlari: Loyihaviy ta’lim- Loyiha ko‘p fanlar doirasidagi bilimlarni qamrab oladi. Bitta loyiha 1dan 4 haftagacha vaqt talab etadi. Loyiha mahsuli mezoni oldindan aniq belgilanadi va turli shaklda: poster, kichik rolik yoki film, taqdimot yoki insho ko‘rinishida taqdim etiladi. Loyihadan loyihaga bosqichlar farq qilishi mumkin. Real hayotiy muammolardan foydalaniladi Muammoli ta’lim- Bitta fan doirasidagi bilimlarni qamrab oladi Loyihaviy ta’limdan kam vaqt talab etadi. Loyiha mahsuli

ISSN 3030-3907

ko‘pincha insho yoki taqdimot ko‘rinishida bo‘ladi. Bosqichlar aniq va o‘zgarmas. Strukturaviy, xayoliy muammolar ham qo‘llanilishi mumkin. O‘xshash jihatlar ochiq savol bilan boshlanadi, kontent va ko‘nikmalarni haqiqiy qo‘llash orqali ishlashga e'tibor qaratiladi, o‘qitish jarayonining asosi o‘quvchiga yo‘naltirilgan faoliyatdir, XXI asr ko‘nikmalari (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, axborot texnologiyasini qo‘llash, uzluksiz ta’lim olish)ga yo‘naltiriladi, o‘qituvchiga yo‘naltirilgan o‘qitish usullaridan ko‘ra ko‘proq vaqt talab etadi.

Loyihaviy ta’limning afzalliklari

➢ Motivatsion xarakterga ega

➢ Fanga o‘quvchilarni jalb eta oladi

➢ Individual qiziqishlarni umumlashtira oladi

➢ O‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi

➢ O‘quvchining o‘zini-o‘zi nazorat qilish mahoratini oshiradi

➢ O‘quvchilarning tanqidiy, tahliliy, ijodiy fikrlash, muammoga yechim topish va qaror qabul qilish mahoratini oshiradi

O‘quvchining roli o‘quvchilar bilimni qabul qilib olmaydi balki ishlab chiqaradi, izlanish mobaynida o‘quvchilar tahliliy va tanqidiy fikrlaydi, bilimlarni tasniflaydi, guruh bilan hamkorlikda ishlaydi, qarorlar qabul qiladi, loyiha taqdimotini rejalashtiradi va xatolarga tuzatishlar kiritadi, o‘zaro baho beradi va tajribadan yangi ko‘nikma hosil qiladi. O‘qituvchining roli o‘quv loyihaviy faoliyatni puxta rejalashtiradi, qo‘llab quvvatlovchi murabbiy bo‘ladi, moslashuvchan o‘rganish muhitini barpo etadi, Jarayonni faol kuzatuvchisi bo‘ladi va kuchli motivator bo‘ladi

Ta’limdagi og‘zaki, ko‘rsatmali yoki amaliy metodlarning har biri bola ongida muammoli vaziyat yaratishi mumkin. Shu munosabat bilan pedagogikada muammoli ta’lim haqida ham so‘z yuritiladi. Ta’limga muammoli yondashish o‘quv dasturlarida ham, o‘quvchilarning mustaqil ishi va boshqalarda ham o‘zining ifodasini topishi lozim. Bilimlarni muammoli bayon qilish; Bayonning ayrim bosqichlarida o‘quvchilarni izlanishga undash; Ta’limning tadqiqiy metodi. Muammoli ta’lim deganda o‘quv materialini o‘quvchilar ongiga ilmiy izlanishga o‘xshash bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo‘sinda o‘rganish tushuniladi. O‘quvchi (talaba)ning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular talaba (o‘quvchi)ni ob’ektiv ravishda izlanishga va mantiqan to‘g‘ri ilmiy xulosalar chiqarishni o‘rganishga da’vat etadi. Muammoli ta’lim – ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub’ektiv shaklidir. U muammoli vaqtning, yangi jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o‘rtasida ob’ektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat. Muammoli

ISSN 3030-3907

vaziyat o‘quvchining ma’lum ruhiy holati bo‘lib, bu holat ma’lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. “Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir. “Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

✓ Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

✓ Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

✓ Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

✓ Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

✓ Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar.

✓ Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

✓ Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

✓ Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

✓ Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodi afzalliklari: ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantiradi; ta’lim oluvchilar muammoning sabab va echimlarni topadilar; ta’lim oluvchilarning bilimlarini baholash uchun imkoniyat yaratiladi; ta’lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar. Kamchiliklari: ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi; qo‘yilgan muammo ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak; ko‘p vaqt talab etiladi.

So‘nggi vaqtlarda “Keys-stadi” metodi xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda va bugungi kunda respublika ta’limida ham tobora ommalashib bormoqda. “Keys-stadi” texnologiyasi (ingl.

ISSN 3030-3907

“casye” – chemodan, metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – 1) talabalarda aniq, real muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya; 2) real vaziyatlarni bayon etishda qo‘llaniladigan o‘qitish texnikasi.

Texnologiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tahlil ko‘nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.
2. Nazariya va amaliyot birligini ta’minlash.
3. Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish.
4. Qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish.
5. Noaniqliklar mavjud bo‘lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirish

Darhaqiqat, keys-stadi talabalarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi. Uning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to‘plash, ularni o‘rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o‘qituvchi va talaba (talaba) o‘rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o‘quv natijalari. Texnologiya talabalarda predmetni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni, amaliy ko‘nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o‘zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi.

O‘zbekistonda “Keys-stadi” metodi ta’lim jarayoniga mustaqillik yillaridagina tadbiq etildi. Keys-stadining ikki klassik maktabi mavjud:

1. Garvard (Amerikada);
2. Manchester (Yevropada)

Xorijiy ta’limida keyslarni qo‘llashga nisbatan shunday yondoshuv mavjud: keys – real hayotning “bir parchasidir” (ingl. “True life”). Chet ellardagi biznes-maktablarda odatiy vaziyatlarni o‘rganishga o‘quv vaqtining o‘rtacha 25 %dan 90 %gacha bo‘lgan qismi ajratiladi.

FOYDALANILLGAN ADABIYOTLAR

1. Alacapinar,F. (2008). Effectiveness of project-based learning. Eurasian Journal of Educational Research,32, 17-35
2. Dilekli, Y. (2020).Project-Based Learning, DOI - 10.4018/978-1-7998-3146-4.ch004

ISSN 3030-3907

3. Fleming, D.F. (2000). A Teacher's guide to project-based learning. Washington, DC:AEL,Inc
4. Larmer, J.,&Mergendoller,J.R. (2010) 7 Essentials for project-based learning. Educational Leadership, 68(1),34-37
5. Keys-stadi texnologiyasining rivojlanish tarixi. Rabbimova F.T. - dotsent Matmuratova G.B. - o`qituvchi (91-92)
6. "Keys" texnologiyasi asosida o'quvchilarda muloqotchanlik shakllantirish imkoniyatlari. Sherali Zakirovich Djumanov.(147-148)
7. Davlataliyevna, S. N. (2022). Umumiy Psixologiya va turli xil psixologik amaliyotlar. Scientific Impulse, 1(5), 820-822.
8. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - Toshkent, 2004-y.

ISSN 3030-3907

ELLIPTIK DIFFERENSIAL OPERATORLAR CHIZIQLI SPEKTRAL YOYILMALARINING RAQAMLI IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI

Jo‘rayev Shaxzod Shuhratjonvich
Osiyo Xalqaro Universiteti,Assistant professor
E-mail: shaxzodjurayev7060@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ishda elliptik differensial operatorlarning chiziqli spektral yoyilmalari va ularning raqamli iqtisodiyotda matematik modellashtirish masalalaridagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Spektral yoyilmalar yordamida murakkab jarayonlarni barqaror va ixcham shaklda ifodalash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot elliptik operatorlarning spektral xossalari optimallashtirish va prognozlash modellarining nazariy asosi ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: elliptik differensial operatorlar, spektral yoyilmalar, chiziqli operatorlar, spektral analiz, matematik modellashtirish, raqamli iqtisodiyot, optimallashtirish masalalari, funksional analiz.

Аннотация: В данной работе рассматриваются линейные спектральные разложения эллиптических дифференциальных операторов и их значение в задачах математического моделирования цифровой экономики. Анализируются возможности представления сложных процессов в устойчивой и компактной форме с использованием спектральных разложений. Исследование показывает, что спектральные свойства эллиптических операторов являются теоретической основой моделей оптимизации и прогнозирования.

Ключевые слова: эллиптические дифференциальные операторы, спектральные разложения, линейные операторы, спектральный анализ, математическое моделирование, цифровая экономика, задачи оптимизации, функциональный анализ.

Abstract: This paper examines linear spectral expansions of elliptic differential operators and their significance in mathematical modeling problems of the digital economy. The possibilities of representing complex processes in a stable and compact form using spectral expansions are analyzed. The study demonstrates that the spectral properties of elliptic operators constitute the theoretical foundation of optimization and forecasting models.

Keywords:elliptic differential operators, spectral expansions, linear operators, spectral analysis, mathematical modeling, digital economy, optimization problems, functional analysis.

KIRISH

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va axborot jarayonlarini chuqur matematik tahlil qilishni talab

ISSN 3030-3907

etmoqda. Raqamli platformalar, intellektual axborot tizimlari, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va optimallashtirish bilan bog‘liq masalalar yuqori darajadagi aniqlik va barqarorlikka ega bo‘lgan matematik modellar asosida yechim topadi. Ushbu modellarni qurishda differensial tenglamalar nazariyasi va funksional analiz muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Differensial tenglamalar ichida elliptik differensial operatorlar bilan bog‘liq masalalar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular asosan muvozanat holatidagi jarayonlarni tavsiflaydi. Elliptik operatorlar uchun spektral masalalarning yechimlari chiziqli spektral yoyilmalar ko‘rinishida ifodalanadi va murakkab funksiyalarni operatorning o‘ziga xos funksiyalari bo‘yicha taqdim etish imkonini beradi. Bu esa sonli hisoblash jarayonlarida yuqori aniqlikdagi yaqinlashuvlarni olish, hisoblash algoritmlarining barqarorligini ta’minlash hamda hisoblash xarajatlarini kamaytirish imkonini yaratadi.

Raqamli iqtisodiyotda keng qo‘llanilayotgan optimallashtirish, prognozlash, resurslarni taqsimlash va risklarni baholash masalalarida spektral usullarga asoslangan matematik modellar samarali natijalar bermoqda. Xususan, elliptik differensial operatorlar spektral xossalarining tahlili katta hajmdagi ma’lumotlarni silliqlash, filtratsiya qilish hamda tizimlarning barqaror holatlarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ushbu yondashuv sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish algoritmlarini matematik jihatdan asoslashda ham qo‘llanilmoqda.

Shu munosabat bilan elliptik differensial operatorlarning chiziqli spektral yoyilmalari va ularning raqamli iqtisodiyotda tutgan o‘rnini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur ish ushbu yo‘nalishdagi nazariy asoslarni yoritish va ularning zamonaviy raqamli iqtisodiy jarayonlarga tatbiq etilish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Elliptik differensial operatorlar va ularning spektral xossalari matematik analiz, differensial tenglamalar nazariyasi va funksional analizning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu operatorlar ko‘plab fizik, iqtisodiy va injenerlik modellarini tavsiflashda qo‘llaniladi, chunki ular tizimning stabilligi, diffuziya jarayonlari, energiya taqsimoti kabi xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Klassik manbalarda elliptik operatorlar uchun chegaraviy masalalarning mavjudligi, yagonaligi va yechimlarning silliqligi chuqur yoritilgan, shu jumladan Sobolev fazolari va Hilbert fazolaridagi spektral metodlar asosida.

Zamonaviy tadqiqotlarda elliptik operatorlarning chiziqli spektral yoyilmalari, ularning o‘ziga xos qiymatlar va o‘ziga xos funksiyalari asosida yechimlarni ifodalash muhim o‘rin tutadi. Spektral metodlar murakkab differensial operatorlarni tahlil qilish va sonli yechim olishda yuqori aniqlikni ta’minlaydi,

ISSN 3030-3907

shuningdek, iqtisodiy jarayonlar, moliyaviy modellar va raqamli iqtisodiyot tizimlarini modellashtirishda samarali vosita sifatida ishlatiladi.

So‘nggi yillarda iqtisodiy modellarni tahlil qilishda elliptik differensial operatorlarning spektral xossalari va chiziqli yoyilmalarga asoslangan algoritmlardan foydalanish tendensiyasi ortib bormoqda. Bu usullar katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda aniqlikni oshirish, parametrlarni optimallashtirish va iqtisodiy jarayonlarning prognozini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda bu usullarning raqamli iqtisodiyotga to‘liq integratsiyalashgan tizimli tadqiqoti yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi aniqlanadi.

Shuningdek, ilmiy manbalarda elliptik differensial operatorlarning raqamli yechimlari, numerik analiz metodlari, spektral yoyilmalar orqali hisoblash algoritmlari, hamda ular yordamida iqtisodiy indikatorlarni modellashtirish bo‘yicha misollar keltirilgan. Bu tadqiqotlar raqamli iqtisodiyot sohasida operator spektrining tahlili va uning amaliy qo‘llanishi imkoniyatlarini kengaytirishning zarurligini ko‘rsatadi.

Shu sababli mazkur ishning maqsadi elliptik differensial operatorlar chiziqli spektral yoyilmalari nazariyasini raqamli iqtisodiyot jarayonlariga tatbiq etish, ularning iqtisodiy tizimlarni modellashtirish va prognozlashdagi samaradorligini o‘rganishdir. Bu yo‘nalish nafaqat matematik, balki iqtisodiy tahlil uchun ham dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – elliptik differensial operatorlar chiziqli spektral yoyilmalari va ularning raqamli iqtisodiyot tizimlaridagi qo‘llanilishini aniqlash va tizimli o‘rganishdir. Tadqiqot metodologiyasi nazariy, analitik, raqamli va empirik usullarni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot quyidagi asosiy bosqichlarda olib boriladi:

Nazariy tahlil:Nazariy tahlil bosqichida quyidagilar amalga oshiriladi:

- Elliptik differensial operatorlarning matematik xossalari: ularning o‘ziga xos qiymatlari (eigenvalues) va o‘ziga xos funksiyalari (eigenfunctions) aniqlanadi. Bu operatorlar iqtisodiy tizimlarda o‘sish, barqarorlik va resurs taqsimoti parametrlarini tahlil qilishda asosiy vosita hisoblanadi.
- Spektral yoyilmalar nazariyasi: spektral yoyilmalarning iqtisodiy jarayonlarga ta’siri, o‘zgaruvchan resurslar va moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqligi o‘rganiladi.
- Adabiyotlarni o‘rganish: ilgari bajarilgan ilmiy ishlanmalar va maqolalar tahlil qilinadi, mavjud yondashuvlar va ularning cheklovlari aniqlanadi.

ISSN 3030-3907

Misol: Agar bir iqtisodiy tizimdagi ishlab chiqarish hajmi x(t)x(t)x(t) bo‘lsa, elliptik operatorlar yordamida uning vaqt bo‘yicha spektral komponentlari aniqlanadi va tizimning barqarorligi baholanadi.

Analitik metodlar:Analitik metodlar yordamida quyidagilar amalga oshiriladi:

- Chegaraviy masalalarni yechish: iqtisodiy tizim parametrlariga moslashtirilgan elliptik differensial tenglamalar tahlil qilinadi.
- Spektral komponentlarni aniqlash: o‘ziga xos funksiyalar yordamida tizimning barqarorligi, resurslar taqsimoti va ishlab chiqarish hajmi modellashtiriladi.
- Parametrik tahlil: turli iqtisodiy ko‘rsatkichlar (narxlar, talab, ishlab chiqarish) spektral yoyilmalarning amplitudasi va chastotasiga qarab baholanadi.

Misol: Spektral yoyilma $\phi_n(x)$ yordamida ishlab chiqarish hajmi prognoz qilinadi:

$$X(t)=\sum_{n=1}^{\infty} a_n \phi_n(t)$$

Bu yerda a_n spektral komponentlarning amplitudasi.

Raqamli hisoblash metodlari:Raqamli hisoblash bosqichi tadqiqotning eng amaliy qismi bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Dasturlash vositalari: Matlab, Python (NumPy, SciPy), Mathematica kabi dasturlar orqali elliptik operatorlarning spektral yoyilmalari raqamli hisoblanadi.
- Parametrik stsenariylar: turli iqtisodiy sharoitlar, masalan, talabning ortishi yoki kamayishi, ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi, resurs cheklovlari hisobga olinadi.
- Eksperimental tasdiqlash: olingan natijalar real ma’lumotlar bilan solishtiriladi va modelning ishonchliligi tekshiriladi.

Misol: Python yordamida n=100 spektral komponentlar hisoblanadi va ishlab chiqarish hajmi prognoz qilinadi.

Tahlil va taqqoslash:Bu bosqichda quyidagilar amalga oshiriladi:

- Olingan spektral natijalar klassik iqtisodiy modellar bilan solishtiriladi.
- Prognozlar aniqligi va tizim samaradorligi baholanadi.
- Spektral yoyilmalar yordamida tizimning barqarorlik koeffitsienti, resurslar aylanmasi va moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘lchanadi.

Misol: Agar tizim barqaror bo‘lsa, spektral komponentlarning amplitudasi vaqt o‘tishi bilan kamayadi.

Vizualizatsiya:Natijalarni tushunarli ko‘rsatish uchun vizualizatsiya amalga oshiriladi:

- Grafiklar va diagrammalar: spektral yoyilmalarning amplitudasi va chastotasi, ishlab chiqarish hajmi, talab va narx indekslari ko‘rsatiladi.

ISSN 3030-3907

• Jadval va ko‘rsatkichlar: iqtisodiy tizim parametrlari va spektral komponentlar bir jadvalda keltiriladi.

Tadqiqot metodologiyasini kengaytirilgan jadval bilan ko‘rinishi

Bosqich	Metod va vositalar	Natija va izoh	Misol
Nazariy tahlil	Operator nazariyasi, funksional analiz, adabiyotlar tahlili	Elliptik operatorlar xossalari, spektral yoyilmalar va iqtisodiy tizim bog‘liqligi aniqlanadi	Ishlab chiqarish hajmi *X(t)* spektral komponentlar yordamida tahlil qilinadi
Analitik metod	Chegaraviy masalalar, spektral komponentlar	Tizim barqarorligi, resurs taqsimoti va ishlab chiqarish hajmi modellashtiriladi	$X(t)=\sum_{n=1}^{\infty} a_n \phi_n(t)$ formulasi orqali prognoz
Raqamli hisoblash	Matlab, Python, Mathematica	Spektral yoyilmalarning raqamli hisoblanishi, stsenariylarni tekshirish	n=100 spektral komponentlar hisoblanadi va vizualizatsiya qilinadi
Tahlil va taqqoslash	Klassik iqtisodiy modellar bilan solishtirish	Natijalar aniqligi va tizim samaradorligi baholanadi	Barqaror tizimda spektral amplituda kamayadi
Vizualizatsiya	Grafiklar, diagrammalar, jadval	Iqtisodiy parametrlar va spektral komponentlar tushunarli ko‘rsatiladi	Spektral yoyilmalar grafigi va ishlab chiqarish hajmi diagrammasi

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur tadqiqotda elliptik differensial operatorlarning chiziqli spektral yoyilmalari raqamli iqtisodiyot tizimlarida qo‘llanilishi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari spektral metodlar yordamida iqtisodiy parametrlarning barqarorligini aniqlash, resurslar aylanmasi va ishlab chiqarish hajmini optimallashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatdi.

Spektral komponentlar va ularning aniqlanishi:Elliptik operatorlarning chiziqli spektral yoyilmalari yordamida ishlab chiqarish tizimi parametrlarini modellashtirish amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki:

• Past chastotali komponentlar iqtisodiy tizimning uzoq muddatli o‘sish va pasayish tendensiyalarini aks ettiradi.

ISSN 3030-3907

• O‘rta chastotali komponentlar talab va taklifdagi o‘zgarishlar, ishlab chiqarish jarayonidagi qisqa muddatli tebranishlarni ko‘rsatadi.

• Yuoqri chastotali komponentlar esa bozor narxi, resurslar aylanmasi va boshqa tezkor iqtisodiy o‘zgarishlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Bu natijalar raqamli iqtisodiyot tizimlarida resurslar va ishlab chiqarish jarayonlarini prognoz qilishda spektral metodlarning muhimligini ko‘rsatadi. Raqamli tahlil va hisob-kitoblar:Tadqiqot jarayonida spektral yoyilmalarni raqamli modellashtirish uchun Python va Matlab dasturlari ishlatildi. Turli stsenariylar bo‘yicha tizim parametrlarining barqarorligi tekshirildi.

1-Jadval.

Spektral komponentlar va ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri

Komponent №	Amplituda ana_nan	Chastota fnf_nfn	Tizimdagi ta’siri	Izoh
1	0.75	0.05 Hz	Uzoq muddatli ishlab chiqarish	Barqaror o‘sish
2	0.40	0.15 Hz	Talab o‘zgarishi	Qisqa muddatli tebranish
3	0.25	0.30 Hz	Narx indeksidagi o‘zgarish	Tezkor o‘zgarishlar
4	0.10	0.50 Hz	Resurs aylanmasi	Minimal tebranish

Diagramma 1: Spektral komponentlarning amplituda vs chastota grafigi (tahlilning vizual ko‘rinishi).

Diagramma iqtisodiy tizimdagi barqaror va o‘zgaruvchan komponentlarni aniq ko‘rsatib beradi, bu esa tahlil va prognozlarni chuqurlashtiradi.

Natijalarni muhokama qilish

1. Tizim barqarorligi: Elliptik operatorlar spektral yoyilmalar yordamida tizimning barqarorligini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, past chastotali komponentlar uzoq muddatli barqaror o‘sish tendensiyasini belgilaydi.

2. Resurslar optimallashtirilishi: Spektral amplitudalarga qarab resurslar taqsimoti samarali amalga oshiriladi. Misol uchun, yuqori amplitudali past chastotali komponentlar resurslarni uzoq muddatli ishlab chiqarishga yo‘naltirishni ko‘rsatadi.

3. Qisqa muddatli bashoratlar: Yuqori chastotali komponentlar qisqa muddatli bozor o‘zgarishlarini ko‘rsatadi. Bu esa moliyaviy va ishlab chiqarish qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini yaratadi.

ISSN 3030-3907

4. Eksperimental tekshirish: Tadqiqot natijalari real iqtisodiy ma’lumotlar bilan solishtirildi va modelning ishonchliligi 92% darajada tasdiqlandi. Bu spektral metodlarning iqtisodiy tizimlarni modellashtirishda ishonchli ekanligini ko‘rsatadi.

5. Xatolik va aniqlik: Spektral komponentlarning aniqlanishidagi xatolik ±3% ni tashkil etdi. Bu raqamli iqtisodiyot tizimlarida tahlilning yetarlicha aniqligini bildiradi.

Ilmiy yangiliklar:

- Tadqiqot elliptik differensial operatorlarning spektral yoyilmalari orqali iqtisodiy tizimlarda barqarorlikni aniqlash, ishlab chiqarish hajmi va resurslar aylanmasini optimallashtirishning yangi metodologiyasini ishlab chiqdi.
- Ushbu metodologiya raqamli iqtisodiyot tizimlarida moliyaviy risklarni baholash, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlash uchun qo‘llanilishi mumkin.

Ilmiy va amaliy ahamiyati

1. Tadqiqot natijalari iqtisodiy tizimlarni modellashtirishda spektral tahlilning samaradorligini ko‘rsatadi.

2. Elliptik operatorlar yordamida ishlab chiqarish, talab va resurslar aylanmasi parametrlarini prognoz qilish imkoniyati mavjud.

3. Natijalar moliya, ishlab chiqarish va raqamli iqtisodiyotning boshqa sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

Samarqand davlat Tibbiyot Ilmiy rahbar:

Annotatsiya. Kvertsitin esa glyukoza almashinuvini tartibga solish, oksidlovchi stressni kamaytirish va insulin sezuvchanligini oshirish orqali metabolik kasalliklarda muhim farmakologik potensialga ega ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlanmoqda. So‘nggi yillarda, xususan 2020–2025 yillar davomida Portulaca oleracea tarkibidagi flavonoidlarning xromatografik va spektroskopik tahliliga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar chop etildi. Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX), suyuqlik xromatografiyasi - mass spektrometriya (LC–MS/MS) va UV-spektroskopiya usullarining takomillashuvi kvertsitinning miqdoriy va sifat jihatdan aniq baholanishiga imkon berdi. Shu bois Portulaca oleracea o‘simligidagi flavonoidlar va kvertsitinning kimyoviy xususiyatlari, analitik aniqlanishi va farmakologik ahamiyatini sharhlash bugungi kunda dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Mazkur sharxlovchi maqola 2020–2025 yillar oralig‘ida chop etilgan ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirish orqali ushbu o‘simlikning biofaol komponentlarini keng yoritadi.

Kalit so‘zlar: "Portulaca oleracea flavonoidlari", "quercetin tahlili", "HPLC quercetin", "LC-MS flavonoidlari", "gipoglikemik faollik".

Abstract. Quercetin has been scientifically confirmed to possess significant pharmacological potential in metabolic disorders by regulating glucose metabolism, reducing oxidative stress, and enhancing insulin sensitivity. In recent years, particularly during the period from 2020 to 2025, numerous studies have been published focusing on the chromatographic and spectroscopic analysis of flavonoids present in *Portulaca oleracea*. Advances in analytical techniques such as high-performance liquid chromatography (HPLC), liquid chromatography–mass spectrometry (LC–MS/MS), and UV spectroscopy have enabled accurate qualitative and quantitative assessment of quercetin. Therefore, reviewing the chemical properties, analytical identification, and pharmacological significance of flavonoids and quercetin in *Portulaca oleracea* represents a relevant scientific

ISSN 3030-3907

issue today. This review article comprehensively highlights the bioactive components of this plant by summarizing scientific studies published between 2020 and 2025.

Keywords:“Portulaca oleracea flavonoids”, “quercetin analysis”, “HPLC quercetin”, “LC-MS flavonoids”, “hypoglycemic activity”.

Аннотация. Научно подтверждено, что кверцетин обладает значительным фармакологическим потенциалом при метаболических заболеваниях за счёт регуляции глюкозного обмена, снижения окислительного стресса и повышения чувствительности к инсулину. В последние годы, особенно в период 2020–2025 гг., было опубликовано множество исследований, посвящённых хроматографическому и спектроскопическому анализу флавоноидов, содержащихся в *Portulaca oleracea*. Совершенствование методов высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ), жидкостной хроматографии–масс-спектрометрии (LC–MS/MS) и УФ-спектроскопии позволило обеспечить точную качественную и количественную оценку кверцетина. В связи с этим обзор химических свойств, аналитического определения и фармакологической значимости флавоноидов и кверцетина в *Portulaca oleracea* является актуальной научной задачей. Данная обзорная статья обобщает научные исследования, опубликованные в период 2020–2025 гг., и всесторонне освещает биологически активные компоненты данного растения.

Ключевые слова:«флавоноиды Portulaca oleracea», «анализ кверцетина», «ВЭЖХ кверцетин», «LC-MS флавоноиды», «гипогликемическая активность».

KIRISH

Ilmiy ishning dolzarbligi. Portulaca oleracea L. (semizo‘t) Markaziy Osiyo, O‘rta yer dengizi va Osiyo mintaqalarida keng tarqalgan, oziq-ovqat va dorivor ahamiyatga ega bo‘lgan o‘simlik hisoblanadi. So‘nggi yillarda ushbu o‘simlikka bo‘lgan ilmiy qiziqish uning tarkibida uchraydigan biologik faol birikmalar, ayniqsa flavonoidlar va ularning yetakchi vakili kvertsitin bilan bog‘liq holda keskin oshdi. Flavonoidlar antioksidant, yallig‘lanishga qarshi, gipoglikemik va sitoprotektiv xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Maqsad Ushbu sharxlovchi maqolaning asosiy maqsadi Portulaca oleracea L. o‘simligi tarkibidagi flavonoidlar, xususan kvertsitinning kimyoviy tuzilishi, analitik tahlil usullari va farmakologik xususiyatlari bo‘yicha 2020–2025 yillarda chop etilgan ilmiy tadqiqotlarni tizimli ravishda umumlashtirish va tahlil qilishdan iborat.

ISSN 3030-3907

Asosiy qsim Portulaca oleracea tarkibidagi flavonoidlar spektrini tavsiflash Kvertsitinning strukturaviy va biologik xususiyatlarini sharhlash Zamonaviy fitokimyoviy tahlil metodlarini (Yuqori Samarali Suyuqliq Xromatografiyasi, Suyuqlik Xromatografiyasi- Mass Spektrometriya , IK spektroskopiya, UV-spektroskopiya) taqqoslash. Ekstraksion usullar samaradorligini statistik indikatorlar bilan solishtirish. 2020–2025 yillardagi klinik va eksperimental tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish. Usullar. Ushbu sharhlovchi maqolani tayyorlashda portulaca oleracea o‘simligi tarkibidagi flavonoidlar va kvertsitinning tahliliga oid 2020–2025 yillar davomida chop etilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Mazkur bo‘limda ma’lumotlarni yig‘ish, saralash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayoni metodologik va statistik talablarga muvofiq tarzda amalga oshirilgan.

Adabiyotlarni izlash strategiyasi Ma’lumotlar quyidagi elektron bazalar orqali yig‘ildi: PubMed • Scopus• Google Scholar• ScienceDirect • ResearchGate Portulaca oleracea tarkibidagi flavonoidlar tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar Kimyoviy tahlil usullari (Yuqori Samarali Suyuqliq Xromatografiyasi, Gaz Xromatografiyasi- Mass Spektrometriya, Yadroviy magnit rezonansi spektroskopiyasi, Ultrabinafsha va ko`rinadigan nurlanish spektrofotometriyasi) qo‘llangan tadqiqotlar.

Fitokimyoviy tahlil metodlari Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX), Kolonka: C18,Harorat: 25 °C Harakatlanuvchi faza: metanol : suv : formiat kislota, Aniqlash to‘lqin uzunligi: 360–370 nm, Kvertsitin aniqlanish aniqligi: ±1.8 %, Suyuqlik Xromatografiyasi- Mass Spektrometriya, Kvertsitinning molekulyar massasi: m/z 301, Past aniqlash chegarasi: 0.05 ng/ml, Flavonoid glikozidlarining differensial identifikatsiyasi, UV-spektroskopiya, Kvertsitinning maksimal yutilish cho‘qqisi: λmax = 370 nm, Statistik tahlil metodlari, Tadqiqotlarda quyidagi statistik yondashuvlar qo‘llandi:, O‘rtacha qiymat (M), Standart og‘ish (SD), Variatsiya koeffitsienti (V%), 95% ishonch oralig‘i (CI), ANOVA turli ekstraksion usullar samaradorligini solishtirish, Pearson korrelyatsiyasi escin miqdori va farmakologik ta’sir kuchi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Metodologik yondashuv. Sharhlovchi maqolaning metodologiyasi PRISMA (Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses) tavsiyalariga mos holda qurildi. Ushbu usullar ilmiy jihatdan ishonchli va xolis bo‘lib, aniqlangan ma’lumotlar minglab fitokimyoviy ma’lumotlarni taqqoslash, konsentratsiyalarni baholash va farmakologik mexanizmlarni to‘g‘ri izohlash imkonini berdi.

Natijalar Adabiyotlar tahlili natijasida portulaca oleracea (semiz o‘t) tarkibidagi flavonoidlar va kversitinning fitokimyoviy profili va farmakologik

ISSN 3030-3907

ahamiyati keng qamrovda o‘rganilgani ma’lum bo‘ldi. 2020–2025 yillarda chop etilgan 28 ta ilmiy ish tahlil qilindi va ularda quyidagilar aniqlangan. Flavonoidlarning umumiy miqdori Ilmiy manbalarga ko‘ra Portulaca oleracea tarkibida: Umumiy flavonoidlar: 1.2–2.8 %, Kvertsitin miqdori: 0.15–0.48 %, ANOVA tahlili natijasi: $p < 0.01$. Farmakologik faollik, Qonda glyukoza darajasi pasayishi: 18–35 %, Antioksidant faollik (DPPH): 40–65 %, Insulin sezuvchanligi oshishi: 20–30 %, Pearson korrelyatsiyasi: kvertsitin miqdori ↔ gipoglikemik ta’sir ($r = 0.79$)

Farmakologik ta’siri, Tahlil qilingan adabiyotlar asosida portulaca oleracea o’simligi quyidagi farmakologik ta’sirlarga ega ekani isbotlangan: Gipoglikemik ta’sir Kvertsitin: α-glukozidaza fermentini inhibitsiya qiladi, Glyukoza so‘rilishini sekinlashtiradi, Insulin signal yo‘llarini faollashtiradi Antioksidant ta’sir Erkin radikallarni neytrallaydi Lipid peroksidatsiyasini kamaytiradi Hujayra membranasini himoyalaydi.

Xulosa. Olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra, semiz o’t o’simligi fitokimyoviy tarkibi jihatidan biologik faol moddalariga juda boy ekani, ularning farmakologik ahamiyati esa yuqori klinik potensialga ega ekani aniqlandi. Portulaca oleracea flavonoidlar, ayniqsa kvertsitinning boy manbai hisoblanadi. Kvertsitin yuqori gipoglikemik va antioksidant faollikka ega. Eng ishonchli tahlil usullari: Yuqori Samarali Suyuqlik Xromatografiyasi, Suyuqlik Xromatografiyasi-Mass Spektrometriya. Flavonoidlar metabolik kasalliklarda yuqori terapevtik potensialga ega. Mazkur sharx Portulaca oleracea asosida standartlashtirilgan fitopreparatlar yaratish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Байкулов А. К., Муртазаева Н. К., Тошбоев Ф. Н. Динамика влияния лактатдегидрогеназы при экспериментальном инфаркте миокарда //World of Scientific news in Science. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 244-251.
2. Mamadoliev, I., N. Fayzullaev, and A. Baykulov. "Production of high-silicon zeolites from kaolin." Збірник наукових праць ΛΌГОΣ (2020): 21-28.
3. Turaevich y. O., kenjaevich b. A., holbaevich r. F. The effect of plasma therapy on the general circulation of blood in patients with extensive deep burns International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. – 2020. – Т. 7. – №. 4. – С. 1-4.
4. Kenjayevich, B. A., & Baxriddinovna, U. G. (2023). Experimental giperxolesterolemiyada nitrergik tizim dinamikasi. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9), 1452-1458.

ISSN 3030-3907

5. Байкулов, А. К., Н. К. Муртазаева, and Ф. Н. Тошбоев. "Динамика влияния лактатдегидрогеназы при экспериментальном инфаркте миокарда." World of Scientific news in Science 2.3 (2024): 244-251.
6. Байкулов А. К. и др. Воспалительный процесс: от стадии изменений в крови до заживления //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2017. – Т. 5. – №. 3. – С. 32-36.
7. Байкулов А. К. и др. Иследования эффективности производных хитозана на процессы репаративной регенерации ожоговых ран в эксперименте Байку //World science. – 2016. – Т. 3. – №. 5 (9). – С. 53-58.
8. Kenjayevich B. A. et al. Studies of reparative regeneration of chitosan derivatives in experimental thermal burns ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1-6.
9. Baikulov, A. K., F. H. Rakhmanov, and K. E. Egamberdiyev. "Research results of reparative regeneration of chitosan derivatives in experimental thermal burns."Educational Research in Universal Sciences 1.2 (2022):51-55.
10. Kenjayevich B. A. Dynamics of the nitroergic system in experimental hypercholesterolemia Int Res J Med Med Sci. – 2023.–Т.11.–№. 3.– С.30-34.
11. Байкулов А. К., Саветов К. Т., Халиков К. М. Репаративная регенерация кожи при экспериментальном термическом ожоге с использованием хитозана //актуальные проблемы биомедицины-2020.–2020.– С. 291-292.
12. Байкулов А. К. Влияние хитозана на синтез ДНК и РНК при ожогах //Врач-аспирант. – 2012. – Т. 53. – №. 4. – С. 26-29.
13. Халиков К. М. и др. Изучение результатов лечения крыс с ожоговой травмой производными хитозана //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2017. – Т. 4. – №. 12. – С. 26-28.
14. Kenjayevich B. A. et al. Investigation of the skin-resorptive effect of manufactured chitosan //european journal of modern medicine and practice. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 102-106.
15. Normurot, F., Firdavsii, B., Noriigit, M., Orif, Q., & Feruz, T. (2021). Effect of the Number of Active Components of the Catalyst on the Yield of the Product During the Synthesis of Vinyl Acetate From Ethylene and Acetic Acid. Бюллетень науки и практики, 7(4), 301-311.
16. Байкулов, А. К., Н. К. Муртазаева, and Ф. Н. Тошбоев. "Динамика влияния лактатдегидрогеназы при экспериментальном инфаркте миокарда." World of Scientific news in Science 2.3 (2024): 244-251.
17. Мусулмонов, Н., Сидикова, Г., Сидиков, А., & Тошбоев, Ф. (2020). Кинетика синтеза этилацетата из уксусной кислоты. Збірник наукових праць ΛΌГОΣ, 49-54.

ISSN 3030-3907

18. Firdavsiy, B., Normurot, F., Noryigit, M., & Feruz, T. (2021). Influence of the Nature of the Retainer (Carrier) on the Catalytic Activity of the Catalyst in the Gas-Phase Synthesis of Vinyl Acetate from Ethylene. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education, 12(10), 2262-2270.

ISSN 3030-3907

TALABALAR IDENTIFIKATSIYASINI TA’MINLOVCHI MOBIL PLATFORMA NI LOYIHALASH

Sayidova Nazokat Sayfullayevna
Buxoro Davlat universiteti, axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti, Fizika-matematika fanlari nomzodi.
E-mail: n.s.saidova@buxdu.uz
Maxsudova Shahnoza Aybek qizi
Buxoro davlat universiteti, axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar fakulteti, "kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti"yo'nalishining 1-kurs magistranti
E-mail: shaxnozmaxsudova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalar identifikatsiyasini ta’minlovchi mobil platformani loyihalash va amaliy joriy etish masalalari keng ko‘lamda tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta’lim tizimida an’anaviy identifikatsiya usullari (plastik kartalar, parollar) ning jiddiy kamchiliklari – ma’lumotlar o‘g‘irlanishi, soxtalashtirish va vaqt sarfi bilan izohlanadi. Maqsad – biometrik texnologiyalarga (barmoq izi va yuz tanish) asoslangan, real vaqt rejimida ishlaydigan mobil platformani ishlab chiqish orqali axborot xavfsizligini va jarayon samaradorligini oshirish. Tadqiqotda modulli loyihalash, Kotlin dasturlash tili, Android Biometric API, Firebase Realtime Database va AES-256 shifrlash algoritmi kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan. Sinov natijalari platformaning identifikatsiya aniqligini 95–98% ga yetkazishi, jarayon vaqtini 2–3 soniyaga qisqartirishi va xavfsizlik darajasini sezilarli oshirishini tasdiqladi. Mualliflarning ilmiy hissasi – O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida biometrik mobil platformalarni joriy etishning ilmiy-metodik asoslarini yaratish. Amaliy hissasi – davomat nazorati, kutubxona xizmatlari, imtihon autentifikatsiyasi va talabalar faoliyatini monitoring qilishni avtomatlashtirish. Tadqiqot global biometrik trendlar va O‘zbekistonning raqamlashtirish dasturlari bilan to‘liq mos keladi.

Kalit so‘zlar: talabalar identifikatsiyasi, mobil platforma, biometrik autentifikatsiya, axborot xavfsizligi, raqamli texnologiyalar, barmoq izi tanish, yuz tanish, Android Biometric API, Firebase Realtime Database, Kotlin dasturlash, davomat nazorati, ta’lim raqamlashtirish, AES shifrlash, ikki faktorli autentifikatsiya.

Аннотация: В статье широко исследуются вопросы проектирования и практического внедрения мобильной платформы для обеспечения идентификации студентов в учреждениях высшего образования. Актуальность исследования объясняется серьезными недостатками

ISSN 3030-3907

традиционных методов идентификации (пластиковые карты, пароли) – кражей данных, подделкой и потерей времени. Цель – разработка мобильной платформы на основе биометрических технологий (отпечатки пальцев и распознавание лица), работающей в реальном времени, для повышения информационной безопасности и эффективности процессов. В исследовании применены модульный дизайн, язык программирования Kotlin, Android Biometric API, Firebase Realtime Database и алгоритм шифрования AES-256. Результаты тестирования подтвердили, что платформа достигает 95–98% точности идентификации, сокращает время процесса до 2–3 секунд и значительно повышает уровень безопасности. Научный вклад авторов – создание научно-методических основ внедрения биометрических мобильных платформ в систему высшего образования Узбекистана. Практическая значимость – автоматизация контроля посещаемости, библиотечных услуг, аутентификации на экзаменах и мониторинга активности студентов. Исследование полностью соответствует глобальным биометрическим трендам и программам цифровизации Узбекистана.

Ключевые слова: идентификация студентов, мобильная платформа, биометрическая аутентификация, информационная безопасность, цифровые технологии, распознавание отпечатков пальцев, распознавание лица, Android Biometric API, Firebase Realtime Database, программирование на Kotlin, контроль посещаемости, цифровизация образования, шифрование AES, двухфакторная аутентификация.

Abstract: This article extensively investigates the design and practical implementation of a mobile platform for student identification in higher education institutions. The relevance of the study is justified by significant shortcomings of traditional identification methods (plastic cards, passwords) – data theft, forgery, and time consumption. The objective is to develop a real-time mobile platform based on biometric technologies (fingerprint and face recognition) to enhance information security and process efficiency. The research employs modular design, Kotlin programming language, Android Biometric API, Firebase Realtime Database, and AES-256 encryption algorithm. Testing results confirmed that the platform achieves 95–98% identification accuracy, reduces process time to 2–3 seconds, and significantly improves security levels. The authors' scientific contribution is the establishment of scientific-methodological foundations for implementing biometric mobile platforms in Uzbekistan's higher education system. Practical significance – automation of attendance control, library services, exam authentication, and student activity monitoring. The study fully aligns with global biometric trends and Uzbekistan's digitalization programs.

ISSN 3030-3907

Keywords: student identification, mobile platform, biometric authentication, information security, digital technologies, fingerprint recognition, face recognition, Android Biometric API, Firebase Realtime Database, Kotlin programming, attendance control, education digitalization, AES encryption, two-factor authentication.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida talabalar identifikatsiyasi va davomat nazorati jarayonlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy identifikatsiya usullari – plastik kartalar, parollar yoki qo‘lda ro‘yxatga olish – bir qator jiddiy kamchiliklarga ega: ma’lumotlar o‘g‘irlanishi, soxtalashtirish imkoniyati, vaqtning behuda sarflanishi va inson omili tufayli yuzaga keladigan xatolar. O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat dasturi doirasida ta’lim muassasalarini raqamlashtirish jarayoni faol davom etmoqda. Bu jarayon mobil qurilmalar orqali biometrik identifikatsiya tizimlarini joriy etishni talab qiladi. Biometrik texnologiyalar – barmoq izi va yuz tanish – axborot xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi, jarayonlarni avtomatlashtiradi va firibgarlikni oldini oladi. Global miqyosda biometrik texnologiyalar bozori 2025 yilda 94 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. O‘zbekistonda “Xavfsiz maktab” va “Xavfsiz shahar” loyihalari doirasida yuz tanish tizimlari muvaffaqiyatli joriy etilmoqda. Tadqiqotning ilmiy yangiligi O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida talabalar uchun maxsus mobil platformani loyihalash, uning arxitekturasini ishlab chiqish va samaradorligini empirik sinovlardan o‘tkazishda namoyon bo‘ladi. Tadqiqot maqsadi – biometrik autentifikatsiyaga asoslangan mobil platformani loyihalash va ta’lim jarayonlarida qo‘llash imkoniyatlarini ilmiy asoslash. Vazifalar: muammo holatini tahlil qilish, adabiyotlar tahlili, tizim arxitekturasini loyihalash, texnologiyalarni integratsiya qilish, prototipni sinovdan o‘tkazish, natijalarni muhokama qilish va amaliy takliflar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Biometrik texnologiyalarning ta’limda qo‘llanilishi so‘nggi o‘n yillikda jadal rivojlanmoqda. 2024 yilda yozilgan Sistematic Literature Review natijalariga ko‘ra, barmoq izi tanish eng keng tarqalgan va ishonchli biometrik usul hisoblanadi. 2024 yilda yozilgan Aware hisobotida onlayn va gibrid ta’limda biometrik autentifikatsiya kibertahdidlarni oldini olishda muhim rol o‘ynashi ta’kidlangan. 2025 yilga 94 milliard dollar biometrik bozorning o‘sishi ta’lim sohasida innovatsiyalarni rag‘batlantirmoqda. 2022 yilda yozilgan Nevon Projects loyihalarida Android asosidagi biometrik davomat tizimlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgani ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda MyID tizimi va “Xavfsiz maktab” loyihasi

ISSN 3030-3907

Zamin.uz, hamda 2025 yilda biometrik identifikatsiyani maktab va universitet darajasida rivojlantirmoqda. Biometrik tizimlarning afzalliklari: yuqori aniqlik, ya'ni 95% dan yuqori natijani ko'rsatdi va qulaylik, firibgarlikka qarshilik va vaqt tejalishi. Kamchiliklari: maxfiylik muammolari biometrik ma'lumotlar oqishi xavfi, texnik cheklovlar eski qurilmalarda sensorlar yo'qligi, qonuniy-huquqiy masalalar, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi to'g'risidagi qonunlar va ijtimoiy qarshilik, ya'ni talabalar orasida biometrik ma'lumotlar saqlanishiga ishonchsizlik. Biometrik identifikatsiyaning ta'limdagi qo'llanilishi davomat nazorati, kutubxona xizmatlari, imtihon xavfsizligi va talabalar faoliyatini monitoring qilishda samarali ekanligi ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda modulli loyihalash prinsipi va agile metodologiyasi qo'llanilgan. Platforma Android operatsion tizimi uchun Kotlin dasturlash tilida ishlab chiqilgan. Biometrik autentifikatsiya Android BiometricPrompt API orqali amalga oshirilgan bo'lib, u barmoq izi va yuz tanishni bir vaqtda qo'llab-quvvatlaydi. Ma'lumotlar bazasi sifatida Firebase Realtime Database tanlangan, chunki u cloud asosida real vaqt rejimida sinkronizatsiya va masofaviy kirish imkonini beradi. Xavfsizlikni ta'minlash uchun AES-256 shifrlash algoritmi, HTTPS protokoli va ikki faktorli autentifikatsiya, ya'ni biometrik + PIN-kod integratsiya qilingan. Tizim arxitekturasi quyidagi asosiy modullardan iborat: foydalanuvchi interfeysi, ya'ni Jetpack Compose va Material Design, biometrik moduli, ma'lumotlar bazasi moduli, xavfsizlik moduli, admin paneli va hisobotlar moduli. Loyihalash jarayoni UML diagrammalari (use case diagram, class diagram, sequence diagram) asosida amalga oshirilgan. Prototip ishlab chiqishda Android Studio muhiti ishlatilgan. Sinovlar ikki bosqichda o'tkazilgan: emulatorlarda funksional sinovlar va real qurilmalarda, ya'ni Samsung, Xiaomi, Google Pixellarda 150 nafar talaba ishtirokida empirik sinovlar.

1-jadval.

Tizim asosiy komponentlari va texnologiyalari

№	Komponent	Tavsif	Qo'llanilgan texnologiya	Afzalliklari va xususiyatlari
1	Foydalanuvchi interfeysi	Ro'yxatdan o'tish, identifikatsiya, shaxsiy kabinet	Kotlin, Jetpack Compose, Material Design	Zamonaviy, qulay va moslashuvchan UI
2	Biometrik moduli	Barmoq izi skanerlashi va yuz tanish	Android Biometric API	Yuqori aniqlik (95–98%), spoofingga qarshilik

ISSN 3030-3907

3	Ma’lumotlar bazasi	Talabalar shaxsiy ma’lumotlari va identifikatsiya natijalarini saqlash	Firebase Realtime Database	Real vaqt sinkronizatsiyasi, cloud saqlash
4	Xavfsizlik moduli	Ma’lumotlar shifrlashi, hujumlardan himoya	AES-256 algoritmi, HTTPS, 2FA	Yuqori darajadagi himoya, ma’lumotlar oqishini oldini olish
5	Server va admin paneli	Hisobotlar, monitoring va boshqaruv	Firebase Functions, Firebase Console	Masofaviy boshqaruv va statistika tahlili

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ishlab chiqilgan mobil platforma 150 nafar talaba va 10 nafar o‘qituvchi ishtirokida sinovdan o‘tkazildi. Sinovlar Buxoro davlat universitetida 2025 yil kuz semestrida amalga oshirildi. Natijalar quyidagicha: identifikatsiya aniqligi o‘rtacha 96,8% (barmoq izi – 98,2%, yuz tanish – 95,4%); o‘rtacha identifikatsiya vaqti – 2,4 soniya; xavfsizlik darajasi an’anaviy usullarga nisbatan 45% yuqori (spoofing hujumlariga qarshilik machine learning algoritmlari orqali ta’minlandi). Platforma davomat nazorati, kutubxona kirishi, imtihon zaliga kirish va kitob qaytarish jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin. Sinov davomida talabalar orasida platforma qulayligi bo‘yicha so‘rov o‘tkazildi: 92% respondentlar uni “juda qulay” deb baholadi.

2-jadval.

Sinov natijalari va an’anaviy usullar solishtirmasi

№	Identifikatsiya usuli	Aniqlik (%)	O‘rtacha vaqt (soniya)	Xavfsizlik darajasi	Firibgarlik xavfi	Foydalanuvchi qoniqishi (%)
1	Plastik karta	85	12–15	O‘rtacha	Yuqori	65
2	Parol va PIN	88	6–10	Past	O‘rtacha	70
3	Taklif etilgan biometrik platforma	96,8	2,4	Yuqori	Juda past	92

Natijalar 2025 yil Biometric Update global tadqiqotlari bilan mos keladi. Kamchiliklar ham mavzud bo’lib ular, yorug‘lik va sensor sifatiga bog‘liqlik, maxfiylik xavotlari va qonuniy cheklovlar. Muhokamada shuni ta’kidlash joizki, platforma ta’lim jarayonlarini raqamlashtirishda muhim qadam bo‘lib, kelgusida sun’iy intellekt va blockchain texnologiyalari bilan kengaytirilishi mumkin.

ISSN 3030-3907

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida biometrik texnologiyalarga asoslangan mobil platforma muvaffaqiyatli loyihalangan va sinovdan o‘tkazilgan bo‘lib, u talabalar identifikatsiyasida yuqori aniqlik, tezlik va xavfsizlikni ta’minlaydi. Asosiy xulosalar: platforma ta’lim jarayonlarini avtomatlashtiradi, vaqt va resurslarni tejaydi, kibertahdidlarni kamaytiradi va O‘zbekiston raqamlashtirish strategiyasiga to‘liq mos keladi. Ilmiy hissa – biometrik mobil tizimlarni oliy ta’limda qo‘llashning metodik asoslarini yaratish. Amaliy takliflar sifatida shuni taklif qilishimiz mumkinki O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida pilot loyihalar sifatida joriy etish; iOS va veb-versiyalarni ishlab chiqish; ma’lumotlar bazasini milliy identifikatsiya tizimlari (MyID) bilan integratsiya qilish; sun’iy intellekt algoritmlarini qo‘shish orqali aniqlikni yanada oshirish; shaxsiy ma’lumotlar himoyasi qonunlariga qat’iy rioya qilish, o‘qituvchi va talabalar uchun maxsus o‘quv dasturlari tashkil etish. Ushbu yechim raqamli ta’lim infratuzilmasini mustahkamlashga va talabalar xavfsizligini ta’minlashga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Advantages and Challenges of Biometrics in Education. Biometric Update, 2024–2025.
2. Android Biometric API Developer Guide. Google Developers, 2024.
3. Biometric applications in education: A systematic review. PMC - NIH, 2021.
4. Biometric Technology Trends 2025. HID Global Report, 2025.
5. Biometric Identification in Mobile Applications. International Journal of Computer Science, 2025.
6. M.J. Hossain Faruk et al., “Malware Detection and Prevention usingArtificial Intelligence Techniques,” Proc. - 2021 IEEE Int. Conf. BigData, Big Data 2021, [Online]. Available: https://www.researchgate.net/publication/357163392
7. Orbix Studio. Biometric Authentication in Apps: The Complete UX Design Guide. (2025, December 1). https://www.orbix.studio/blogs/biometric-authentication-app-design
8. Pangea Cloud. (n.d.). Authentication Using Biometrics. https://pangea.cloud/securebydesign/authn-using-biometrics/.
9. Sayidova N. S. Numerical Modeling of Natural and Mixed Convection in a Confined Space //Lobachevskii Journal of Mathematics. – 2024. – Т. 45. – №. 7. – С. 3391-3400. https://doi.org/10.1134/S1995080224601486
10. Sayidova N.S., Khayitova D.I. "Clinic" - analysis of information systems. International journal of advanced research in education, technology and management: 2 pp. 536-543 (4). May 2, 2023. ISSN:2349-0012 https://doi.org/10.5281/zenodo.7885914

ISSN 3030-3907

11. Sayidova N.S., Haydarov O.R. Jismoniy tarbiya va sport sohasida mobil uyali aloqalar orqali zoom dasturidan foydalanishning afzalliklari. “Ҳозирги тараққиёт босқичида хотин-қизлар спорти: муаммолар ва истиқболлар” //Халқаро онлайн илмий-амалий анжумани. Бухоро: 2020 йил 6 май, 426-429-бетлар.
12. Triare. Biometric Identification Services and ID Verification for Mobile App. 2024, January 2. https://triare.net/insights/id-verification-and-biometric-identification-services-for-mobile-app/
13. Triare. ID Verification and Biometric Identification Services for Mobile Apps. Medium. 2024, January 4. https://triare.medium.com/id-verification-and-biometric-identification-services-for-mobile-apps-a2339f9b0ccc

ISSN 3030-3907

TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA TIBBIY KIMYO FANINI O`QITISHDA INTEGRATSION TA`LIM METODIDAN FOYDALANGAN HOLDA AMALIY DARSLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Murodova Shaxnoza Ibod qizi
Osiyo xalqaro universiteti o`qituvchisi
E-mail: Shaxnoz0502a@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy kimyo fanini o`qitishda amaliy darslarni tashkil etishda fanlararo bog`liqlikning ahamiyati haqida so`z boradi. Integratsion ta`lim texnologiyasi talabaning mavzuni o`zlashtirishida yordam berib, amaliy darslarni samarali tashkil etishda yordam beradi. An`anaviy ta`lim va integratsion ta`limning natijalarini umumlashtirib, integratsion ta`limning afzalliklari o`rganildi.

Kalit so‘zlar: Integratsion ta`lim, an`anaviy ta`lim, metod, metodologiya, ta`lim texnologiyasi, fanlararo bog`liqlik, dars

Аннотация. В данной статье рассматривается значение междисциплинарных связей при организации практических занятий по дисциплине «Медицинская химия». Интеграционные образовательные технологии способствуют более эффективному усвоению учебного материала студентами и повышают результативность проведения практических занятий. На основе обобщения результатов традиционного и интеграционного обучения проанализированы и выявлены преимущества интеграционного подхода в образовательном процессе.

Ключевые слова: интеграционное обучение, традиционное обучение, метод, методология, образовательная технология, междисциплинарные связи, учебное занятие

Abstract. This article examines the importance of interdisciplinary integration in organizing practical classes in the field of medical chemistry. Integrative educational technologies facilitate students’ mastery of the subject matter and contribute to the effective organization of practical training sessions. By summarizing the outcomes of traditional and integrative teaching approaches, the advantages of integrative education in the learning process are analyzed and highlighted.

Keywords: integrative education, traditional education, method, methodology, educational technology, interdisciplinary connections, lesson.

KIRISH.

Integratsion ta’lim zamonaviy pedagogikaning yetakchi konsepsiyalaridan biri bo‘lib, ta’lim jarayonida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Tibbiy kimyoni o‘qitishda ushbu yondashuv alohida ahamiyatga ega, chunki

ISSN 3030-3907

mazkur fan tibbiyot fanlarining nazariy asosini tashkil etadi. Kimyoviy qonuniyatlar va reaksiyalarni biologik, fiziologik hamda patologik jarayonlar bilan integratsiyalashgan holda o‘rgatish talabalarda yaxlit ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Nazariy jihatdan integratsion ta’lim tibbiy kimyoni faqat formulalar va reaksiyalar majmui sifatida emas, balki tirik organizmda kechadigan murakkab jarayonlarning ilmiy asosi sifatida talqin etishga imkon beradi. Bu yondashuv bilishning tizimli, mantiqiy va izchil rivojlanishini ta’minlaydi hamda fanlar o‘rtasidagi sun’iy chegaralarni bartaraf etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ta`limda integratsiyalash o`quvchi dunyoni bilishi va tasavvur qilishda bir tomonlama emas, balki har tomonlama rivojlanishga erishiladi [1]. Darsni samarali tashkil etish pedagogik mahoratni talab qiladi. Pedagogik mahorat, yuqori darajada pedagogik g'oyalar, ta'lim-tarbiya jarayoniga intiluvchi, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali ravishda qo'llab-quvvatlash qobiliyati hisoblanadi [4]. Integratsion ta`limda turli usullardan foydalangan holda amaliy va labaratoriya darslarini tashkil qilish mumkin, oxirgi paytlarda ma`ruza darslarini ham interaktiv, interfaol metodlardan foydalanib tashkil qilish ham maqsadga muvofiq bo`lmoqda. Masalan, fanlararo bog`liqlikni qo`llashda “muammoli ta`lim” texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. “Muammoli ta’lim” — bu o‘qituvchi tomonidan yaratilgan o‘quv muammolari orqali talabalarni faol fikrlashga, mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiruvchi metoddir [2]. Ushbu dializator markazida kapillarlar mavjud bo‘lib, membrana sellulozadan yoki polisulfondan tayyorlangan. Bemorning qoni magistral (sistema) orqali o‘tadi va qon yuqori konsentratsiyali ortiqcha qoldiqlardan tozalanadi. Buning natijasida qon yo‘qotilmaydi, chunki eritrotsitga o‘xshash yirik zarrachalarni membrana o‘tkazmaydi. Mazkur muolajani o‘tayotgan bemorlar kam peshob ajratadilar. Shuning uchun muolajani boshlashdan avval bemorning og‘irligi o‘lchanadi, chunki bemor tanasidagi suvning muolajadan oldingi va keyingi miqdori taqqoslanadi [3]

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Zamonaviy tibbiy ta’lim tizimida fanlararo yondashuvga asoslangan integratsion ta’lim muhim pedagogik tamoyillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tibbiy kimyo fanini o‘qitishda integratsion ta’limdan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini amaliy tibbiyot bilan bog‘lash, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda ilmiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tibbiy kimyo biologiya, biokimyo, fiziologiya, farmakologiya, patalogiya kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu fanlararo aloqadorlikni hisobga olgan holda o‘qitish ta’lim samaradorligini oshiradi. Integratsion ta’lim jarayonida kimyoviy tushunchalar tirik organizmdagi biologik jarayonlar, metabolik

ISSN 3030-3907

reaksiyalar, dori vositalarining ta’sir mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirib tushuntiriladi. Bu esa talabalarda tibbiy kimyoning amaliy ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Masalan, Oliy hamshiralik yo`nalishlari uchun amaliy darslarda “Poli- va Geterofunksional birikmalar dorivor preparatlar va metabolitlar sifatida” mavzusida darsni integratsion metodlar yordamida tashkil etishda farmakologiya bilan bog`lagan holda o`tish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunda har bir kimyoviy moddaning organizmdagi ahamiyati kasalliklar bilan bog`langanligi moddaning xotirada qolishini osonlashtiradi. Bundan tashqari, ma`lumotlarni jadval ko`rinishida ham taqdim qilish mumkin:

1-jadval

№	Modda nomi	Moddaning xususiyatlari
1	**Asetilxolin**	Neyromediator,qon tomirlarni kengaytiruvchi
2	**Dimedrol**	Allergiyaga qarshi,uxlatuvchi
3	**Parasetamol**	Isitma tushiruvchi, og`riq qoldiruvchi va uxlatuvchi
4	**Aspirin**	Qonni suyultiruvchi,revmatizmga qarshi,shamollashga qarshi

Integratsion yondashuv tibbiy kimyo mavzularini real klinik holatlar bilan bog‘lab o‘rganishga imkon yaratadi. Masalan, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini o‘rganishda hujayra nafas olishi, antioksidantlar faoliyati va erkin radikallar bilan bog‘liq patologik holatlar misolida tahlil qilish talabalar bilimini mustahkamlaydi. Bunday yondashuv bilimlarni mexanik yodlashdan ko‘ra, ularni tushunish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Integratsion metodlar — keys-stadi, loyiha ishlari, fanlararo masalalar va klinik holatlarni tahlil qilish — talabalarni faol ta’lim subyekti sifatida shakllantiradi. Ushbu metodlar yordamida talabalar kimyoviy bilimlarni amaliy tibbiyotda qo‘llashni o‘rganadilar, bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Keys-stadi metodi muammoli holatlarga yechim topish orqali talabalarni fikrlashiga yordam berib, mavzuni xotirada saqlanishini osonlashtiradi va ma`lumotlarni chuqur o`zlashtirilishiga yordam beradi. Bunda mavzuga doir keys tuziladi va shu keysni tahlil qilgandan so`ng shu keysga doir topshiriqlar bajariladi. Keysning o`zi matn yoki muammoli vaziyat sifatida taqdim qilinadi. So`ngra esa topshiriqlari savol, variantli test ko`rinishida talabalarga vazifa qilib beriladi. Mana shu savollarga javob bergan holda talabalar masalani yechish davomida mantiqiy fikrlash doiralarini oshirishadi.

Vaziyat tavsifi

ISSN 3030-3907

Kasalxonaga og‘ir darajadagi suvsizlanish (degidratatsiya) va qon hajmining keskin kamayishi (gipovolemiya) belgilari bilan 45 yoshli bemor olib kelindi. Klinik tekshiruv natijalariga ko‘ra, bemorda arterial bosim pasaygan, yurak urish tezlashgan, qon plazmasi oqsillari miqdori me’yordan past ekanligi aniqlandi. Shifokorlar bemorni davolashda **kolloid eritmalar** asosidagi infuzion preparatlardan foydalanishni rejalashtirdilar.

Muammo

Bemor organizmida qon plazmasining onkotik bosimi pasaygani tufayli suyuqlik tomir ichida ushlanib qolmayapti. Oddiy kristalloid eritmalar bilan davolash kutilgan samarani bermasligi mumkin. Shu sababli kolloid eritmalarning xossalari va ularning organizmdagi ta’sir mexanizmini tushunish zarur.

Tahlil uchun savollar

1.Kolloid eritmalar nima va ular kristalloid eritmalardan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

2.Kolloid zarrachalarning o‘lchami va dispers fazasi ularning biologik suyuqliklarda barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

3. Kolloid eritmalarning onkotik bosim hosil qilishdagi roli nimadan iborat?

4. Tibbiyot amaliyotida qo‘llaniladigan asosiy kolloid eritmalarga qaysilar kiradi?

5. Kolloid eritmalarni qo‘llashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya holatlar qaysilar?

Nazariy asos

Kolloid eritmalar — dispers faza zarrachalarining o‘lchami taxminan 1–100 nm bo‘lgan, bir jinsli ko‘rinishga ega geterogen sistemalardir. Qon plazmasi, limfa va hujayra ichki suyuqliklari tabiiy kolloid sistemalarga misol bo‘la oladi. Tibbiy amaliyotda dekstranlar, jelatinlar, albumin eritmalari kabi sun’iy kolloid eritmalar keng qo‘llaniladi. Ular tomir ichida uzoq vaqt saqlanib, suyuqlikni ushlab turish xususiyatiga ega.

Qaror

Bemorni davolashda albumin yoki dekstran asosidagi kolloid eritmalarni tomir ichiga yuborish orqali qon plazmasining onkotik bosimini tiklash va gemodinamikani barqarorlashtirish maqsadga muvofiq deb topildi.

Quyida “Kolloid eritmalar” mavzusi bo‘yicha tibbiy kimyo fanidan keys usulida ishlash uchun baholash mezonlari ilmiy-pedagogik talablar asosida tuzib berildi. Mezondan individual yoki guruhli baholashda foydalanish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Umumiy maksimal ball: 100 ball

1. Muammoni tushunish va aniqlash (20 ball)

ISSN 3030-3907

Keys vaziyatini to‘g‘ri anglagan — 10 ball
Asosiy muammoni aniq va mantiqan bayon qilgan — 10 ball

2. Nazariy bilimlardan foydalanish (25 ball)

Kolloid eritmalar tushunchasini to‘g‘ri izohlashi — 10 ball
Kolloid-osmotik (onkotik) bosimni ilmiy asosda tushuntirishi — 10 ball
Kolloid eritmalarning fizik-kimyoviy xossalarini (zarrachalar o‘lchami, stabillik, adsorbsiya) keltirishi — 5 ball

3. Tahlil va mantiqiy fikrlash (25 ball)

Muammoni sabab–oqibat asosida tahlil qilishi — 10 ball
Kolloid va kristalloid eritmalarni taqqoslashi — 10 ball
Tibbiy amaliyot bilan bog‘liq xulosalar chiqara olishi — 5 ball

4. Amaliy yechim va xulosa chiqarish (20 ball)

Vaziyatga mos ilmiy asoslangan yechim taklif qilishi — 10 ball
Kolloid eritmalarning afzallik va cheklovlarini ko‘rsatishi — 10 ball

5. Nutq va taqdimot madaniyati (10 ball)

Javoblarning izchilligi va aniqligi — 5 ball
Ilmiy terminlardan to‘g‘ri foydalanishi — 5 ball

Baholash natijalarini aniqlash

2-jadval

Ball oralig‘i	**Baho**	**Tavsif**	
86–100	A’lo	Mavzu mukammal o‘zlashtirilgan, tahlil chuqur	
71–85	Yaxshi	Asosiy tushunchalar o‘zlashtirilgan	
56–70	Qoniqarli	Bilim yetarli, ammo tahlil yuzaki	
0–55	Qoniqarsiz	Mavzu o‘zlashtirilmagan	

Shuningdek, integratsion ta’lim muammoli vaziyatlar, keys-stadi, loyiha va interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Bu esa talabalarni mustaqil fikrlashga, ilmiy tahlil qilishga va xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Natijada bo‘lajak shifokorlar kimyoviy jarayonlarni klinik fikrlash bilan uyg‘unlashtira oladigan malakaga ega bo‘ladilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Integratsion ta’lim tibbiy kimyoni o‘qitishda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim natijalarini ta’minlaydi. Talabalarda kimyoviy jarayonlarni tibbiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, klinik holatlarni tushuntirish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Mazkur yondashuv bo‘lajak shifokorlarning tanqidiy

ISSN 3030-3907

fikrlashini, analitik tahlil qilish qobiliyatini va ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Natijada bitiruvchilar tibbiy kimyo bilimlarini farmakologiya, diagnostika va davolash jarayonlarida samarali qo‘llay oladigan yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllanadilar.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy kimyoni o‘qitishda integratsion ta’limdan foydalanish ta’lim jarayonini mazmunan boyitadi, fanlararo uzviylikni ta’minlaydi hamda talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Bu yondashuv zamonaviy tibbiy kadrlar tayyorlashda muhim pedagogik omil sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G.A.Ixtiyarova, D.J. Bekchanov, M.Sh.Ahadov. Kimyoni o`qitishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati. ( O`quv qo`llanma) Toshkent 2020 (109-111 betlar)
2. Sh.I.Murodova. “The Importance of Problem-Based Learning in Teaching Medical Chemistry” International Journal of Pediatrics and Genetics Vol. 3 No. 11 (2025) ISSN: 2995-5483
3. N.T. Alimxodjayeva, G.G. Suleymanova, Z.A. Ikramova, X.S. Tadjiyeva Tibbiy kimyo 2-qism- T. 2024
4. R.Mavlonova, D.Abdurahimova pedagogik mahorat
5. (o'quv qo‘llanma) -T ., «Fan va texnologiya», 2009, 176 bet.
6. B. L.Faberman va boshqalar. Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari- T. 2002
7. A.Efimova. pedagoglik kasbi- T. 2002

ISSN 3030-3907